

A. O'ROLOV, T. QODIROVA

ARXITEKTURAVIY KOMPOZITSIYA TARIXI VA USULLARI

A grayscale architectural drawing of a building's structural frame, overlaid with a white grid. The drawing shows various beams and supports, with some lines highlighted in a lighter shade. The background is dark and textured.

TOSHKENT — 2013

7002. 3-03-14 *dup*

55

42,01
0-82
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

A. O'ROLOV, T. QODIROVA

ARXITEKTURAVIY KOMPOZITSIYA TARIXI VA USULLARI

(O'RTA OSIYO ARXITEKTURA YODGORLIKLARINING
TIPOLOGIK ASOSLARI)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 5A580102 – «Arxitektura nazariyasi va tarixi,
arxitektura yodgorliklarini tiklash» mutaxassisligi bo'yicha
o'tiladigan «O'rta Osiyo arxitektura yodgorliklarining tipologik
asoslari» fani bo'yicha magistrlar uchun o'quv qo'llanma

TOSHKENT
«VORIS-NASHRIYOT»
2013

UO'K 72(575)(075)

KBK 85.11(5)

O'82

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

M. Q. Ahmedov – arxitektura doktori, professor,

M. A. Yusupova – arxitektura doktori, professor

O'rolov A.

O'82 Arxitekturaviy kompozitsiya tarixi va usullari. (O'rta Osiyo arxitektura yodgorliklarining tipologik asoslari): o'quv qo'llanma. / A. O'rolov, T. Qodirova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Voriz-nashriyot», 2013 – 160-b.

Qo'llanmada O'rta Osiyoning o'tmishdagi ta'lim-tarbiya, ilm-fan maskanlari, diniy imoratlar, davolash va shifobaxsh-gigienik muassasalar, savdo inshootlari va bozorlar tarixi, ularning me'morchiligi, to'liq va yaxlit tipologiyasi bayon etilgan. Mazkur yodgorliklarning qadimiy ko'rinishlaridan tortib, to ularning O'rta Osiyoda sobiq sho'ro hukumati joriy etilgunicha va nihoyat mustaqillik yillarida qaytadan shakllanib ta'mirlangan yodgorliklarga doir materiallar umumlashtirilib, ilmiy tahlil qilingan. Qo'llanmada yodgorliklarni loyihalashdagi umumiy me'moriy qoidalar, me'moriy uyg'unlik va handasaviy mutanosiblik qonuniyatlariga ham e'tibor qaratilgan.

O'quv qo'llanma 5A580102 – «Arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini tiklash» mutaxassisligi bo'yicha o'tiladigan «O'rta Osiyo arxitektura yodgorliklarining tipologik asoslari» fani bo'yicha magistrlar, oliy o'quv yurtlarining talabalari, me'morlar, tarixchilar, san'atshunoslar va O'rta Osiyo yodgorliklari hamda moddiy-madaniy tarixi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-4212-8-8

© «VORIS-NASHRIYOT», 2013.

«Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqorolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbayiga aylanmoqda.»

Islom KARIMOV

«...O'zidan obod shahar-u vohalar, betakror go'zal yodgorliklar qoldirgan ajdodlarimiz mehnatini yuzaga chiqarish, ularni qadrlash, ruhi poklarini shod qilish, ezgu ishlarini davom ettirish biz uchun, bugungi avlod uchun ham farz, ham qarzdir ...»

Islom KARIMOV

KIRISH

O'tmish qadriyatlari xalqning bebaho madaniy merosidir. Ularda asrlar tajribalari jamlanib, bobolarimiz ijodiy mehnati mujassam bo'ladi. Mustaqillikka yerishgan xalqimiz olimlardan madaniy yodgorlik yoki yodnomalarni izlab topish, ularni chuqur o'rganib mag'zini chaqish, ijod pillapoyalaridan tobora ko'tarilib borib, istiqlol davri madaniyati ravnaqiga xizmat qilish kabi g'oyat ma'sul va zalvorli ishlarni kutib turibdi.

Bugungi kunda respublikamizda maorif va ta'lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodni barkamol va ziyoli qilib tarbiyalash muhim vazifalar qatoriga kiradi. Ana shunday ulkan ishlardan biri bu jahon hamjamiyatidagi ko'pgina mamlakatlar tomonidan ibrat va namuna tarzida e'tirof etilgan va Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov rahbarligida ishlab chiqilib, amalga joriy etilayotgan ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy dasturidir. Ushbu dastur va ta'lim-tarbiya tizimining tamoyillari jahon andazalariga mos kelishi bilangina emas, balki ajdodlarimiz tomonidan bu sohada qo'lga kiritilgan boy tarixiy tajribalarga tayanganligi bilan ham qimmatlidir.

Afsuski, qadimiy davrlardagi ta'lim-tarbiya tizimi va muassasalari haqidagi ma'lumotlar juda kam, chunki mo'ysafid tarixning turli xil voqea va hodisalari tufayli bu boradagi manbalarning aksariyati bizgacha saqlanmagan. Bizgacha saqlangan manbalardagi ma'lumotlarning ko'p-

4578 / 51
y. o. l. 4

ehiligi esa mamlakatimizda islom tamadduni tarqalgan davrlarga doir bo'lib, ularda ta'lim-tarbiya tizimi va muassasalari arabcha, ya'ni maktab, madrasa, madrasayi-oliya tarzida qayd qilingan.

O'tmishdagi ta'lim-tarbiya tizimi, uning xillari, ilm-fan muassasalari, diniy imoratlar, davolash va shifobaxsh maskanlari, gidrotexnik, savdo inshootlari va bozorlarning shakllanishi har bir mamlakatda o'z tarixiga ega. Xo'sh, bu tizimning O'rta Osiyodagi tarixi qanday va ular o'tmishda qaysi muassasalar (bino va inshootlar)da, ya'ni qanday tipologiyada amalga oshirilgan? Ushbu binolarning me'moriy yechimlari va tuzilishi qanday bo'lgan? Ularning qurilishida qanday me'moriy nazariy tamoyillar qo'llanilgan?

Bu savollarning javobini bilishga, ayniqsa, yoshlarimiz qiziqadi. Chunki bu bilimlar ularning milliy tuyg'usi, o'zligini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'tmishdaga ta'lim-tarbiya va ilm-fan muassasalari tipologiyasini hozirgi yoshlar, asosan, bizgacha saqlangan madrasalar va rasadxonalar orqali bilishadi. Biroq bu binolar ushbu tizimning bir qisminigina tashkil qilgan xolos. O'tmishda xalq ma'rifati va taffakurini oshirishga xizmat qilgan, O'rta Osiyolik olimlarning shakllanishda muhim rol o'ynagan ushbu tizim maskanlarini kompleks tarzda o'rganib, to'liq va yaxlit tasavvur qilish, ularning jamiyatdagi roli va o'rniga xolisona baho berish zarur. Shuningdek, diniy imoratlar, davolash va shifobaxsh muassasalar, qadimiy sardoba, hovuz kabi gidrotexnik inshootlar, bozorlar qurilishi buyuk ajdodlarimizdan qolgan me'moriy meros bo'lib, ularning tipologik va nazariy asoslarini o'rganish, uslublarini ochib berish vaqti keldi.

Mustaqillik yillarida O'rta Osiyoning o'tmishdagi ta'lim-tarbiya va ilmiy muassasalari hamda ta'lim tizimiga doir ma'lumotlar yoritilgan ba'zi ilmiy asarlar va maqolalar nashr etildi. Akademik Botirxon Valixo'jayev, tarixchi olimlar F. Ergashev, D. Obidov, Shokir G'afforov, Komilxon Kattayev, Mamadmuso Mamadazimov hamda me'morchilik fanlari doktori Axtam O'rolov chop etgan kitob va maqolalar shular jumlasidandir.

B. Valixo'jayev respublikamizda mavjud bo'lgan oliy ta'lim tizimini tarixi ancha qadim zamonlarga borib taqalishini o'zining «Samarqandda oliy ta'lim – madrasayi-oliya – universitet tarixidan lavhalar» (Samarqand, 2003) asarida ilk bor asoslab berdi. Ustoz va uning shogirdi K. Kattayevning Samarqand madrasalari xususidagi izlanishlari ham katta

ahamiyatga molikdir. F. Ergashev va D. Obidovlarning «Milliy ta'lim tarixidan» (Toshkent, 1998) nomli monografiyasida Turkistondagi ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Sh. G'afforov esa Chor Rossiyasi istibdodi davrida Turkistondagi ta'lim tizimini (Samarqand, 2001) yoritib berdi. M. Mamadazimovning Ulug'bek va uning rasadxonasi haqidagi risolasida (Toshkent, 1994) alloma yaratgan nodir ilmiy maskanga tafsif berilgan. A. O'rolov va M. Xojixonovning «Temuriylar ma'naviyati va madaniyat» kitobida (Samarqand, 1996) Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro va boshqa Temuriy va Boburiylar bunyod etgan madrasalar va ilmgohlar haqida fikr yuritilgan.

M. Ahmedovning «O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi» (Toshkent, 1995) o'quv qo'llanmasida shaharsozlik va me'morchilikning bosqichma-bosqich rivojlanish tarixi, me'moriy ansambl va komplekslar tuzish san'ati me'morchiligining nazariy asoslari yoritilgan. X. Po'latovning «O'zbekiston arxitektura yodgorliklari» (Toshkent, 2003) nomli o'quv qo'llanmasida eng qadimgi davr yodgorliklaridan XX asr boshigacha yaratilgan yodgorliklar tarixi va ularning shaharlardagi joylashuvi o'z aksini topgan.

Biroq O'rta Osiyo arxitektura yodgorliklarining tipologik asoslariga doir o'zbek tilidagi kitob yoki o'quv adabiyoti yo'q hisobi.

Shunday qilib, biz mazkur qo'llanmada ko'tarilgan mavzuga doir so'ngi yillarda bajarilgan ilmiy tadqiqotlarga, ilmiy manbalar va adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, O'rta Osiyo arxitektura yodgorliklarining tipologik asoslarini yoritishga harakat qildik.

I bob. O'RTA OSIYO ARXITEKTURA TARIXIDA DINIY IMORATLAR

1.1. Otashkada va otashgohlar

Islom, buddaviylik va xristianlik dinlari dunyoning jahoniy dinlari hisoblanadi. Shulardan eng qadimgisi buddaviylik miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda vujudga kelgan bo'lsa, xristianlik milodning boshlarida Falastinda, eng so'nggisi – islom esa o'ziga 622-yildan boshlab Arabistonda hisob ochgan. Biroq, bu dinlardan tashqari juda qadim zamonlardan boshlab milliy dinlar (budaizm, hinduiylik, konfutsiylik va boshqalar) ham mavjud bo'lib, ular qatoriga O'rta Osiyoda miloddan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning birinchi yarmida to'liq shakllanib bo'lgan zardushtiylik (yevropacha zoroastrizm) dini ham kiradi.

Zardushtiylik dinining payg'ambari vatandoshimiz Zardusht Sepitoma (boshqa tillarda Zaratushtra, Zoroastr) bo'lib, (miloddan avvalgi 589–512 yy.) u yakkaxudolikka asoslangan ushbu dinning muqaddas kitobi – «Avesto»ga asos soladi. Avestoda yakka-yu yagona xudo Axuramazda yaratgan 16 mamlakatdan 9 tasi Janubi-G'arbiy va O'rta Osiyodagi viloyat va shaharlardir. 2 tasi afsonaviy bo'lsa, qolgan 5 tasi Hindiston, Ozarboyjon va Armaniston hududlariga to'g'ri keladi. Milodiy I–II asrlardan boshlab O'rta Osiyoga Hindistondan buddizm kirib keldi. Biroq unga qadar bu o'lkada zardushtiylik yetakchi din hisoblangan. O'rta Osiyoda buddizmga davlat dini maqomi berilsa-da, zardushtiylik u bilan yonma-yon holda, to bu yerda islom dini tan olingunga qadar o'z kuchini yo'qotmadi.

O'rta Osiyoda islom tarqalgunga qadar, asosan, ikki xil din: zardushtiylik va buddizm hukumronlik qilgan bo'lsa-da, yana boshqa qator diniy mazhablar ham (masalan, xristianlik, moniylik) bo'lganligi ma'lum. Shuning uchun ham bu o'lkada islom dinigacha turli xil ibodatxonalar barpo etilganligi aniqlangan. Biroq, ular orasida ko'pchilikni tashkil etadiganlari bu zardushtiylik ibodatxonalari – «otashkada» va «otashgoh»lar hamda budda ehromlari – «budkada»lardir.

Ma'lumki, har bir din o'z diniy va ibodat muassasalariga ega. Agar islomda masjid ana shunday diniy bino hisoblansa, zardushtiylikda bunday binolarga «otashkada» va «otashgoh»lar kirgan. Zardushtiylik dinida olov insonlarni gunohdan xolos etuvchi seyrak kuch va ilohiy adolat ramzi hisoblangan. Shu bois zardushtiyalar olovga sig'ingan, shuningdek, ular yer, suv, havo, oy va yulduzlarni ham muqaddas deb bilganlar.

Turon va Eron xalqlari zardushtiylik diniga rasmiy kirgunga qadar ham bu o'lkalarda muqaddas alovga sig'inish, ya'ni otashparastlik an'analari 2-3 ming yilliklar davomida shakllanib kelgan. Biroq zardushtiylik diniga kirgach (eramizdan oldingi VI asr) payg'ambar Zardusht maslahati va nazorati bilan shahar va qishloqlarda ibodatxonalar qurish haqida farmon chiqariladi. Qishloqlardagi ibodatxonalar «otashgoh», markaziy shaharlardagisi esa «otashkada» deb yuritiladi. Dastlab otashkada diniy marosim va ibodatlarni bajarish maskani bo'lgan. Asta-sekin otashkadalar ibodat maskani bo'lishi bilan birga o'ziga xos jamoat markazi, ta'lim-tarbiya va ma'rifat o'chogi vazifasini ham bajargan. Negaki, xalq u yerda yakkaxudolik e'tiqodiga oid yangi «qonun-qoidalarni o'rgangan, tangri Axuramazdani madh etuvchi madhiyalarni musiqa jo'rligida yod olgan, qoxinlar esa ko'hna asotirlarni rivoyat qilganlar». Bundan tashqari poytaxt shaharlarda qad rostlagan otashkadalar huzurida maktab, darmongoh (poliklinika), kasalxona, kutubxona, qiroatxonalar mavjud bo'lgan.

Shunday otashkadalardan biri Balxda qurilgan bo'lib, uning ochilish marosimida Zardushtning o'zi ishtirok etgan va ibodat paytida ko'pxudolik tarafdorlarining fatvosi bilan miloddan oldingi 512-yilda vahshiyona o'ldirilgan. Otashkadalar, shuningdek, Buxoroda, Samarqandda, Xorazm va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida ham faoliyat ko'rsatgan.

Otashgohlardagi «Olov uyi» ning me'moriy yechimi O'rta Osiyoda qadimdan keng tarqalgan «chortoq» kompozitsiyasiga asoslanib, joylarda ular turli hajmiy (kesik piramida, kub va parallelogram) ko'rinishlarida qurilgan. Masalan, Erondagi Neysar otashgohining usti uchli gumbaz bilan yopilgan bo'lib, hajmi kesik piramida shaklidagi chortoq ko'rinishida, Boku shahri yaqinidagi Suratxona qishlog'ining otashgohi esa kub shaklidagi chortoq ko'rinishida, Lenkorandagi otashgoh tarzi parallelogram shaklida, Hindistonning Jalam vodiysidagi otashgoh ham kub ko'rinishidagi chortoq tarzida qurilgan. Ma'lumki, «chortoq» deb tarhi kvadrat shaklidagi to'rt tomonga bir xil toq tarzida

ochilgan usti yopiq imoratga aytiladi. Chortoqning tomi, odatda, gumbaz bilan yopilgan. O'rta Osiyodagi chortoq kompozitsiyasida qurilgan va bizgacha saqlangan eng yorqin binolardan biri bu Buxorodagi Somoniylar maqbarasidir.

Samarqanddagi qadimgi Afrosiyob shaharchasidan topilgan otashkadaning (mahalliy tilda «olovxona» deyilgan) me'moriy yechimi yuqoridagi otashgohlardan farq qilib, ikki xonadan: usti ravoqli, tarhi to'g'ri to'rtburchakli cho'zinchoq daxlizdan va usti gumbazli kvadrat zalli olovxonadan iborat.

Zardushtiylik ibodatxonalarining «otashkada» yoki «otashgoh» deyilishiga sabab shuki, mazkur binolar ichida muqaddas olovga sig'inish uchun maxsus otashkad nazarda tutilgan. Otashkad, odatda, ibodat zalining o'rtasiga yoki zal devorlarining biridagi muqaddas mehrob – maxsus altar yoniga joylashtirilgan. Ibodat zalining tarxi, odatda, kvadrat, ayrim hollarda doira shaklida ham bo'lgan (masalan, qadimgi Parfiyadagi Niso ibodatxonasining zali doira shaklida bo'lgan). Ibodat zali kvadrat shaklda bo'lganda, zal o'rtasiga chor (to'rt) ustun o'rnatilgan va ular oralig'idagi polga maxsus tagkursi yoki supa ishlanib, otashkad joylashtirilgan. Ustunlar usti to'sinlar va vassalar bilan yopilib, hosil bo'lgan shift markazida tuynuk qoldirilgan. Ba'zida ibodat zalining usti gumbaz bilan yopilgan. Ayrim hollarda ibodat zalining bir devori hovli tarafga ochilib, hovlidan zal intereri to'liq ko'rinib turgan. Zalning qolgan uch devorlari uzun yo'lak (koridor) va boshqa xonalar bilan tutashgan.

Masalan, Panjikentdan topilgan ikkita qadimiy ibodatxona ana shunday tarxda qurilgan. Devorlar haykallar qo'yiladigan tokchalar va rangli uzun devoriy tasvirlar bilan bezatilgan. Haykallar zardushliylik dinining mahalliy ilohlari – Anaxita, Mitra, Siyovush va boshqalarga bag'ishlangan. Otashkadalar hovlisiz, hovlili va peshayvonli kompozitsiyalarda qurilgan. Zardushtiylik ibodatxonalarining turli kompozitsiyalarda bo'lishi ularning shahar tizimidagi joylashgan o'rni, ibodatxona tarkibidagi xonalar soni va funksiyalariga bog'liq bo'lgan.

Otashkada qoldiqlari Xorazmdagi qadimgi Jonbosqal'a Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'ada, Penjakentdagi ikki nafar «olov ehromi»da, Toshkent vohasidagi Qadimgi Kanka, O'zbekiston janubidagi Yerqo'rg'on va Jarqo'rg'on, Buxoro yaqinidagi Varaxsha shaharchalaridan ham topilgan. Ulardagi umumiy o'xshashlik bu o'rtadagi usti yopiq muqaddas olov joylashgan mehroblil xona va uning oldidagi yarim ochiq

ayvon bo'lib, olovxona atrofidagi xonalar o'zaro yopiq raxrov (koridor) bilan tutashgan. Muqaddas olov xonasi atrofini koridorlar uch yoki to'rt tomondan o'rab olgan. Ba'zi hollarda otashkada yordamchi va qo'shimcha imoratlar bilan hovli atrofida shakllantirilgan. Eng qadimgi «olov chitrom»lari baland va keng tagkursi (stilobat)lar ustiga atrof muhitdan ko'rinarli qilib qurilgan.

Bulardan tashqari V–VIII asrlarga oid qator qishloq olovxonolari ma'lum. Ularning asosiy qismi xom g'isht, paxsa, yog'och va ba'zilari tog' toshidan qurilgan. Pishiq g'isht (garchi miloddan oldin ma'lum bo'lsa-da) devorlarni tiklashda ishlatilmagan. U faqat ba'zi qasr va otashkadalarning polini qoplashda qo'llangan. Otashkada devorlari mayin somon suvoq va maxsus ganch pardoz bilan sayqallangan.

Buxorodagi hozirgi «Mag'oki Attoriy» masjidining o'rnida qadimda (X asr) «Mox bozori» bo'lib, shu bozorda otashparastlar ibodatxonasi, ya'ni olovxona ham bo'lgan. Narshaxiyning yozishicha, otashparastlar bozor kunlari ushbu ibodatxonaga yig'ilishib, olovga sig'inar ekanlar. Narshaxiy zamonasida (Islom davrida) otashkada buzib tashlanib, uning o'rniga Mox masjidi qurilgan ekan.

Otashgohlar hozirga qadar Tojikistonning Qorategin va Darvoza vohalaridagi ko'pgina qishloqlarda saqlanib qolgan. Bu qishloqlarda qadimdan mavjud bo'lgan olovxonalar qoshiga XX asrning 20-yillarida masjidlar qurilib, ular olovxonalar bilan yaxlit kompozitsiya hosil qilgan. Olovxona binosining sahni katta bo'lib, bino o'rtasidagi to'rt ustun oralig'ida olov (o'choq) joylashgan. Bino tomining ushbu o'choq ustidagi qismi tom sathidan 2 va undan ziyod metrga ko'tarilib, yon devorlaridan tutun chiqib ketish va xonani shamollatish uchun tuyuklar qoldirilgan. Tojikistonning tog'li qishloqlarida hozir ham yuzasi 100–200 kv m ga teng bo'lgan otashkadalar saqlangan bo'lib, ular keyinchalik choyxona deb yuritila boshlangan.

1.2. Budda ibodatxonalari, monastirlari va stupalar

Buddaviylik dini mil.avv. VI asrda Hindistonda vujudga kelgan. U dunyoda birinchi paydo bo'lgan jahon dinidir. Buddaviylikning asoschisi shohzoda Gautama Siddxartxa bo'lib, u vafot etgach xalq uni Budda, ya'ni «Haqiqat najotkori»deb atashgan. Buddaviylik ana shu nomdan kelib chiqqan. Buddaviylik dinining muqaddas kitobi «Tripitaka» (Uch savat donolik) deb ataladi. Buddaviylar Gautama, ya'ni Buddani xudo deb e'lon

qilib, unga sig'inish uchun ulkan ehromlar qurishgan. Buddaviylikkacha O'rta Osiyo xalqlari zardushtiylik dinida edilar. O'rta Osiyoda Kushon davlati tashkil topgach (miloddan avv. I asr) uning hukmdorlaridan biri Kanishka milodning I asr oxiri – II asr boshida Hindistonning bir qismini o'z davlatiga qo'shib oladi. Shunday qilib, budda dini O'rta Osiyoga Hindistondan kirib keladi va u Kanishka davrida davlat diniga aylantiriladi. Arxeolog olimlar: M. Y. Masson, G. A. Pugachenkova, E. V. Rtveladze, B. Y. Staviskiy, L. I. Albaum va boshqalar Kushon davlatining shaharlari Eski Termiz, Ayritom, Fayoztepa, Dalvarzintepa va Kuvada budda ehromlari qoldiqlarini topishgan.

Milodning I asrlarida shimoliy Baqtriya, ya'ni Toxariston (hozir Surxandaryo hududi) me'morchiligida buddizm dinining tarqalishi ushbu dinga xos yangi tipdagi diniy inshootlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Bu davr shaharlari qiyofasida buddizm diniga bog'liq binolar ahamiyati o'sadi. O'rta Osiyoda bu davr buddaviy monastirlari, ya'ni «vixara»larning keng ko'lamda qurilishi bilan ajralib turadi. Vixaralar, odatda, xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, ularda raxrov (koridorlar) keng qo'llanilgan, tomi toqsimon va rovoq qurilmalar bilan yopilgan. Ayrim vixaralarga devoriy suratlar va haykallar ham ishlangan. Ayrim mualliflar Buxoro shahrining nomi ana shu budda monastirlari (vixaralar) so'zidan olingan degan fikrni aytishgan.

Budda ibodatxonalari – «budkada»larning ham otashkadalar kabi muqaddas xonasi (sajdagohi) bo'lib, u binoning markazida yoki to'rida joylashgan. Sajdagohga, odatda, Buddaning katta haykali o'rnatilgan. Budda sajdagohning o'rtasida yoki uning to'rida joylashgan. Markaziy xona – sajdagoh atrofi yo'laklar bilan aylantirilgan. Ibodatga kelgan oddiy xalq ana shu yo'laklar bo'ylab markaziy xona atrofini aynalishlari va shundan so'ngina sajdagohga kirishlari mumkin bo'lgan. Markaziy xonada koxinlar, yo'laklarda esa ruhoniylar ibodat qilishgan degan fikrlar ham mavjud.

Budda ehromlarining ichki ko'rinishini Kuva ehromi misolida tasavvur qilaylik. Budkadaning sajdagohi uzunchoq to'g'ri to'rt burchak shaklidagi keng va baland xona bo'lib, unda ikki qator ustunlar o'rnatilgan. Ana shu ustunlar oralig'ida, xona to'ridagi supa ustida Budda joylashgan.

Xona yon devorlaridagi tokchalarda ham kichikroq haykallar joylashtirilgan. Ular Buddaning shogirdlari va buddaviy personajlardir. Katta haykal – Budda ustidagi shift to'sinlarining ko'ndalang o'rnatilishidan mazkur xona tuynukli gumbaz shaklidagi tom bilan yopilgan deb xulosa qilish mumkin. Mazkur tuynukdan tushayotgan yorug'lik nisbatan yarim

qopsonq'i xonadagi Buddha haykalini yaxshi yoritib, uning ko'zga yaqqol ta'birini ta'minlagan. Ayrim Buddha ibodatxonalarida markaziy majdaloh usti gumbaz bilan yopilib, Buddha haykali asosiy ravoqsimon kirish eshigi ro'parasidagi devorga yaqin shox supa ustiga o'rnatilgan. Buddha ibodatxonalarida «anfilada» – bir xonadan ikkinchisiga o'tiladigan markaziy xonali tarx ham qo'llanilgan. Ajinatepa Buddha ibodatxonasi majdalohiga tutashgan aylanma yo'laklar ancha keng bo'lib, ulardagi chuqur ravoqli tokchalar ichiga ham haykallar o'rnatilgan. Asosiy xona majdaloh va yo'laklarning devorlari va shiplari boy devoriy rang tasvirlar bilan bezatilgan. Rasmlarda, asosan, Buddha, Bodxist, koxinlar va tabiat manzaralari tasvirlangan. Buddha ibodatxonalarining ham otashkadalariniki kabi hovlilari yoki hovlisiz rejaviy kompozitsiyalari mavjud. Hovlilari ibodatxonalarda xonalardan hovliga ayvonlar chiqarilgan. Masalan, Oq Beshim shaharchasidagi Buddha ibodatxonasining hovlisi bo'lib, unda hovliga qaragan ayvonlar ishlangan.


Kushonlar davrida Termiz shahrining shimoli g'arbiy burchagida joylashgan qoyada II–IV asrlarda yer ostida qurilgan «Qoratepa» deb ataladigan qo'rg'onda ham budda ibodatxonasi va vixaralar kompleksi topilgan. Qoratepa budkadasi me'moriy kompleks tarzidagi yarim yer osti, yer usti va g'or ko'rinishidagi uch oshyonli (yarusli) imoratlar va xonalardan tashkil topib, O'rta Osiyoda topilgan eng katta budda ibodatxonasi hisoblanadi. U, asosan, ohaktoshdan qurilgan. Qoratepa qo'rg'onining yonginasida joylashgan Fayoztepada ham II asrga oid yer osti budda ibodatxonasi va monastiri (vixara) topilgan. Bu O'rta Osiyodagi ikkinchi yirik budda kompleksi hisoblanadi.

Budda dinining g'oyalari, asosan, tasviriy san'at vositalarida (haykallar, mahobatli devoriy rang tasvirlarda) ifodalanadi. Shu jihatdan Buddha dini O'rta Osiyoga ilk o'rta asrlarda kirib kelgan va bu mintaqa xalqlari ma'naviy hayotida muhim o'rin egallagan monixey (Moniy) diniga yaqin turadi. Bu dinning asoschisi Moniy bo'lib, u 216-yilda Bobilda tug'ilgan (vafoti 276–277-yillar). Moniy ta'limotiga zardushtiylilik, xristian va ma'lum darajada buddizmdan ko'pgina elementlar kirgan. Moniy mashhur rassom sifatida tanilgan bo'lib, uning san'ati qaytarilmas va yerishib bo'lmas darajada yuksak hisoblangan. Afsuski, Markaziy Osiyoda monixey dini ibodatxonalari bizgacha saqlanmagan.

Stupalar. Buddha dini inshootlarining yana bir turi stupalardir. Stupa sanskritcha cho'qqi ma'nosini anglatib, dastlab u Buddha ruhoniylarining

diniy marosimlariga mo'ljallab qurilgan. Ta'kidlanishicha, Budda jasadi kuydirilib, kuli 8 bo'lakka bo'lingan va maxsus qurilgan stupalarga qo'yilgan. Keyinchalik stupalarga yodgorlik sifatida Buddaning muqaddas deb sanalgan a'zolari (sochi, tishi va boshqalar) solingan qutichalar joylashtirilgan. Vaqt o'tishi bilan stupalar Budda yoki butparastlar tomonidan alohida e'zozlangan kishilarning jasadlari yoki qimmatbaho ashyolar, muqaddas buyumlar va yodgorliklar saqlanadigan mahobatli diniy inshoot ko'rinishini olgan. Dastlabki stupalarning asosi zinali bo'lib, hajmi yarimshar shaklida, tarhi aylana ko'rinishda qurilgan (masalan, miloddan avvalgi III–II asrlarga mansub Sanchi Stupasi). Stupalarning minorasimon, kvadratga, butilkaga, qo'ng'iroqqa o'xshaydigan xillari ham uchraydi. Stupalar, asosan, tosh bloklar, ohaktosh, xom g'isht va paxsadan qurilgan. Balandligi 4–5 metrdan bir necha o'n metrgacha bo'lgan.

Stupalar buddizm tarqalgan mamlakatlarga keng yoyilgan va turli mamlakatlarda turlicha: «degoba», «suburgan», «chorton», «pagoda» deb atalib, o'ziga xos me'moriy shakllar kasb etgan. Masalan, Surxondaryoning qadimgi davr diniy yodgorliklari orasida Eski Termiz shaharchasi yonidan shakli minorasimon stupa topilgan. U «Zurmala minorasi» deb atalib, nisbatan yaxshi saqlangan. Dastlab uning usti, ya'ni qoplamasi bo'lgan, hozirda u qulab tushgan. Xitoyda stupalar «pagoda» deb ataladi.



Surxondaryo viloyati. Qoratepa majmuasidagi stupaning ta'mirlangan holati (T. Mamatmusayevning magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha).

O'rta Osiyo hududidagi stupalar I–IV asrlarga oid bo'lib, ular, asosan, mintaqaning janubiy hududlarida joylashgan. O'zbekistondagi Zurmala minorasi, Ayritom, Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa hamda Ajintepa (Tojikiston), Marv (Turkmaniston) stupalari ilmiy o'rganilgan.

1.3. Xristian dini ibodatxonalari – cherkovlar

Olimlarimizning ta'kidlashicha, xristian dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi yeramizning II–V asrlariga to'g'ri keladi. E. Rtveladzening yozishicha, VI–VII asrlarda nestorian yo'nalishidagi xristian dini O'rta Osiyoning g'arbiga shunchalik o'rnashgan ediki, xristian jamoalarining yiriklashganligidan, ko'pchilik shaharlarda metropoliy tashkil qilishga to'g'ri kelgan.

Xristian dinining ibodatxonasi «cherkov» deb atalib, shu dinga mansub «Xaroba koshuk» nomli cherkov Marv yaqinidan topilgan. Uning qurilishi V–VI asrlarga to'g'ri keladi. Sherkov binosi uzunchoq katta xona (zal)dan tashkil topgan. Uning devorlaridan ichkari tomon bo'rtib chiqqan g'isht ustunlar zalni yetti bo'lakka bo'lgan. Shimoli sharq tomonda oxirgi bo'lak tarhda xoch (krest) shaklidagi xona ko'rinishini olgan. Uning to'rdagi devori tarhda xristian ibodatxonalari mehrobi – «apsida»ga xos yarimdoira shakliga keltirilgan. Bo'linmalar katta kichikligi bilan ajralib turadi. Eng katta bo'linma mehrobli xona bilan tugagan. Sherkovning ichki qismi devorlarida rangli tasvirlar bo'lgan.

Tarhi va bezaklari shunga o'xshash bo'lgan xristian cherkovi Oq-Beshim shaharchasidan ham topilgan. Uning mehrob joylashgan xonasi devorida yorqin ranglarda ishlangan suratlardan parchalar saqlanib qolgan. Xristian cherkovlari Taraz va Miraki shaharchalarida ham bo'lgan.

Xristian ibodatxonasi Eski Termizda ham topilgan bo'lib, u 16 ta xonadan tashkil topgan. Uning cherkov qismi uzunligi 16 va 20 metrli ikkita xonaning kesishuvi natijasida hosil bo'lgan salib tuzilishidagi tarhni tashkil qiladi. Ularning kesishgan joyi tarhda kvadrat (4,5×4,5 m) shaklida bo'lib, usti gumbaz bilan yopilgan. Eski Termiz xristian ibodatxonasining markazida bir tomoni tarhda yoysimon tuzilishdagi xona bo'lib, uning janubiy qismi 5 ta mehrob (apsida) bilan belgilangan. Markaziy absida yonidagilardan o'zining kattaligi bilan ajralib turgan va undan qo'shni kichik xonaga (xor ijro etiladigan xonaga) o'tish uchun eshik qoldirilgan.

O'rta Osiyo xristian cherkovida diniy xor ijro etish qismi Suriya, Armaniston va Konstantinopoldagi Avliyo Sofiya ibodatxonalaridagidek absida bilan tugatilgan. Xristian cherkovida ibodat jarayonini ruhoniy shaxs cherkov mehrobi – absidadan turib zalga qarab boshqargan. Shuning uchun ham cherkovlarda asosiy ibodat zali ko'p kishini sig'dirishga moslashtirilgan. Asosiy zal, odatda, uch nefga, ya'ni zaldagi ikki qator ustunlar yordamida yoki zalning ikki yonidagi markaziy qismi konstruktiv bo'rtib chiqqan holda zal uch qismga bo'lingan va uzun, cho'zinchoq tarhli kompozitsiyaga ega bo'lgan. Shuningdek, xoch (krest) tuzilishidagi tarh ham qo'llanilgan.


1.4. Masjidlar

Masjid arabcha «sajada» (egilish, sajda qilib, yuzni yerga tegizish) so'zidan olingan bo'lib, «sajda, ibodat qilinadigan joy» ma'nosini beradi. Masjidlarni «Allohning uyi» deb ham ataydilar.

Masjidlar musulmon Sharqi mamlakatlarining diniy va ijtimoiy hayotida muhim mavqega ega. Shuning uchun ham masjidlar o'tmishda O'rta Osiyoning tarixiy shaharlarida diniy, siyosiy va shaharsozlik nuqtayi nazaridan yetakchi o'rinni egallagan.

Ilk masjidga payg'ambarimiz Muhammad allayhissalom Madina shahrining janubida unga yaqin joylashgan Kuba nomli qishloqda asos soladi. Uning tarhi kvadrat shaklida, o'lchamlari 60×60 tirsakka teng (30×30 metrga yaqin) bo'lgan. Masjid binosi o'ta sodda hovli ko'rinishida bo'lib, palma yog'ochidan qurilgan ko'p ustunli ayvonnini eslatgan. Muhammadning Madinadagi ikkinchi masjidi uning o'z hovlisi hisoblanib, u ham kvadrat shaklida (50×50 metrga yaqin), ochiq hovli va ko'p ustunli ayvonlardan iborat bo'lgan.

Masjidlar o'tmishda nafaqat namoz o'qiladigan joy, balki ancha keng ijtimoiy vazifalarni ham bajargan. Masalan, ularda shariyatni buzganlar sud qilingan, kechqurunlari ulamolalar, yuristlar, shoirlar va faylasuflar uchrashib, ijodiy uyushmalar tashkil qilgan. Masalan, Misrning Fustat shahridagi masjidda 100 dan ziyod ana shunday uyushmalar ishlagan. G'arb islom mamlakatlaridagi masjidning ko'pchiligi ma'orif markazlari rolini ham bajargan. Jumladan, Qohiradagi Al-Axzar masjidi XX asr boshigacha islom dunyosining eng katta va obro'li dorulfununi tarzida mashhur bo'lgan.



Madina. Masjidi Nabaviya.

Masjidlarni vazifasining mavqei, shahar hududida joylashishi va me'moriy-rejaviy yechimlariga qarab bir necha turlarga bo'lish mumkin.

Vazifasining mavqei va joylashishiga ko'ra masjidlar **guzar masjidlari**, **jome masjidlari**, **saroy masjidlari**, **madrasalar**, **namozgohlar** va **qishloq masjidlariga** bo'lingan. **Guzar masjidlari** mahallalar markazlarida joylashib, bu yerdagi maktab, madrasa, choyxona, savdo va hunarmandchilik do'konlari, hammom kabi jamoat binolari bilan yaxlit me'moriy turkumni tashkil qilgan. Bu turkumda guzar masjidi yetakchi o'rnini egallagan. Guzar masjidlarida har kuni besh vaqt namoz o'qilgan. **Jome masjidlari** shahar va tuman ahamiyatiga ega bo'lgan alohida bino tarzida qurilgan. Ular, odatda, shahar yoki tumanning eng nufuzli jamoat joylari (madrasalar, bozorlar, karvon-saroylar) bilan yonma-yon joylashgan. Jome masjidlari, asosan, juma namozini o'qishga mo'ljallangani uchun «Juma masjidi» deb ham yuritilgan. Ayrim shaharlarda jome va juma masjidlari alohida o'z binolariga ega bo'lgan.

Jome masjidlari ko'p kishini sig'dirishga mo'ljallangani uchun atrofi devor bilan, devor esa hovli tomondan ayvonlar bilan aylantirilgan.

Namozgohlar esa, odatda, shahar tashqarisida, shaharga yaqin mavzelerde, orasta bog' va keng hududlarda joylashtirilib, ularda musulmonlar

yilda ikki marta ramozon va qurbon hayitlari bayramlari va xalq sayillarida yig'ilib namoz o'qishgan. Boshqacha qilib aytsak, namozgohlar shahar va viloyat mavqeidagi yirik bayram kunlarining ommaviy masjidlari hisoblangan. Shuning uchun ham ular «musallo», ya'ni bayram masjidlari deb atalgan. Nomozgohlar hududi devor bilan chegaralanib, o'z binosi, bog'i va yordamchi xonalari hamda imoratlarga ega bo'lgan.

Qishloq masjidlari, odatda, bozor bo'lib turadigan katta qishloqlarda qurilib, bozor joylarga yaqin joylashgan. Ayrim katta qishloqlarda esa bir nechta masjidlar bo'lib, ularning bittasi jome masjidi hisoblangan.

Bu masjidlardan tashqari yirik xonaqoh, maqbaralar, ziyoratgoh va mozorlar qoshida ham o'tgan Payg'ambarlar va arvohlarni xotirlash, ular haqiga duolar o'qish uchun masjidlar shakllangan. Ular, odatda, ushbu binolar bilan birikib, o'ziga xos me'moriy majmualar hosil qilgan. Bunday masjidlar, odatda, shaharlar va qishloqlar chetida, ularga yaqin bo'lgan mavzelerde qurilgan.

Bizgacha saqlanib kelgan o'rta asr masjidlari tarkibidagi mehrob, minbar, xonaqoh, maqsura va minoralar keyinchalik VIII–IX asrlardan boshlab vujudga kelgan.

«**Mehrob**» (arabcha sajdagoh) masjidning Makkaga qaragan devori ichiga taxmon shaklida ishlanib, namoz o'qiladigan tomon (qibla)ni bildiradi. «**Minbar**» esa masjidda imom va'z aytadigan va mehrobdan o'ng tomonda sal oldinda o'rnatilgan keng zinapoyali baland supa (kafedra)dir. «**Minora**» bu muazzinning azon aytib, musulmonlarni namozga chorlaydigan joyi. Odatda, u masjidning old tomonida qurilgan. «**Xonaqoh**» masjidning, asosan, qishda foydalaniladigan zali, ya'ni qishgi masjid hisoblangan.

Bundan tashqari, katta jome masjidlari va nomozgohlar tarkibiga «**maqsura**» ham kiritilib, u hukumat va din vakillarining ibodat joyi hisoblangan. Masalan, Samarqanddagi «Bibi-xonim» (Amir Temurning jome) masjidi hovlisining to'rida, qibla tomonda ulkan gumbazli va peshtoqli bino-maqsura joylashgan. Maqsuradan qishgi masjid sifatida ham foydalanilgan. Ko'pchilik masjidlar hovlisida hovuz bo'lib, undan tahorat uchun suv olingan. Ayrim masjidlar binosida imom uchun xona, kutubxona va boshqa yordamchi xonalar bo'lgan.

Endi masjidlarning me'moriy-rejaviy yechimlariga to'xtab o'tsak. Alohida bino ko'rinishda qurilgan masjidlarning me'moriy kompozitsiyalariga qarab, ularni quyidagi asosiy turlarga bo'lish mumkin:

– «chortoq» tuzilishidagi masjidlar;

- bir va ko'p ustunli masjidlar;
- ayvonli masjidlar;
- hovlili masjidlar.

«Chortoq» tuzilishidagi masjidlar. O'rta Osiyoda «chortoq» kompozitsiyasi islom davridan ancha ilgari vujudga kelib, aksariyat jamoat binolarining me'moriy shakllanishida genetik negiz tarzida xizmat qilgan. Chortoq kompozitsiyasi yuqorida yozganimizdek, dastlab «otashkadalar» qurilishida, so'ngra maqbarasozlikda, IX–X asrlardan boshlab esa jome masjidlarining qurilishida ham keng qo'llanilgan. Masalan, X asrda Ko'hna Termiz rabodida qurilgan «Shorustun» masjidi me'moriy yechimning negizida chortoq uslubi ishlatilgan. Bunday masjidlar yaxlit keng imorat bo'lib, 1; 2 yoki 3 tomonidan toq shaklli eshiklar ishlangan. Barg'ona vohasidagi Zul Kifl me'moriy kompleksining (XI–XII asrlar) masjidi ham chortoq kompozitsiyasi asosida qurilgan.


O'rta Osiyodagi dastlabki masjidlar Marv va Buxoroda VIII asr boshlarida qurilgan. Islom dini Eron va O'rta Osiyoga tarqalgan dastlabki davrlarda (VIII–IX asrlar) masjidlar qurilishida mahalliy otashgohlarga xos bo'lgan «chortoq» kompozitsiyasi qo'llanilgan. Marv vohasidagi Tulxaton bobo va Buxorodagi Mag'oki-Attoriy masjidlari bunga misoldir.

Tarixchi Muhammad Narshaxiyning ma'lumotiga qaraganda Buxoroda (shu jumladan Movarounnahrda)gi ilk masjid 713-yilda shu shahar arkida, sunamlar butxonasi o'rnida qurilgan. Samarqanddagi ilk masjid esa Afrosiyobda saqlanib qolgan Hazrati-Xizr masjidi o'rnida qurilgan.

Chortoq kompozitsiyasida qurilgan masjidlarning bir necha xillari mavjud: gumbazli, peshtoqli-gumbazli hamda chortoq va ayvon birikmasidan shakllangan masjidlar. Bunday masjidlar shahar mahallalari va qishloqlarda ko'plab qurilgan. Ayvonlar chortoqning bir, ikki yoki uch tomonidan birikkan.

Bir va ko'p ustunli masjidlar. Bunday masjidlarning o'lchamlari ustunlar ustiga o'rnatiladigan kvadrat shaklli shiplarning soniga qarab aniqlangan. Ulardan eng ko'p tarqalgani bir ustunli (4 ta kvadrat shipli) va to'rt ustunli (9 ta kvadrat shipli) masjidlardir. Shiplar gumbazlarga aylanib, ustunli-gumbazli masjidlarning bir necha turlari yuzaga kelgan.

Ko'p ustunli masjidlar O'zbekistonning Xorazm viloyatida (Xiva, Xozarasp, Urgench shaharlarida) ko'p uchraydi. Xivadagi jome masjidi (X asr, 1788-yilda qayta qurilgan) o'zining ixchamligi va ko'p ustunligi bilan ajralib turadi. Masjid binosi bir qavatli, tomonlari 46 m, ulkan va keng



yilda ikki marta ramozon va qurbon hayitlari bayramlari va xalq sayillarida yig'ilib namoz o'qishgan. Boshqacha qilib aytganda, namozgohlar shahar va viloyat mavqeidagi yirik bayram kunlarining ommaviy masjidlari hisoblangan. Shuning uchun ham ular «musallo», ya'ni bayram masjidlari deb atalgan. Namozgohlar hududi devor bilan chegaralanib, o'z binosi, bog'i va yordamchi xonalari hamda imoratlarga ega bo'lgan.

Qishloq masjidlari, odatda, bozor bo'lib turadigan katta qishloqlarda qurilib, bozor joylarga yaqin joylashgan. Ayrim katta qishloqlarda esa bir nechta masjidlar bo'lib, ularning bittasi jome masjidi hisoblangan.

Bu masjidlardan tashqari yirik xonaqoh, maqbaralar, ziyoratgoh va mozarlar qoshida ham o'tgan Payg'ambarlar va arvohlarni xotirlash, ular haqiga duolar o'qish uchun masjidlar shakllangan. Ular, odatda, ushbu binolar bilan birikib, o'ziga xos me'moriy majmualar hosil qilgan. Bunday masjidlar, odatda, shaharlar va qishloqlar chetida, ularga yaqin bo'lgan mavzelerde qurilgan.

Bizgacha saqlanib kelgan o'rta asr masjidlari tarkibidagi mehrob, minbar, xonaqoh, maqsura va minoralar keyinchalik VIII–IX asrlardan boshlab vujudga kelgan.

«**Mehrob**» (arabcha sajdagoh) masjidning Makkaga qaragan devori ichiga taxmon shaklida ishlanib, namoz o'qiladigan tomon (qibla)ni bildiradi. «**Minbar**» esa masjidda imom va'z aytadigan va mehrobdan o'ng tomonda sal oldinda o'rnatilgan keng zinapoyali baland supa (kafedra)dir. «**Minora**» bu muazzinning azon aytib, musulmonlarni namozga chorlaydigan joyi. Odatda, u masjidning old tomonida qurilgan. «**Xonaqoh**» masjidning, asosan, qishda foydalaniladigan zali, ya'ni qishgi masjid hisoblangan.

Bundan tashqari, katta jome masjidlari va namozgohlar tarkibiga «**maqsur**a» ham kiritilib, u hukumat va din vakillarining ibodat joyi hisoblangan. Masalan, Samarqanddagi «Bibi-xonim» (Amir Temurning jome) masjidi hovlisining to'rida, qibla tomonda ulkan gumbazli va peshtoqli bino-maqsurada joylashgan. Maqsuradan qishgi masjid sifatida ham foydalanilgan. Ko'pchilik masjidlar hovlisida hovuz bo'lib, undan tahorat uchun suv olingan. Ayrim masjidlar binosida imom uchun xona, kutubxona va boshqa yordamchi xonalar bo'lgan.

Endi masjidlarning me'moriy-rejaviy yechimlariga to'xtab o'tsak. Alo-hida bino ko'rinishda qurilgan masjidlarning me'moriy kompozitsiyalariga qarab, ularni quyidagi asosiy turlarga bo'lish mumkin:

– «chortoq» tuzilishidagi masjidlar;

- bir va ko'p ustunli masjidlar;
- ayvonli masjidlar;
- hovlili masjidlar.

«Chortoq» tuzilishidagi masjidlar. O'rta Osiyoda «chortoq» kompozitsiyasi islom davridan ancha ilgari vujudga kelib, aksariyat jamoat binolarining me'moriy shakllanishida genetik negiz tarzida xizmat qilgan. Shortoq kompozitsiyasi yuqorida yozganimizdek, dastlab «otashkadalar» qurilishida, so'ngra maqbarasozlikda, IX–X asrlardan boshlab esa jome masjidlarining qurilishida ham keng qo'llanilgan. Masalan, X asrda Ko'hna Termiz rabodida qurilgan «Shorustun» masjidi me'moriy yechimning negizida chortoq uslubi ishlatilgan. Bunday masjidlar yaxlit keng imorat bo'lib, 1; 2 yoki 3 tomonidan toq shaklli eshiklar ishlangan. Farg'ona vohasidagi Zul Kifl me'moriy kompleksining (XI–XII asrlar) masjidi ham chortoq kompozitsiyasi asosida qurilgan.


O'rta Osiyodagi dastlabki masjidlar Marv va Buxoroda VIII asr boshlarida qurilgan. Islom dini Eron va O'rta Osiyoga tarqalgan dastlabki davrlarda (VIII–IX asrlar) masjidlar qurilishida mahalliy otashgohlarga xos bo'lgan «chortoq» kompozitsiyasi qo'llanilgan. Marv vohasidagi Talxaton bobo va Buxorodagi Mag'oki-Attoriy masjidleri bunga misoldir.


Tarixchi Muhammad Narshaxiyning ma'lumotiga qaraganda Buxoroda (shu jumladan Movarounnahrda)gi ilk masjid 713-yilda shu shahar arkida, sanamlar butxonasi o'rnida qurilgan. Samarqanddagi ilk masjid esa Afrosiyobda saqlanib qolgan Hazrati-Xizr masjidi o'rnida qurilgan.

Chortoq kompozitsiyasida qurilgan masjidlarning bir necha xillari mavjud: gumbazli, peshtoqli-gumbazli hamda chortoq va ayvon birikmasidan shakllangan masjidlar. Bunday masjidlar shahar mahallalari va qishloqlarda ko'plab qurilgan. Ayvonlar chortoqning bir, ikki yoki uch tomonidan birikkan.

Bir va ko'p ustunli masjidlar. Bunday masjidlarning o'lchamlari ustunlar ustiga o'rnatiladigan kvadrat shaklli shiplarning soniga qarab aniqlangan. Ulardan eng ko'p tarqalgani bir ustunli (4 ta kvadrat shipli) va to'rt ustunli (9 ta kvadrat shipli) masjidlardir. Shiplar gumbazlarga aylanib, ustunli-gumbazli masjidlarning bir necha turlari yuzaga kelgan.

Ko'p ustunli masjidlar O'zbekistonning Xorazm viloyatida (Xiva, Xozarasp, Urgench shaharlarida) ko'p uchraydi. Xivadagi jome masjidi (X asr, 1788-yilda qayta qurilgan) o'zining ixchamligi va ko'p ustunligi bilan ajralib turadi. Masjid binosi bir qavatli, tomonlari 46 m, ulkan va keng






Xiva. Juma masjidi umumiy ko'rinishi fragmenti, tarhi.

yagona zaldan iborat. Uning 212 ta ustuni bo'lib, ularning balandligi 4,5 metrdir. Masjid ichi shirdagi 2 ta tuynuklar orqali yoritiladi. Masjidda X asrdan 15 ta ustun saqlanib qolgan, qolganlari, XI–XIV asrlarga tegishli turli-tuman ustunlardir.

Ayvonli masjidlar. O'rta Osiyoda ayvonli masjidlarning ikki guruhi keng tarqalgan: yig'noq (ustunli-gumbazli va ustunli) va frontal kompozitsiya (peshtoqli va ustunli). Birinchi guruhga bir yoki ikki tomondan ochiq, qolgan tomonlari yopiq bo'lgan guzar va xotira masjidlari kiradi. Termizdagi Shorustun, Tojikistondagi Shorku va Eshoni-Mavlono masjidlari bunga misol bo'la oladi. Ikkinchi guruhga xotira, jome, guzar masjidlari va nomozgohlar kiradi. Ayvonli frontal kompozitsiya esa ayniqsa, nomozgohlar va guzar masjidlari uchun juda xususiyatlidir. Ulardagi ustunli ayvon yoki maydon tomonga ochiq gumbazli galereya 3 ta dan 11 tagacha qator eniga, 1 ta dan 7 tagacha bo'yiga rivojlangan. Markaziy qator berk hajm shaklida bo'rttirilgan. Bu uslub Farg'ona vohasi masjidlarida keng tarqalgan. Rishtondagi Do'sti-Xudo, Shortoqdagi Xoja Mo'tavali, Paxtaobodagi Podsho Pirim kabi kichik masjidlar, shuningdek, juma masjidlari (Qo'qondagi 98 ta yog'och ustunli, 22 qatorli, ayvonli jome masjidi) shular jumlasidandir.

Hovlilil masjidlar. O'rta Osiyo hovlilil masjidlarining dastlabkilaridan biri bu Samarqand Afrosiyobidagi Somoniylar jome masjidadir. Bu masjid bir necha bor qayta qurilib, tarhda dastlab kvadrat, keyinchalik to'rt



Buxoro. Bolohovuz masjidi. Ayvon (XX asr boshlari).

burchak shaklida, o'lchamlari 84,6×3,4 metrni tashkil qilgan. Hovlisining to'rt tomonida xom g'ishtdan tiklangan ustunli ayvonlar bo'lgan.

Hovlili kompozitsiyalar ko'proq shahar jome masjidlarida qo'llanilgan bo'lib, ichki hovli atrofidagi ko'p ustunli galereyalardan tuzilgan. Ularning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

– kompozitsiya o'qi bo'rttirilmagan hovli (Afrosiyobdagi Somoniylar masjidi);

– bo'ylama kompozitsiyali o'qi eshik va maqsura orqali bo'rttirilgan hovli (saroylardagi masjidlar, Kurtli, Doxiston, X asr masjidlari, Toshkentdagi Jome masjidi, XV asr):

– bo'ylama va ko'ndalang o'qlari xoch shaklida kesishgan to'rt ayvonli hovli (masalan, Samarqanddagi Bibixonim, Buxorodagi masjidi Kalon va boshqalar).

Yuqorida keltirilgan masjidlardan O'rta Osiyoda eng ko'p tarqalgan xillari bu ayvonli va hovlili masjidlardir. Farg'ona vohasida o'ziga xos uslubda bunyod etilgan ko'pgina masjidlar saqlanib qolgan. Ularning aksariyati xonaqoh va unga birikkan ayvonlardan iborat masjidlar bo'lsa, qolganlari umumiy hovli atrofida shakllangan ko'p ustunli ayvonlar va peshayvondan tuzilgan. Masjidlarda O'rta Osiyo ustunli-to'sinli qurilmalarining turli xil yechimlari qo'llanilgan. Ularning ustunlarga



Samarqand. Bibixonim majmuasi.



Toshkent. Xo'ja Ahror Valiy masjidi.



Toshkent. Hazrati imom majmuasidagi yangi qurilgan masjid (2007-y.).

oʻrnatilgan muqarnas boshalari va shifti gʻoyat nafis gʻaroyib naqshlar bilan bezatilgan. Namangan tumanidagi Sirli, Shahrisabzdagi Pansod, Qoʻqondagi Jome masjidlari va boshqalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, toqli-ravoqli (*archno-svodchataya*) qurilmali masjidlar ham boʻlgan.

1.5. Xonaqohlar

Xonaqoh soʻzi forsha-arabcha boʻlib, «xona-uy» maʼnosini anglatadi. Dastlab taqvodor soʻfiylar va darveshlar yashaydigan boshpanalar xonaqoh deb atalgan (baʼzida ular «takya» yoki «zoviya» ham deyilgan). Xonaqohlar Oʻrta Osiyoda IX asrdan eʼtiboran shakllana boshlagan. Tarixiy manbalarda bu davrdagi Termiz, Samarqand, Fargʻona, Xuttal, Jurjon va Marv shaharlaridagi xonaqohlar qayd etilgan.

XI asrda Janubiy Turkmanistonning Mayxona shahri (hozirgi Miyon)da yashagan sufiy Abu Sayid xonaqohlarning shahar tizimidagi oʻrni, soʻfiylarning xonaqohda boʻlish va yashash tartib-qoidalarini ishlab chiqadi. Ularga koʻra xonaqohlar shaharning xilvatroq, hayotiy tashvishlardan holi, chekka mavzalarida ichki hovlilili oddiy imoratlar tarzida qurilmogʻi, xonaqohda soʻfiylarning yashashidan tashqari, maxsus diniy marosim – zikru samo raqsiga qatnashishlari hamda mutasavvufchilikdagi shogird-ustozlik shartlari ham belgilab beriladi. Ustoz soʻfiylar, yaʼni shayxlar vafot etgach oʻz xonaqohlari qoshiga dafn etiladi. Natijada shogirdlar va keyinchalik tasavvufga ixlos qoʻygan xalq ommasi

tomonidan bunday mashhur ustoz shayxlarning xonaqohlari o'ziga xos ziyoratgohlarga aylantiriladi.

Bunday xonaqohlarda so'fiylarning hujralaridan tashqari ziyoratchilar uchun ham maxsus xonalar tashkil etiladi. Termizdagi Hakim at-Termiziy, Miyondagi Abu Sayid va boshqa xonaqoh-ziyaratgohlar shular jumlasidandir.

XII asr o'rtalarida so'fiylar birodarligining rivojlanishi va tasavvuf tariqatida turli oqimlarning vujudga kelishi bilan xonaqohlarning me'moriy ko'rinishi va vazifalari ham o'zgara boradi. Bu davr xonaqohlari me'moriy jihatdan ancha shakllangan, ichki hovli atrofiga birikkan bir necha hujralar, so'fiylar jamoasining yig'ilish va zikr tushish zali (samo'xona), ustoz so'fiy, ya'ni shayxning o'z muridlariga tasavvuf ilmidan dars berish, etimlarga Qur'onni o'qitish hamda shayx va muridlarning yashash xonalari, darveshxonalar, chillaxona, ombor va oshxona, matrab (samo' vaqtida na't va ilohiy qo'shiq kuylovchilar o'tiradigan joy)dan tuzilgan. Tojikistonning janubida xarobalari bizgacha saqlangan Xoja Mashad xonaqohining me'moriy tuzulishi bunga misoldir.

O'rta Osiyoda turli davrlarda qurilib bizgacha etib kelgan xonaqohlar va ular haqidagi yozma manbalar ushbu binolarning o'tmishda xalq ijtimoiy hayotida tutgan o'rni va mavqei, tarkibiy tuzulishini, me'moriy tasnifi va yechimlarining to XVII asrgacha mufassal tarzda takomillashib kelganini ko'rsatadi. Biroq, xonaqohlar arxitekturasi va ijtimoiy vazifalarining rivojlanish cho'qqilari, asosan, Temuriylar (XIV–XV asrlar) va Shayboniylar (XVI asr) davriga to'g'ri keladi. Temuriylar va keyinchalik Shayboniylar ham tasavvuf (sufiylik) jamoasi faoliyatining nazoratini butkul o'z qo'llariga oladilar va o'zlari ham tasavvuf ahliga xayixoh holda yangi xonaqohlar quradilar. Buning sababi shuki, tasavvuf ta'limoti o'sha davrlarda va undan oldinroq ham xalq ommasi uchun Islom Sharqi dunyosining ma'naviy-axloqiy me'zonlariga, tasavvuf tariqatlarining asoschilari esa xalq orasida katta obro' qozonib, piru-ustozlarga aylangan edi.

Hujviriyning «Kashful mahjub» asarida xalq orasida keng tarqalgan va mashhur mutasavvufchilar atrofida shakllangan tariqatlar haqida mukammal ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Qodiriya tariqati (asoschisi va piri Abduqodir G'iloniy, 1160-y.), Yassaviya tariqati (asoschisi va piri Xoja Ahmad Yassaviy), Naqshbandiya tariqati (asoschisi Bahouddin Naqshband, 1389-y.) hamda Xilvatiya, Rifoiya, Mavlaviya, Shozaliya,

sa'diyya, Dasukiya, Badaviya, Akbariya, Suxravardiya, Kubroviya, Madyaniya, Shishtiya, Bayramiya va hakozi tariqatlar.


Tasavvuf ahli orasidan Abu Ali Ibn Sino, Forobiy singari dunyoga mashhur olimlar; Jaloliddin Rumiy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi buyuk shoirlar; Zunnun Al-Misriy, Shoxin Al-Xilvatiy kabi kimyo ilmi bilimdonlari; Imom G'azzoliy, Abduraxmon as-Sufiy, Ibrohim Haqqiy singari falakkiyot ilmining buyuk namoyondalari va fanlarning boshqa tarmoqlari bo'yicha qanchadan-qancha mutafakkir olimlar yetishib chiqadi.

Tasavvuf bu insonning ruhiyati va ma'naviy olamidagi jarayon bo'lib, insonni ruhiy va ahloqiy kamolatga yetkazuvchi ilmdir.

Tasavvuf musulmonchilik degan buyuk bir qadriyatni keng xalq ommasi orasiga yoyishga, uning hamma uchun barobar bo'lishligiga, el-ulus osoyishtaligi, hamjihatlik, bir-biriga yordam qo'lini cho'zish, birodarlik va futuvvatlilik qadriyatlarini targ'ib qilishga harakat qiladi. Bu sa'y-harakatlarga mutafakkir sufiy shayxlar va mutasavvuf shoirlar bosh-qosh bo'ladilar. Ular endi o'zlarining sufiylik institutlari – xonaqohlarini avvalgidek taqvodor zohid darveshlarning makoni emas, balki o'z davrining ma'naviy-ma'rifiy markazlariga aylantira borib, aynan shu markazlarda tasavvuf va adab ilmining amaliy va falsafiy asoslarini yaratadilar va xalqqa targ'ib qiladilar.

Aynan shuning uchun ham Temuriylar va Shayboniylar davrida qurilgan xonaqohlar, XI–XII asrlardagi shahar chekkalari va qishloqlarda xilvat joylashgan oddiy xonaqohlardan farq qilib, oldingilaridan muhtashamroq, salobatliroq, alohida qurilgan me'moriy binolar tarzida, shahar ichkarisida islom qadamjolari qoshida yoki boshqa jamoat binolari, masalan, madrasa va masjidlar bilan me'moriy majmualar tashkil qilgan holda shakllantiriladi. Bunday xonaqohlarning tarkibi va ijtimoiy vazifalari ham o'zgarib borib, ular o'z davrining tasavvufchilik yo'nalishidagi yirik ma'rifiy maktablariga aylanadi. Bu davrdagi ba'zi xonaqohlar qoshida hammom, masjid, qabriston, molxona va ba'zan tegirmon ham joylashgan.


Agar madrasalarda dunyoviy, huquqiy va diniy ilmlar o'rganilgan bo'lsa, ular qoshida qurilgan xonaqohlarda (Samarqanddagi Muhammad Sulton, Mirzo Ulug'bek, Anaudagi Anau, Buxorodagi Nodir-Devonbegi, Hirotdagi Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy madrasa va xonaqohlarida) talabalarining tasavvuf bobidagi mushohada va munozaralari, ulug' mashohiyalar, piru-ustozlari bilan ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlari, ilmiy suhbatlari va baxslari o'tkazilib turiladi. Bunday jonli suhbatlarga



Buxoro. Nodir Devonbegi xonaqosi.

mutasavvufchilarga e'tiqod qilgan hukmdorlar, ulug' shoirlar, nufusli mehmonlar va sayyohlar ham tashrif buyurib turadi. Shuning uchun ham bunday xonaqohlar arxitekturasi bu davrda nafaqat tantanavor me'moriy ko'rinishga, balki shaharning eng nufusli joylariga joylashish va qurilish tartibotiga ega bo'ladi. Bunday xonaqohlarni boshqarish va ish yuritish uchun ularni ta'xis etgan homiyar o'z davrining eng iqtidorli mudarrislarini tayin etadi. Mudarrislar xonaqohlarni boshqarishdan tashqari, tasavvuf ilmiga intilganlarga dars berish bilan ham mashg'ul bo'ladi.

Xonaqohlar faoliyatini moddiy ta'minlashga juda katta vaqflar belgilanadi. Jumladan, Buxorodagi Sayfiddin Boxarziy xonaqohi nafaqat Zarafshon vohasida, balki butun Markaziy Osiyoda ham so'fiylikning eng yirik madaniy-ma'rifiy va bilim markazlaridan biri hisoblangan va bu yerga XIV asr o'rtalarida yuzlab kishilar, hatto chet ellardan ham tashrif buyurib, tasavvuf ilmi va ma'rifatidan bahramand bo'lganlar. XV asr boshlarida Samarqandda Mirzo Ulug'bek bino etgan Registon ansamblidagi Ulug'bek xonaqohi, shahardagi Abu Lays xonaqohi, Karmanadagi Qosim Shayx,




Buxoro. Fayzobod xonaqosi.

Buxorodagi Fayzobod, Hirotdagi Shohrux Mirzo, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy, Romitondagi Mullo-Mir, Termizdagi Kokildor xonaqohlari XV–XVII asrlarda Markaziy Osiyoning ana shunday atoqli madaniy-maʼrifiy mutasavvufchilik ilmiy markazlaridan hisoblangan.

Termizdagi Hakim at-Termiziy, Xurosondagi Suxravardiya, Buxorodagi Xoʻjagon, Gʻijduvoni, Sayfiddin Boxarziy va Naqshbandiy, Turkistondagi Yassaviya, Xorazmdagi Kubroviya, Fargʻonadagi Qodiriya, Karmanadagi Qosim-Shayx va nihoyat Hirotdagi Xalosiya xonaqohlari ana shunday tasavvuf taʼlim maskanlari hisoblangan. Tasavvuf ilmining aksariyat akobirlari aynan xonaqohlarda yashab, avom xalqqa tasavvuf ziyosini taratganlar, soʻfiylik ilmi va taʼlim tarbiyasi bilan shugʻullanganlar. Xonaqohlarda istiqomat qiluvchilar soni baʼzan 100 kishi va undan ham koʻp boʻlgan.

Shunday qilib, Oʻrta Osiyoda xonaqohlar, maktablar va madrasalar bilan yonma-yon tarzda soʻfiylik ilmining maʼnaviy-maʼrifiy markazlari tizimini tashkil qilib, keng xalq ommasiga nafaqat mutasavvufchilik ziyosini singdirish, balki xalq maʼnaviy hayoti, tafakkuri va eʼtiqodini boyitishda tutgan munosib roli va oʻrni bilan ham ajralib turgan.



Samarqand. Xo'ja Abdi Darun xonaqosi tarhi va qirqimi.

1.6. Maqbaralar

Maqbara – qabr ustiga qurilgan memorial bino – mavzoley. Ba'zan uni marqad, turbat deb ham atashadi. Musulmon dinida dastlab qabr ustiga biror tosh qo'yish, imorat qurish umuman man etilgan. Lekin IX asrdan boshlab maqbaralar qurilgani ma'lum. Movarounnahrda ham IX asrning oxiridan boshlab maqbaralar qurish odatga kira boshlaganini G. A. Pugachenkova, P. Zohidov, M. Q. Ahmedov, L. Y. Mankovskaya kabi qator olimlar o'z tadqiqotlarida bayon etganlar. Keyingi asrlarda, asosan, podshohlar, mutasavvuf ruhoniylar qabri ustiga hashamatli maqbaralar qurildi. Buxorodagi Somoniylar (IX asr), Marvdagi Sulton



Buxoro. Ismoil Somoniyy maqbarasi.

Manjar (XII asr), Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbaralari (XIV–XV asr), Samarqanddagi Go‘ri Amir va Shohizinda ansambllari ana shunday maqbaralarning me‘moriy jihatdan yuksak san‘at va mahorat bilan bajarilgan ajoyib namunalaridir.


Maqbaralar shakllanish kompozitsiyasi jihatidan ikkiga bo‘linadi: bir xonali binolar, ko‘p xonali binolar.

Bir xonali maqbaralar turkumiga kiruvchi yodgorliklarning ikki ko‘rinishi mavjudligini prof. M.Q. Ahmedov yaqqol misollarda ko‘rsatadi. Masalan, Somoniylar maqbarasi (IX asr, Buxoro) chortoq uslubida qurilgan. Bino asosi kub hajmidagi shakldan va uning ustidagi gumbazdan tashkil topgan. Tarhi kvadrat ko‘rinishida. Binoning to‘rt tarafi bir xil. Bino tarzi nafis oddiy g‘ishtdan (23×23×4 sm) foydalanib ishlangan va ajoyib go‘zallik namunasi yaratilgan.

Ruhobod deb nomlangan shayx Burxoniddin Sag‘orjiy maqbarasi (XIV asr Samarqand) ham shu usulda qurilgan. Uning asosiy qismi kub shaklida bo‘lib, ikki kompozitsion o‘q chiziqlarining kesishgan joyi dumaloq konussimon gumbaz markazini tashkil etadi. Bino butunlay g‘ishtin bo‘lib, faqat kiraverishda sirlangan naqshli toshtaxtalardan foydalanilgan.

Bir xonali maqbaralarning ikkinchi ko‘rinishi gumbazli – peshtoqli binolardir. Bu turdagi binolarning avvalgisidan farqi – chortoq ko‘rinishidagi to‘rt tomoni bir xilda qurilmasligidadir. Ularning asosiy kirish qismi alohida mahobatli tarzda qurilib, kirish yo‘li peshtoq orqali o‘tadi. Misol tariqasida IX–XII asrlarda barpo etilgan Termiz yaqinidagi Sulton Saodat, Kosondagi Husam Ota maqbaralarini keltirish mumkin. Shuningdek, Shohizinda majmuasidagi maqbaralarning asosiy qismi, Shahrisabzdagi Shamsiddin kulol va gumbazi Sayidon kabi yodgorliklar ham gumbazli-peshtoqlidir.

Ko‘p xonali maqbaralarning tipologik asoslarini birinchilar qatorida G. A. Pugachenkova va L. Y. Mankovskayalar o‘z ilmiy asarlarida tahlil etganlar. Ikki va undan ortiq xonali maqbaralar turkimiga nafaqat go‘rxona, balki ziyoratxona, korxonona, maxsus daxliz, hovli, ayvon, ayrimlarida xonaqoh va masjidlar kirgan. Masalan, Toshkentdagi Yunusxon (XV asr), Kaffol Shoshiy (XVI asr), Buxorodagi Shashmai Ayub kabi maqbaralar tarkibida go‘rxona va ziyoratxona yoki ikki qavatli hujralar (Yunusxon maqbarasida) joylashgan bo‘lib, gumbazli-peshtoqli, ularning peshtog‘i va ikki yonidagi burji an‘anaviy usulda ishlangan.



Surxondaryo viloyati. Sulton Saodat majmuasi. Umumiy koʻrinishi va bosh tarhi:
 1, 2 – maqbara (X–XI asrlar); 3, 4 – maqbara (XV asr); 5 – maqbara (XV–XVI asrlar); 6 – maqbara (XVII asr); 7 – ayvon (X–XI asrlar); 8 – maqbara (XVI–XVII asrlar); 9 – ayvon (XVI–XVII asrlar); 10 – maqbara (XVI–XVII asrlar); 11, 12 – sufalar (XVI–XVII asrlar); 13, 14 – maqbara (XVII–XVIII asrlar); 15, 17 – maqbara (XVI asr); 16 – peshtoqli xona (XVI asr); 18, 20 – maqbara (XVI–XVII asrlar); 19 – peshtoqli xona (XVI–XVII asrlar).

Buxorodagi Bayonqulixon maqbarasi (XIV asr) da ham sagʻana-goʻrxona, ziyoratxona va ularni oʻz ichiga oluvchi dahlizi ham bor. Maqbara old tomoni biroz koʻtarilgan peshtoqning xushqad ravogʻini oʻz ichiga oladi. Maqbarada koshin bezaklar geometrik girih, hilma-hil oʻsimlik va epigrafik yozuvlardan keng foydalanilgan.


Koʻp xonali maqbaralar koʻpincha guruh qilib emas, balki alohida-alohida binolar sifatida bunyod etilgan. Samarqanddagi oq saroy, Shohi-Zinda majmuasidagi Oʻlja enaga, Goʻri Amir va boshqa maqbaralarini shu turkumga kiritish mumkin.

Lekin Turkistondagi Xoʻja Ahmad Yassaviy (XIV asr), Shahrisabzdagi Dor us-Saodat (XIV asr) maqbaralari oʻzining tuzilishi bilan alohida ajralib turadi.


Xoʻja Axmad Yassaviy maqbarasi koʻp xonali kompleks (majmua)ga yaqqol misol boʻla oladi. Manbalar boʻyicha dastlab Axmad Yassaviy qabri ustida kichik maqbara qurilgan (XII asr). Keyinchalik Amir Temur uni qayta qurishga farmoyish berib, oʻzi bino loyihasini ishlab chiqishda qatnashgan.

Maqbara peshtoqli va ikki gumbazli, tarhi tomonlari 65,5×46,5 m boʻlgan toʻgʻri toʻrtburchakni tashkil etgan. Bosh tarzidagi peshtoqning

SHOXI-ZINDA ME'MORIY ANSAMBLI



Samarqand. Shohi-Zinda me'moriy majmuasi.




Turkiston. Xo'ja Ahmad Yassaviy majmuasi old tarzi (T.Sh Mamatmusayev rekonstruksiyasi) va tarhi (1 – qozonliq, 2 – halim xona, 3 – quduqxona, 4 – Ahmad Yassaviy maqbarasi. 5 – kitobxona, 6 – kichik Oq-saroy maqbarasi. 7 – katta Oq-saroy maqbarasi, 8 – kichik masjid. 9 – xujra).

ikki yoni guldastali, peshtoq orqali bino markazida joylashgan tepasi gumbaz bilan yopilgan eng katta xona – jamoatxonaga (qozonxonaga) kiriladi. Jamoatxona to'rida joylashgan chog'roq ravoq ostida go'rxona joylashib, uning 10 metrli kungurador qubbali gumbaz bilan yopilgan. Boshqa xonalar: masjid, katta va kichik oqsaroy, kitobxona, chillaxona, xalimxona, quduqxona va ikki qavatli xujralarga sakkiz dahlizdan o'tiladi.

Shahrisabzdagi Dor us-Saodat va Dor ut-Tilovat majmuasi (XIV–XV asrlar) ham o'zining murakkab tuzilishi bilan ajralib turadi. Amir Temur o'zi va avlodlari uchun qurdirgan masjid, madrasa va maqbaralar majmuasi Maqbara Dor us-Saodat majmuaning bir qismi bo'lib, bu yerda Amir Temurning to'satdan vafot etgan to'ng'ich o'g'li Jahongir va ikkinchi o'g'li Umar Shayx dafn etilgan. Maqbara murakkab yechimdagi peshtoqli majmuaning dastlabki binolaridan bo'lib, gumbazli-peshtoqli usulda urganchlik me'morlar tomonidan bunyod etilgan deb taxmin qilinadi.

Maqbaraning gumbazi sakkiz qirrali kulohiy qubba shaklida, poygumbazi esa 16 qirrali, bezaklarida sirlangan g'isht va koshinlar ishlatilgan.



Termiz. Hakim at-Termiziy majmuasining umumiy ko'rinishi va sxematik tarhi.

Qisqacha xulosa qilib aytish mumkinki, O'rta Osiyo maqbaralariga kos me'moriy-rejaviy xususiyatlarni umumlashgan holda quyidagicha belgilash mumkin:

1. Bir xonali maqbaralar, ularning tarhi kvadrat shaklida bo'lib, hajmi kubsimon, gumbazli, ko'rinishidan to'rt tomoni bir xil.
2. Bir xonali maqbaralar, ularning chortoq (to'rt tomonida toq-ravoqli bo'lgan to'rtburchak xona) ko'rinishidan to'rt tomoni bir xilda qurilmagan, gumbazli-peshoqli.
3. Ko'p xonali maqbaralar, ularning tarhi to'g'ri to'rtburchak bo'lib, gumbazli-peshoqli.
4. Maqbara bir gumbazli, qo'shgumbazli va gumbazlarning turlari: balxi, charxi, dumaloq, konussimon, kuloxiy shakllardan iborat.
5. Maqbara bezaklarida: oddiy g'ishtin, rang-barang o'yakor va sirkor bezaklardan, kufiy yozuvlardan keng foydalanilgan bo'lib, betakror me'morchilikni shakllantirgan.

II b o b. O'RTA OSIYO ARXITEKTURA TARIXIDA SAVDO VA BOZOR INSHOOTLARI

2.1. Savdo binolarining tarixiy shakllanishi

Sharq bozorlarining shakllanish ibtidosi, aftidan juda qadimgi zamonlardan boshlangan. Qadimgi «Avesto» kitobida «chavrusuk» so'zi keltirilib, u mutaxassislarning fikricha, to'rt tomonli bozor, ya'ni hozirgi chorraha bozori yoki chorsu ma'nolarini anglatgan. Bundan esa chorsuning dastlab savdo inshooti emas, balki chorrahada joylashgan bozor bo'lganligini va keyinchalik ushbu bozorda qurilgan binoga chorsu nomi o'tganligini anglash mumkin. Chorsu so'zidagi «su» qo'shimchasi esa qadimgi sug'dlarning «suk» so'zidan kelib chiqib bozor degan ma'noni bildirgan. O'rta asr arab mualliflari ham O'rta Osiyo bozorlarini «suk», ko'plikda «asvok» deb, forslar esa «bozor» deb atashgan.

Boshqa yozma manbalar va me'moriy yodgorliklar ham O'rta Osiyoda bozorlarning islom davrigacha shakllanganligidan dalolat beradi. Jumladan, Qadimgi Panjikent shahrida o'tkazilgan qazishmalarda VIII asrning boshida qurilgan ikkita bozor majmuasining xarobalari topilgan. Ulardan biri aynan shahar chorrahasida joylashgan bo'lib, bir nechta kichik savdo va hunarmandchilik xonalaridan tuzilgan. Ikkinchi bozor esa shahar bosh ko'chalaridan biriga tutashib, bu yerdagi maydon atrofida joylashgan savdo do'koni va hunarmandchilik ustaxonalaridan shakllangan. Qadimgi Panjikentda ushbu bozorlardan tashqari shahar ko'chalari bo'ylab joylashgan rastalar ko'rinishidagi savdo do'konlari ham bo'lgan. Xom g'ishtdan qurilgan bu savdo imoratlari ko'pincha jamoat va turar joy binolariga tutashgan bir qavatli va bir xonali do'konlarni tashkil qilgan. Panjikentda ikki xonalik savdo yacheykalari ham qurilib, ularning devorlari yupqa, tomlari esa yassi ishlangan.

Ilk o'rta asr shaharlarida bozorlar, asosan, shahriston ichidagi chorrahalarda, ark-qal'alar darvozalari oldidagi maydonlarda va ko'chalarda joylashib, bu davrda hali alohida qurilgan mahobatli savdo

bozorlari shakllanmagan. Ushbu davr savdo inshootlarining turlariga ko'chalar bo'ylab joylashgan savdo rastalari, do'konlar va hunarmandchilik o'xonalari kirgan, xolos.

X-XI asrlardan boshlab esa O'rta Osiyodagi bozorlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning yaxshilanishi bilan shaharlarning asosiy savdo markazlariga aylana boradi. IX-X asrlarda O'rta Osiyoda shahar madaniyati, hunarmandchilik va iqtisodiyot gullab yashnaydi. Bu davrda o'zbaq mahallalar, balki shaharlar ham turli xil hunarmandchilik sohalari ishlab chiqarish va savdo markazlariga aylana boradi. Bu esa shaharlarning hududiy kengayishiga, ya'ni shahriston devorlari ichida joylashgan «rabod» deb ataluvchi alohida hudud – shahar hunarmandchilik savdo qismining shakllanishiga sabab bo'ladi. Rabodda, asosan, hunar ahli, ayniqsa, olov bilan ishlovchilar va boy savdogarlar yashashgan. Hunarmandlar, asosan, o'zlarining uy-ustaxonalarida ishlab chiqarib, shaharlardagi hunarmandchilik uyushmalariga birlashgan va qazorlar hamda rabod bozorlarida savdo qilishgan.

Ana shunday bozorlardan biri XI asr Samarqand «Sug'd bozori» bo'lib, u Afrosiyob shaharchasining janubiy darvozasidan boshlanadigan rabodda, taxminan hozirgi Registondan Siyob bozorigacha bo'lgan hududda joylashgan. Bozordagi markaziy o'rinni usti yopiq maxsus bozor inshooti Chorsu egallab, unga rabod darvozalaridan o'tuvchi ko'chalar kelib tutashgan. Ushbu Chorsu bilan Afrosiyobning Kesh darvozasi orasida savdo ko'chasi joylashib, u o'sha Samarqand Sug'd bozoriga to'g'ri kelgan. Chorsudan boshlanuvchi ko'chalarda va bu yerdagi kichik maydonchalarda ixtisoslashgan savdo rastalari, hunarmandlar do'konlari va karvon-saroylar joylashgan. Savdo ko'chasi bo'ylab joylashgan rastalar qatorini arab mualliflari «Ras-at-toq» deb atagan. Bu nomdagi «toq» so'zidan anglashiladiki, ushbu rastalar qatorining usti gumbazlar bilan yopilgan.

Sug'dlarning shahar ichidagi bozorlari va savdo rastalari arab manbalarida «suk» deb, chorrahada joylashganlari esa «chaxorsuk» yoki «chorsu» deb yuritilgan. Keyinchalik to'rt yoki unda ko'p shahar ko'chalari kesishgan joyda qurilgan savdo binolari «toq» nomini olgan.

Samarqand o'zining bozorlari bilan keyingi davrlarda ham mashhur bo'lib keldi. Shunonchi, XV–XVI asrlarda shahardagi Bozori Amir Tangriberdiqu, Bozori Kuloxbardoron (Sarbadoron), Bozori Masjidi Jurjoniya, Bozori Rismon, Bozori Xarroton, Bozori Muhammad

Shan singari savdo hududlari tarixiy hujjatlarda tilga olinganki, bular Samarqandning qadimdan hunarmandchilik, savdo-sotiq gullab-yashnagan shaharlardan biri bo'lib kelganligini ko'rsatadi.

2.2. Chorsular, rastalar, toqlar va timlar

«Chorsu» fors-sug'dcha so'z bo'lib, chor – to'rt, suk – bozor, chor rahalarda joylashgan usti yopiq bozor imorati ma'nosini beradi. «Chorsu» gumbazlar bilan yopilgan savdo inshooti tarzida adabiyotlardan bizga XI asrdan ma'lum. Yuqorida nomi eslatilgan Sug'd bozorining chorsusi ham XI asrga tegishlidir. Tarixchi at-Tartusiyning ma'lum qilishicha, O'rta Osiyoning ba'zi ilk o'rta asr shaharlarida chorsudan tashqari «tim» deb ataluvchi savdo inshootlari ham bo'lgan. Jumladan, shunday timlar Buxoro, Ispijob, Ushturkat, Chog'oniyon, Amul, O'sh va boshqa shaharlarda qurilgan. «Tim» so'zi dastlab «bozordagi rastalar ustiga qurilgan tom» ma'nosini anglatib, keyinchalik u istalgan me'moriy berk, ya'ni usti va atroflari yopiq savdo binosiga, alohida qurilgan bozor inshooti, ixtisoslashgan usti berk savdo hunarmandchilik ko'chasi va usti yopiq savdo rastalariga nisbatan ham birday qo'llangan. Tarixchi al-Muqaddasiy «tim» so'zini hatto ko'tara savdo va xorijiy savdogarlarga mo'ljallangan karvon-saroylarga nisbatan ham ishlatgan. Qisqasi, ilk o'rta asrlarda savdo bilan bog'liq istalgan usti yopiq bino, ko'cha yoki inshoot «tim» deb atalishi mumkin bo'lgan. Ta'kidlash zarurki, tim binosining nafaqat usti, balki atroflari ham yopiq bo'lgan. Bunday savdo binolarida yozning jazirama issig'ida, qishu-kuzning sovug'i, qor-yomg'irlarda ham bemalol himoyalangan holda savdo qilish mumkin bo'lgan. Yorug'lik bino tomini yopuvchi gumbazlar orqali ta'minlangan.

XI asrga kelib O'rta Osiyoda savdo va tovar pul munosablari kredit veksel (chek) ko'rinishiga o'ta boshlaydi. Bu o'z navbatida bozorlarda kreditlashgan yangi moliyaviy xizmat turi pul almashtiruvchilar, ya'ni sarroflar tashkilotini shakllantiradi. Buxorodagi «Toqi Sarrofon» binosi aynan shu maqsadda qurilgan maxsus bozor inshootidir.

Ma'lumki, XIV asr oxiri va XV asr O'rta Osiyo fuqaro me'morchiligi tarixiga, shu jumladan, bozorlar, savdo inshootlari va hunarmandchilik ustaxonalarining qurilish tarixiga yorqin harflar bilan yoziladi. Bu davr Amir Temur va temuriylar hukmronligiga to'g'ri kelib, unda Buyuk Ipak yo'lining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari va katta qismining egalari turonliklar hisoblangan. Samarqand esa bu davrda ushbu yo'lning

markaziy savdo va tranzit shahri bo'libgina qolmay, balki ilm-fan, san'at, madaniyat, me'morchilik va hunarmandchilikning ham yuksak darajada rivojlangan markaziga aylanadi. Samarqand ustalari va hunarmandlari ishlab chiqargan paxta gazlamalar, teridan tikilgan oyoq kiyimlari, qabdan tayyorlangan ustiboshlar, misdan yasalgan idish tovoqlar, otning qanab jabduqlari, chodir va o'tovlar, ajoyib va nafis qog'ozlar butun Sharq-u G'arbda mashhur edi. Shaharga savdo-sotiqni rivojlantirish uchun bozorlar, qasalar, timlar, karvon-saroylar, sarroflar, do'konlar, hunarmandchilik ustaxonalari kerak edi. Temur davrida dastlab hozirgi Registon maydonida qator ochiq savdo rastalaridan tashqari bosh kiyimlarini sotishga mo'ljallangan maxsus savdo binosi «Timi kulox furushon» («Bosh kiyim sotuvchilar timi») bunyod etildi. Temur ushbu inshootni xotini Tumon oqo nomidan bino etadi. Bu davrda Samarqand bozorlari shunchalik serob ediki, turli-tuman mollarni issiq iqlim sharoitida sotish uchun savdogarlar va xaridorlarga qulay bo'lgan katta usti yopiq bozor qurishga zaruriyat tuyuladi. Shu sababli Temur butun shaharni Registondagi tim orqali kesib o'tadigan yopiq savdo ko'chasini qurishga farmoyish beradi.


1936–1939-yillarda Samarqandda tadqiqot olib borgan olim Sh.E. Rattiyanning ma'lumotiga ko'ra, ushbu savdo ko'chasi Amir Temurning jome masjidini (hozirgi Bibixonim) va saqlanmagan Saroymulxonim madrasasi binolari orasidagi maydonning janubiy qismida joylashgan timdan boshlanib, to Registon maydonidagi Tumon oqo timigacha davom etgan va undan ochiq bozor maydoniga chiqilgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, ushbu savdo ko'chasi shaharning janubi g'arbiy darvozalaridan biri «Chorsu» gacha davom ettirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday usti yopiq va keng savdo ko'chasi Temur davriga qadar nafaqat Samarqandda, balki butun Movarounnahr va Xurosonda ham yo'q edi. Shu bois bunday usti yopiq bozor ko'chasini o'sha davr O'rta Osiyo me'morchilik va shaharsozlik san'atining chinakam yangiliklaridan biri deb qarash mumkin edi. Ana shunday usti yopiq bozor ko'chalari keyinchalik Hirot, Isfaxon, Urgench, Xiva, Buxoro va O'shda ham bunyod etiladi. Ispan elchisi Klavixoning xabar berishicha, Temur davrida Samarqandda nafaqat kunduz, balki kechalari ham savdo qiladigan bozorlar mavjud bo'lgan. Shaharda amaldorlar qurdirgan qator karvon-saroylar, kulollar, zargarlar, temirchilar, shishasozlar, qog'ozbozlar uchun ustaxonalar shinam va qulay do'konlar mavjud edi. Asosiy ko'chalar kesishgan joylarda chorrahadagi shahar bozorlaridan tashqari mahallalar markazlarida guzar bozorlari ham

ishlab turgan. Bunday bozorlar, odatda, bir necha rastalar ustaxonalar yoki do'konlardan iborat bo'lgan. Bozorlar nafaqat shahriston ichida, balki unga yondashgan rabodlar hududida ham ko'p bo'lgan.

Rabod bozorlari, asosan, shahristonga kiriladigan darvozalar va ko'chalar atrofida hamda rabod chorrahalarida joylashgan. Shaharlardagi bunday bozorlar tizimidan tashqari, Buyuk Ipak yo'li bo'ylab shaharlararo «yarmarka» bozorlari ham tashkil etilgan. Bunday bozorlar, odatda, karvon yo'llarida, ular to'xtaydigan rabotlar va karvon-saroylar yonida shakllangan.

XIV–XVII asrlar O'rta Osiyo bozorlarida qurilgan savdo inshootlari—toq, tim, chorsu, yopiq savdo ko'chalari va karvon-saroylar o'zlarining mahobatli me'moriy yechimlari bilan ilk o'rta asrlar davridagi bozorlar va savdo hunarmandchilik imoratlaridan keskin farq qilgan. Jumladan, XVI asrda Buxoro shahrining asosiy chorrahalarida Toqi Ordfurushon, Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon, Toqi Sarrafon va Toqi Tirgaron nomli me'moriy ko'rinishi g'oyatda mahobatli qilib ishlangan ko'p gumbazli beshta usti yopiq savdo inshootlari bunyod etiladi. Bulardan birinchisi va oxirgisi bizgacha saqlanmagan, qolganlaridan esa bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda. «Toq» so'zi bu yerda ham gumbaz ma'nosini anglatadi.

Toqlar asosiy savdo zali – miyonsaroy, qator savdo rastalari va hunarmandchilik ustaxonalaridan iborat bo'lib, ular usti ochiq bozorlar tarzida shaharlar markazi, chorraha va chorsularda bunyod etilgan




Buxoro. Usti yopiq savdo tim (bozor)lari ko'cha sxematik tarhi.

Toqi Zargaronning tarhi kvadrat shaklida bo'lib, uning ustini yopuvchi oltin gumbaz o'rtada 8 ta arkka o'rnatilgan. Ko'p qirrali gardishdagi 46 ta darchadan imorat ichiga yorug'lik tushib turadi. Dastlab bino ichida 30 dan ortiq zargarlik do'konlari va ustaxonalari joylashgan.


Toqi Telpakfurushon tarhda olti qirrali bo'lib, binoning bosh markaziy gumbazi «miyonaroy» ustida o'rnatilgan. Atrofdagi kichik do'konlar esa gumbazchalar bilan yopilgan. Toq ichida bosh kiyimdan tashqari kitob yopuvchi muqovasoz ustalarning do'koni bo'lgan. Shu bois ushbu bino ilgari «Toqi Kitobfurushon» deb ham nomlangan.

Toqi Zargaronga ulangan savdo ko'chasi bo'ylab unga yaqin joyda Abdullaxon timi qurilgan bo'lib, uning ham me'moriy yechimlari fazoviy berk, o'ta mahobatli va tektonik hajmli ko'rinishda ishlangan. Ichida 55 ta savdo ravog'i bo'lgan ushbu yopiq bozor – tim kamyob va qimmatbaho gazmollar savdosiga mo'ljallangan. Toq va tim binolarining shakllanishi shaharlarda savdo madaniyatining oshib borishi, kamyob va qimmatbaho mollarni chang va yog'inlardan holi bo'lgan usti yopiq soyabon, doimiy qulay va ishonchli savdo do'konlarida sotish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Bunday me'moriy berk, yopiq savdo inshootlarini qurishda mahalliy issiq va quruq iqlim sharoitlari ham e'tiborga olingan.

Bozorlar nafaqat savdo, balki hunarmandchilik markazi ham bo'lgan. Toshkentning «Chorsu» bozori turli xildagi mollar bilan savdo qiluvchi ochiq ko'rinishga ega bo'lgan bozorgoh maydonlar, ayvon va do'kon ko'rinishidagi hunarmandchilik rastalaridan iborat bo'lgan. XX asr boshlarida ushbu bozorda jami qirqga yaqin savdo maydonlari va rastalar bo'lgan. G'allabozor, Arpabozor, Gilambozor, Kiygizbozor, Ko'rpabozor,



Buxoro. Toqi Zargaron savdo gumbazi. Umumiy ko'rinishi va tarhi.




Savdo inshootlari: toq, tim, chorsu, bozorlarning ko'cha va chorrahalarida joylashish sxemasi.

Tovoqbozor, Kulolbozor, Mevabozor va Sabzavot kabi bozorcha-maydonlar hamda Bazzozlik, Zargarlik, Ko'nychilik, Sovungarlik, Etikdo'zlik, Misgarlik kabi rastalar shular jumlasiga kirgan.

Bozorlar aholi uchun hordiq chiqaradigan joy vazifasini ham bajargan. Maddox, masharaboz, polvon, dorboz kabilar o'z san'atlarini asosan bozorlarda namoyish qilishgan. Bozor choyxonalarida xonandalar, sozandalar, shoirlar to'planishib turishgan, askiyabozlar esa hazil mu'toyiba qilishgan. Ramazon oylarida bozorda savdo kechalari ham davom etgan. Bunday bozorlar «bozori sha'b» deb atalgan.

Keyingi XVIII–XIX asrlar va XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida qurilgan bozor inshootlarining turlari, tizimi va arxitekturasida deyarli o'zgarishlar sezilmaydi. Bu davrda faqat karvon-saroy va tim hamda tim va darvozaxona binolarini yaxlit savdo majmualariga aylantirishdek ijobiy tajribalarni kuzatish mumkin. Xivadagi Olloqulixon karvon-saroyi va timi, Polvondarvoza timi va darvozasining qurilishi bunga misoldir.

Karvon-saroy va tim, tim va darvozaxonaning bunday yopiq bozor majmuasi ko'rinishida qurilishi Xivaning mahalliy issiq iqlim sharoitidan kelib chiqqan. Issiq va quruq, chang va to'zonli iqlim shaharning eng gavjum joyi hisoblangan bozorni aynan shunday, ya'ni hajmiy yopiq va berk, me'moriy yaxlit uslubda qurilishini taqozo etgan. Olloqulixon karvon-saroyiga



Xiva. Olloqulixon karvon-saroyi va timi.

tim orqali kiriladi. Timning uzunligi 74 metr, eni 26,5 metr bo'lib, u nafaqat yopiq savdo ko'chasi, balki Ichan qal'ani tashqi Dishon qal'a bilan bog'lovchi usti uch qator gumbazlar bilan yopilgan dalon hamdir. Uning o'rtasida katta gumbazli zal miyonsaroy bo'lib, undan karvon-saroyga o'tiladi. Tim ichki va tashqi tomondan peshtoq bilan tugallangan. Ushbu majmuaning ichi yozda doimo salqin, qishda esa iliq va yorug' muhitga ega.

Xiva ob-havosi yozda shunchalik issiqki, buning ta'sirida ko'cha do'konlari karvon-saroylar va madrasalarning tashqi devorlari yoki kursilari ichiga taxmon ko'rinishida ishlangan qator va chuqur o'yiqlik rivoqlik yopiq savdo ayvonlari shaklini olgan.

2.3. Karvon-saroylar

O'rta Osiyo tarixiy shaharlari va Buyuk ipak yo'li bozorlarini karvon-saroylarsiz tasavvur qilish qiyin. «Karvon-saroy» atamasi forscha bo'lib, uning so'zma-so'z ma'nosi «karvon uyi», ya'ni karvon yo'llari va shaharlarda karvonchilar va savdogarlarning tunash va savdo qilish uyi tushunchalarini anglatgan.

Karvon-saroylarning vujudga kelishi va qurilish tarixi «rabot» deb ataladigan binolar bilan ko'p jihatdan bog'liqdir. Gap shundaki, Sharq davlatlarida islom dini o'rnatilayotgan paytda (VIII asr) islomning ilg'or askar otryadlari ulargacha shakllangan karvon yo'llari orqali harakat qilib,

o'zlari fatx etgan mamlakatlarda faol harbiy-missionerlik faoliyatini olib borish maqsadida rabotlar qurishgan. O'shanda rabotlar arab askarlari va otliq chegarachilar uchun yig'ilish bekatlari, istehkom vazifasini bajargan («rabot» arabcha «otlarni bog'laydigan joy» ma'nosini bildirgan).

X asrlarga kelib, O'rta Osiyoda islom dini o'rnatilganidan so'ng, rabotlar avvalgi harbiy missionerlik mohiyatini yo'qotadi. Rabotlar ko'proq karvon yo'llari bo'ylab qurilgani uchun ularning ayrimlari xonaqoh, boshqalari karvonlarning to'xtashi uchun karvon uylari, ya'ni karvon-saroylar vazifasini bajara boshlaydi. Bu davrga doir tarixiy manbalarda «rabot» so'zi «karvon-saroy» atamasining sinonimi tarzida yuritila boshlaydi. Xullas, shu davrdan boshlab O'rta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarini bog'lagan karvon yo'llari bo'ylab savdo-mudofaa istehkomlari va mehmonxonalar tipidagi maxsus binolar, ya'ni karvon-saroylar keng qurila boshlaydi. Ular dastlab savdo karvonlarining to'xtash joylarida, bir kunlik yo'l harakatidan so'ng (25–35 km da) tunab dam olishga mo'ljallanadi.

X asr oxirlari va XI asr boshlaridan boshlab karvon-saroylar nafaqat karvon yo'llarida, balki shaharlarda, shaharlar darvozalari qoshida yoki shahar «rabod»larida, ya'ni shaharlarning maxsus savdo-hunarmandchilik qismlari, bozorlar va savdo inshootlari kompleksida qurila boshlaydi.

Yo'l karvon-saroylarida nafaqat savdogarlar va ularning ulovlari, balki ziyoratchilar, sayohatchilar, davlat arboblari va elchilar ham to'xtab o'tgan. Shuning uchun ham karvon-saroylar binosida xo'jalik hovlilari va xonalari, og'ilxonalar, omborxonalar, yashash hovlisi va xonalari, dam olish xonalari, masjid, oshxona va boshqa zarur xonalar bo'lgan.

Aksariyat karvon-saroylar o'zining katta-kichikligiga qarab 1, 2, 3 va hatto undan ortik hovlilarga, quduq va sardobalarga ega bo'lgan. Ikki va undan ortik hovlili karvon-saroylarda 1 yoki 2 hovli xo'jalik hovlisi hisoblansa, boshqalari yashash hovlilariga mo'ljallangan. Barcha xonalar hovli atrofida yonma-yon tarzda yoki hovli bilan dalon (galereya) orqali bog'langan tarzda joylashgan. Yashash xonalari – hujralarga dolondan kiritilgan. Karvon yo'llarida qurilgan karvon-saroylar mudofalangan istehkom ko'rinishida, tarkibida minoralar va masjid bo'lishligi shart bo'lsa, shaharlardagi karvon-saroylarda bunday qismlarning qurilishga ehtiyoj bo'lmagan. Ularda, asosan, mehmonlar uchun yashash hujralari, savdogarlar uchun xonalar, xo'jalik xonalari – og'illar, omborxonalar, do'konlar nazarda tutilgan.



Ayrim karvon-saroylar hovlilari tarhining markaziy o'qlarida ayvonlar joylashtirilgan. XI asrda Turkmanistonda qurilgan Doya xotin karvon-

saroyi ana shunday tarhga ega. Marv vohasida al-Askar shaharchasi yonidagi karvon-saroyda ham xonalar oldida ana shunday ayvonlar nazarda tutilgan.

Ko'p hovlilik karvon-saroyga misol qilib hozirgi Navoiy shahridan sal uzoq Buxoro yo'li yonida XI asrda qurilgan Raboti Malik karvon-saroyini ko'rsatish mumkin. U O'rta Osiyodagi eng yirik karvon-saroylarning biri bo'lib, beshta turli xil hovliga ega. Raboti Malik karvon-saroyi tarkibida bir yuqorida sanab o'tgan xonalardan tashqari, betob mehmonlarga tibbiy xizmat ko'rsatish xonasi (dormongoh) va yo'lovchilarning g'usl qilib olishlari uchun maxsus hammom hamda jamoatxonalar ham bo'lgan. Karvon-saroy qoshida uning sardobasi ham bo'lib, u bugungi kunda to'liq qurilmagan.

Aksariyat karvon-saroylarning tarhi kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shakllarda, devorlari pishiq g'ishtdan ishlangan. Ayrim karvon-saroylar kom g'ishtdan qurilib, tarzi pishiq g'isht bilan pardozlangan. Asosiy kirish qismi peshtoq bilan bo'rttirilib, tarzning yon tomonlari guldastalar bilan tugallangan. Tarzi g'ishtin naqshlar yoki koshin burushlik bilan pardozlangan karvon-saroylar ham ko'plab qurilgan.

Karvon-saroylar bir, ikki qavatli qilib qurilgan. Ikki qavatlik karvon-saroylar ko'proq shaharlarga xosdir. Ularning ko'pchiligida birinchi qavatda do'konlar va omborlar ishlanib, savdogarlar savdo qilishgan, ikkinchi qavatda esa hujralar joylashgan. Shuning uchun ham aksari shahar karvon-saroylari bozorlar ko'rinishini olgan va ularda, asosan, ulgurji savdo qilingan. Shaharlardagi karvon-saroylar usti yopiq bozor-timlar, toqlar va savdo ko'chalari bilan birlashib, yaxlit savdo inshootlari va bozorlar tizimini tashkil qilgan.



Navoiy viloyati. Raboti Malik karvonsaroyi.

III bob. O'RTA OSIYO ARXITEKTURASI TARIXIDA SAROYLAR, KO'SHKLAR, QO'RG'ONLAR, MINORALAR VA GIDROTEXNIK INSHOOTLAR

3.1. Saroylar

Saroy, koshona – hashamatli ulkan bino; xon, podshoh, amirlar qarorgohi, qasr. Dastlab hukmdorlarning qarorgohi tarzida, keyinchalik saroy ahli yashaydigan joy sifatida qurilib, turli maqsadlarga xizmat qiladigan ko'p sonli xonalardan, bir, bir necha hovlilardan iborat bo'lgan Shahrisabzdagi Amir Temur qurdirgan Oqsaroyning peshtog'i qisman saqlanib qolgan. Buxoro Arki, Xivadagi Ko'hna Ark, Toshhovli, Qo'qon O'rdasi Markaziy Osiyo xonlarining XVIII–XIX asrlarga xos saroylarining saqlanib qolgan namunalaridir.

Oqsaroy (Shahrisabz, XIV asr ohiri) Amir Temur qurdirgan katta saroy, qarorgoh. Oqsaroy 20 yildan ziyod qurilgan, uni qurish va pardoqlash ishlarida mahalliy va Xorazm hamda Ozarbayjondan olib kelingan ustalar ishtirok etgan. Oqsaroydan bizgacha faqat ulkan pesh-toqning ikki chekkasi va saroyning hovli sahni bezaklaridan bir qismigina yetib kelgan. Tarixchilarning yozishicha Oqsaroy turar joy va jamoat binosi – **devonxona** sifatida qurilgan.



Shahrisabz. Oqsaroy.

Endilikda majmua to'g'risida to'laroq tasavvurga Samarqandga ketayotib Shahrisabzga qo'nib o'tgan Klavixo guvohlik keltirgan tasvirlar-qaydlar orqaligina ega bo'lamiz.

Peshtoqdan so'ng bosh o'qda an'anaviy qubbali ayvonli keng to'g'ri burchakli chorsi hovli joylashgan edi. Mazkur gumbazli yirik xonalarda qabul xonasi, davlat maslahatchilari majlis zallari joylashgan edi. Ayvonlar hajmidagi maishiy xonalarni ko'ppqavatli qatori bog'lab turardi.

Hukmdorning qasrda asosiy o'rinni egallagan xonasi dabdabali tashqi ko'rinishi bilan alohida ajralib turar edi. Hashamatli peshtoqda Temurning yon tomondan iborat tug'rosining Arslon va Quyoshning tug'rovii uyg'unligi aks ettirilgan bo'lgan. Ispaniya elchisi ichkarining hashamati to'g'risida zavq-quyush bilan yozadi: «Bu eshik orqali to'rtburchak shaklidagi – chorsi, devorlari oltin, lojuvard va koshinlar bilan bezatilgan (qoplangan), shifti ham butunlay oltin hallangan ko'rinish xonaga kirasan. Bu yerdan elchilarni yuqori qavatga boshlab ketdilar, uyning hamma tarafi oltin bilan qoplangani uchun ularga ko'rsatishgan xonalar va bo'lmalar haqida birdaniga ko'p mas'ala so'zlab berish mushkul. (Bu yerda esa) bezaklar oltin, lojuvard va boshqa rangda ediki, Parijning mohir ustalarini ham lol qoldirgulikdir.

(So'ngra ularga) hukmdorning o'zi va zavjalari uchun mo'ljallangan, devorlari, shiftlari va sahnalari nihoyatda serhasham bezatilgan xonalar va bo'lmalarni ko'rsatdilar. Bu saroy qurilishida ko'plab har xil ustalar ishlayotir. So'ngra elchilarni aysh-ishrat va o'z zavjalari bilan (bu yerda vaqt o'tkazish) uchun mo'ljallangan zal (tolor)ni ko'rishga olib kirishdi. Uning oldida juda ko'p har xil mevali va quyush soyali daraxtlar ekilgan bog', bunda hovuzlar va qo'lbola o'tloqlar ko'p. Kiraverishda bog' shunday (keng) bahraliki, jazirama chog'ida hovuzlar bo'yida ko'plab odamlar daraxtlarning ko'lankasida o'tirishlari mumkin edi. Bu qasrning ziyonatlari shu qadar tantanavor va hashamdorki, uni tasvirlash uchun hamma joyni ko'rish va shoshilmasdan ko'zdan kechirish kerak bo'ladi. Bu masjid va saroy hukmdor shu paytgacha qurilishini amalga oshirgan va buyurgan eng ulug'vor imoratlar sirasiga kiradi» (Klavix, 103–104-sahifalar).

Saroyning o'tmishdagi ulug'vorligi dalili sifatida hozirgi paytda bosh peshtoqning mustahkam ustunlari saqlanib qolgan. Tomoshabinni bunda bino tarhining mahobatli o'lchamlari va aniqligi, oddiyligi, qoplama to'rlarining jonliligi va gul-naqshlar turli-tumanligining cheksizligi hayratga soladi.

Kengligi 22 metrli peshtoq ravog'i ikki tashqi minoradek, burjlar bilan yon tomondan mustahkamlangan. Peshtoqning tugallangan tepa qismi saqlanib qolmagan. Chamasi, gumbazning uch burchak tokchalari ustida kungura bilan tugallangan qubbali galereya bo'lgan. Aylana burjlarning yuqori qismida gumbazchali an'anaviy qafasalariga ega bo'lgan. Peshtoqning umumiy balandligi 50 metrdan ziyod edi.

Oqsaroydagi rang-barang koshinli qoplama diqqatga sazovordir. Pardozlangan qizg'ish-jigarrang gilning haroratli sarg'ish-jigarrang fonida


lojuvardlangan mayda g'ishtchalarning qat'iy handasaviy to'qimasi bo'rtib turadi. Suvratining asosiy chiziqlari ko'k rang bilan ajratilgan. Tekisliklar moviy rang bilan to'ldirilgan. Peshtoqning pastki qismida, ayniqsa, toqning yassi tekisliklarida qizg'ish-jigarrang fon asta-sekin yo'qolib boradi. Bunda ranglarning quyuvlashuviga ko'k-nafarmon tus ustunligi bo'lgan o'yin naqshlar va qisman qadama bezakdan foydalanish evaziga yerishilgan. Naqshlar ko'lami va suvratlar, rangli koshinlarning birikuvi, bir butunlikda inshootga katta hashamdorlik va tantanavorlik baxshida etadi.

Peshtoqning mahobatiga mahliyo bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur: «*Muncha oliy toq olamda kam nishon berurlar!*» deb yozgan edi. Ha, Markaziy Osiyo me'morchiligi bunday katta peshtoqning o'zga bir namunasini boshqa ko'rmagan.

Oqsaroy o'zining ko'lami va badiiy sifati bilan XIV asr oxirlari – XV asr boshlaridagi ko'plab imoratlar orasida yuqori o'rinlardan birini egallaydi. Badiiy shakllarga oid teran bilimlarini namoyish etgan xalq ustalarining ijodiy izlanishlari bu inshootda o'z aksini topdi. Boshqa tomondan esa Temur mahobatli inshoot qurish bilan o'z ta'sirini kuchaytirishga intilar edi. Oqsaroy peshtoqining tepasida yirik-yirik arabiy harflar bilan yozilgan: «*Bizning viloyatimiz va karomatimizga shak keltirsang magar, tiklamish imoratimizga tashlagil nazar!*»




Buxoro. Ko'hna ark umumiy ko'rinishi.



Buxoro arki.

- Umumiy tarhi: 1. G'arbiy darvoza; 2. Jome masjidi; 3. Qushbegi binolari kompleksi; 4. Toj kiydiradigan zal; 5. Salomxona; 6. Bo'xchabardor binosi; 7. Saisxona hovli va qurilishlari bilan; 8. Masjid xonaqohi; 9. Battol G'ozzi mozori; 10. Arxeologik qazilma.



Qo'qon. Xudoyorxon saroyi umumiy ko'rinishi va tarhi.



Xiva. Nurillaboy saroyi.



Xiva. Tosh hovli saroyi. Haram ayvoni.



Buxoro. Sitorai Mohi Xosa saroyi.

arabcha bitigida jahongirning «ijtimoiy buyurtmasi» aniq-ravshan jaranglab turardi.



3.2. Shahar tashqarisidagi ko'shklar, qasrlar

Ko'shk (ko'chik) – to'rt ustunli, tomi qubbali, asosan, yog'och va qamishdan qurilgan engil qurilma; pavilon, kiosk. 1) Bog' ichkarisidagi zebu ziynatli ayvon. Ko'shklar qadimda arava ustiga ham o'rnatilgan. 2) Saroy, qasr, keyinchalik murakkablashib, ko'p xonali hashamatli ko'shklar qurilgan.

Arxitektura doktori P. Zoxidovning ma'lumotiga ko'ra, ko'shk qadim davrlarda (V–VI asrlardan boshlab) bog' ichkarisidagi yengil konstruksiyali ustun, ayvon va ochiq bolaxonalari bo'lgan ko'rkam imoratni bildirgan.

Tarixiy manbalarda (Narshaxiy, Istaxriy, Muqaddasiy) aytilishicha, Buxoro shahri atrofida mug' boylari 700 ta ko'shkni bog'i bilan bir yoz ichida qurganlar (VIII asr). Buxoro shahri ichidagi faqat uch ariq yoqasida (jami 12 ariq bo'lgan) 4000 ko'shk borligi, kichik Mizdahqon (Xorazm) shahri atrofida 12000 ta ko'shk mavjudligi haqida xabarlar beriladi. Bunday binolar, asosan, paxsa, yog'och va qamishdan yasalgan. Ana shu minglab ko'shklar orasida arxitektura jihatidan yuksak mahorat bilan ishlangan ko'rkam binolar bo'lganligi, bu sohada ma'lum uslub va an'analar bo'lganligi diqqatga sazovordir.

Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da yozilishicha Somoniylar davrida (IX–X asrlar) har bir amir Buxoroning xushmanzara va xushhavo sersuv



Ko'shklarning sxematik ko'rinishi.

bel «do'yi Mo'liyonda o'zi uchun bog' va ko'shklar bino» qilgan. Nav darvozasiga tutash mavzeda amir Mansur ibn Nuh «g'oyat go'zal bir ko'shk qurdi». Malik Shamsulmulk esa Ibrohim darvozasi yaqinida «yarim farsang keladigan joyda go'zal bog'lar barpo qildi».

Tarixda, ayniqsa, Amir Temur va Ulug'bek davrida Samarqand atrofida juda ko'p bog'lar barpo etilgani haqida ma'lumotlar saqlangan, lekin ularning binolari bizning davrimizgacha deyarli saqlanmagan.

Ko'shklar arxitekturasi shaklini keyinchalik takomillashib, xatto saroy kabi ulug'vor binolar arxitekturasi tuzilishiga ta'sir ko'rsatganini Zahiriddin Bobirning yozgan asarlaridan ham bilish mumkin. U Samarqand ichkarisi va tashqarisidagi yirik manzaralar haqida shunday deydi: «Temurbekning va Ulug'bek Mirzoning imorati va bog'oti Samarqand mahallotida ko'ptur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to'rt oshiyonlik. Ko'ksaroyg'a mavsum va mashhur va bisyor oliy imorattur». Afsuski zamondoshlarni hayratda qoldirgan to'rt qavatli ulkan ko'shk – Ko'ksaroy buzib tashlangan. Samarqand atrofida Amir Temur tomonidan obod qilingan Bog'u Bo'ldu, Bog'i Dilkusho, Bog'i Naqshijahon, Bog'i Behisht, Bog'i Shamol, Bog'i Zog'on, Bog'i Shinor, Bog'i Jaxonnoma, Bog'i Feruza kabi bog'lar bo'lgan.

«Dilkushoda ham ulug' ko'shk soldurubtur, ul ko'shkka Temurbekning Hindiston urushini tasvir qilibturlar».

Ko'shki Dilkusho yodgorligi haqida yirik olimlarimiz fikrlari turlicha bo'lishiga qaramay biz oxirgi tadqiqotlar asosida Ishratxona aslida ko'shik ekanligiga ko'nikamiz. Baland devor bilan o'rab olingan bog' o'rtasida Ko'shki Dilkusho-Ishratxona ko'shki bunyod etilgan. Binoning bosh tarzi kompozitsion markazida buyuk peshtoq, ikki qanotida ikki oshiyonli xonalari joylashgan. Izorasi toshdan yig'ilgan, bezaklari silliq g'ishtdan choklariga feruza va lojuvard rang koshin berilgan. Peshtoq ravog'i ichida yana bir kichik ravog' bo'lib, uning ichki devoriga darvoza o'rnatilgan. Ichkarida xonaqoh-miyonsaroy (markaziy xona), taxminlarga ko'ra ko'shikning masjidida ham bo'lgan. Shordaraning tashqi burchaklarida to'rtta aylanma zina bo'lib, ular orqali yuqori qavatdagi xonalarga va gumbaz tomga chiqilgan. Shuningdek, saroylarga xos xonaqoh ostida sakkiz qirrali tagxona ham bo'lib, u yerdan saroy mulki va oziq-ovqatlarni saqlash uchun foydalanilgan.

Chordara saroy usti tashqi tomonidan ikkinchi gumbaz bilan berkitilgan va mahobatli ko'rinishga ega. Gumbaz butunlay Feruza rangli g'ishtlar bilan terilib, uzoq-uzoqlardan ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Bog'i Dilkushoning keyinroq Bog'i Feruza deb atalishiga ham, P. Zoxidovning fikricha, gumbazning rangi sabab bo'lgan.

Umuman, ko'shikning barcha qismlari o'zaro mutanosib, uning koshinkoriy, sirkoriy, islmiy va girihkoriy bezaklari juda hashamatli va nafis bajarilganligi bilan diqqatga sazovordir.

Bobir Mirzo buyuk olim Ulug'bek davri arxitekturasiga ham oid qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Ayniqsa, bog'dorchilik san'atining ajralmas qismi bo'lgan ko'shik-saroy arxitekturasi haqidagi aytganlari mavzuimizga tegishlidir: «Yana pushtayi Ko'hakning domanasida g'arb sari bog'e solibtur, Bog'i Maydong'a mavsum. Bu bog'ning o'rtasida bir oliy imorat qilibtur. Chilsutun derlar, du oshiyona, sutunlari tomom toshdin. Bu imoratning to'rt burchagida to'rt manordek burjlar qo'poribdurlarkim, yuqoriga chiqar yo'l bu to'rt burjdindir. O'zga tomon yerlarda toshdin sutunlardur. Ba'zini morpech xiyora qilibturlar. Yuqorigi oshiyonining to'rt tarafi ayvondir, sutunlari toshdin. O'rtasi chordara uydur. Imorat kursisini tomom toshdan farsh qilibdurlar».

Shuningdek, Ko'hak bo'yidagi kichik bir bog'chaga—Bog'i Maydonga solingan Shinixona nomli chordara imorat-ko'shik borligi ham aytilgan.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, shahardan tashqarida barpo etilgan O'rta Osiyo saroylari, asosan, baland devor bilan o'ralgan Chorbog' uslubidagi bog'larning markaziy qismida qurilib, ariq suvlari, favvoralar bilan chegaralangan.

Ularning arxitekturaviy-kompozitsion uslubi XVII–XVIII asrlarda Eronda barpo etilgan bog‘-saroylarda keng qo‘llangan va temuriylar davridagi bog‘-saroylarga o‘xshab: kiraverish maydoni, markaziy hovli, havuz, qubbali qasr, katta suv havzasi va atrofi baland devor bilan o‘ralgan, chordara usulida qurilgan.


3.3. Minoralar

O‘rta Osiyo arxitektura yodgorliklari qatorida shaharlarga salobat va ko‘rk beruvchi minoralar o‘z mahobati bilan ajralib turadi.

Minora (arabcha – mayoq) – baland inshoot, odatda, uch xil vazifani bajaradi. Muazzin minoraga chiqib, azon aytadi – namozxonlarni namozga chaqiradi. Qadimda minoralar kuzatish va xabar berishga ham xizmat qilgan. Dengiz sohillarida kemalarning adashmay portga kelishiga xizmat qiladigan (mayoq), televideniya va boshqa maqsadlarga xizmat qiladigan minoralar ham bo‘ladi. Inshootning yuqorisiga chiqish uchun uning ichida aylanma zina bo‘ladi.

Minora turlari va ularning kompozitsion yechimlari. Minoralar, asosan, doira (ko‘pincha O‘rta Osiyoda) ba‘zan ko‘p qirrali (aksariyat Turkiya va Hindistonda) yoki to‘rtburchak shaklida (Suriya va Shimoliy Afrika mamlakatlarida) bo‘lib, yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Minoralarda g‘ishtlar bezakdor qilib terilgan, ba‘zilarining sirti o‘yma naqshlar, rang-barang sirkor parchinlar bilan naqshlangan.

Minoralar o‘zining arxitekturaviy muhitda joylashishiga qarab: alohida yoki bino tarkibida (burchakda, burchagiga taqab), tanasining shakli:



Buxoro. Poyi-Kalon ansambli tarhi.

1 – Kalon masjidi; 2 – Miri-Arab madrasasi; 3 – Kalon minorasi.

vertikal (qovariq, qovurg'a) yoki gorizontal (mavj usulida terilgan g'ishtliq belbog'lar) kabi kompozitsion uslublariga qarab bir-biridan farq qiladi.

Alohida joylashgan minoralar. Minorai Kalon, Katta minora Buxorodagi arxitektura yodgorligi. Muhandis va me'mor Baqo yaratgan (1127).

Minorai Kalon qulab tushgan avvalgi yodgorlik o'rnida tiklangan. Yangi minora poydevori mustahkam bo'lib, toshdan terilgan. Minora mahobatli, uning balandligi 50 m, tanasi g'olasimon, asosining diametri 9 m, yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnasli qafasa bilan tugaydi. Minora ichidagi g'ishtin aylanma zinapoya orqali uning tepasiga chiqish mumkin. Minorai Kalonning qafasasi gumbazli davra-ko'shk shaklida undagi o'n olti ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Minoraning o'zagi ham, bezagi ham chorsi g'ishtdan (27×27×4–5 sm) terilgan. Bezak g'ishtlar turli shakllarda yo'nilib, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil geometrik shakldagi bejirim bezakli halqalari g'ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi.

Minorai Kalon shu turdagi qadimgi inshootlar orasida alohida o'rinni tutadi. Shakllarning o'zaro monandligi va mutanosibligi, geometrik uyg'unlik, ajoyib ko'rk va mahobatlik minoraga chinakam go'zallik bag'ishlaydi. Minorai Kalon Buxoro arxitektura yodgorliklari ansamblida markaziy o'rinni egallaydi.

O'zbekistondagi alohida joylashgan eng ixcham va ko'rkam minora – Buxorodagi 12 asrda 1196–1198-yillarda barpo etilgan Vobkent minorasi bo'lib, uning balandligi 38,7 m. Asosi o'n ikki qirrali, pishiq g'ishtlardan mavjli qilib terilgan. Quyi qismining diametri 6,19 m, yuqori qismi 2,81 m. Belbog'idagi naqshlar orasida sana va qurdirgan shaxs (Sadr Burhoniddin Abdulaziz II)ning nomi ko'fiy xatida yozilgan.

Minoralar vazifasi haqida gapirganda nafaqat uning mahobatli ko'rkamligini emas, balki shaharda mo'ljal olish belgisi bo'lganligi ham ahamiyatlidir. Masalan, Xivada kishi adashib qolishi mumkin emas, chunki mahobatli Islomxo'ja minorasi hamma yerdan ko'rinib turadi.

Ichan qal'aning janubiy qismida XX asr boshlarida Isfandiyo'rxonning vaziri va qaynotasi Islomxo'ja tashabbusi bilan madrasa va minora qurilgan. Ustalar Bolta Voisov, Madaminov va Xudoyberdiyevlar noyob ansambl yaratdilar.

Islomxo'ja minorasi madrasa bilan yonma-yon qurilgan. Minora aslida Xivaning ramzi bo'lib qolgan. Uning balandligi 44 m, asosining diametri

uqoriga yaqin. Yuqoriga tomon ingichkalashib ketgan minora nihoyatda mustahkam inshoot sifatida taasurot qoldiradi. Minora tanasidagi ko'k-oq garchin bilan bezalgan belbog'lar sarg'ish-qizg'ish g'isht belbog'lar bilan qamashib keladi. Tepasiga qafasa ishlanib, muqarnasli sharafa, cho'qqisi oltin halli qubba bilan tugallangan. Minora uzoqdan ko'zga tashlanib, ularga yaqin gumbazli va ravoqli qurilishlarni o'z qanoti ostiga olgandek taasurot hosil qiladi.

Turli hajmdagi binolar Islomxo'ja minorasidan uzoq-yaqin joylashganligiga qarab, uning qaddiga mutanosiblashib boradi.

Shahar ko'rinishiga chiroy baxsh etgan, ko'chalarga fayz kiritgan shaklan va hajman turli-tuman bo'lgan sharqdan – Xazorasp darvozasidan ichan qal'a orqali g'arbga qarab har 200 m masofada bir maqomda qator turilgan Polvon qori, Said Sholikorboy, Juma, Kalta minor va Shayx Qalandar bobo minoralari Xivaga takrorlanmas go'zallik baxsh etgan. Bu yerda Xorazm me'morlarining yuksak mahorati va an'anaviy shahar qurilishi san'ati namoyish etilgan.

Yuqorida nomi keltirilgan Xiva shahri minoralaridan Kalta minor (Ko'k minor ham deb atashadi) 1815-yilda tiklana boshlagan – eng katta va baland (taxminan 70–80 m) qilib qurishga mo'ljallangan inshoot, afsuski Muhammad Aminxon harbiy yurish paytida halok bo'lgach,



Xiva. Islomxo'ja minorasi.



Xiva. Juma masjid minorasi.



Xiva. Kalta minor.

chala qolgan. Hozirgi holatida balandligi 26 m, asosining diametri 14,2 m. Uning sirti jimjimador oq, yashil, feruza rangli koshinlar bilan bezatilgan.





O'rta Osiyo minoralari orasida o'zining qovariq (qovurg'a) shakli bilan ajralib turgan yagona hisoblangan **Jarqo'rg'on minorasidir**. Jarqo'rg'on minorasi (Surxondaryo viloyati, 12-asr) – hozirgi balandligi 21,5 m, sakkiz qirrali asos ustiga pishiq g'ishtdan qurilgan. Me'mori Ali Ibn Muhammad Saraxsiy. Minora 16 g'arovi, g'ishti panjarasimon shaklda bezak berilib mavjli qilib terilgan; asos, o'rta qismi, yuqori qismi va mezanadan iborat

bo'lgan. O'n olti tutamlik qavariq (qovurg'a) shaklida yarim ustunlar yuqori qismida ravoqchalar zanjiri va enli epigrafik hoshiya bilan jiplashgan.

Bu minora o'sha davrlarda bunyod etilgan Xorason, Turkiya va Hindiston yodgorliklariga yaqin uslubda qurilgan. Masalan, Yivli minorasi (XIII asr) Jarqo'rg'on minorasiga o'xshaydi va bir qancha asrlardan buyon Antaliya (Turkiya)ning shahar timsoli bo'lib kelmoqda. Shuningdek, Jarqo'rg'on minorasi konstruktiv-badiiy xususiyatlari bilan Dexli (Hindiston)dagi Qutb Minorga ham o'xshab ketadi. Bu yerda ham qavariq (qovurg'a) shakl qo'llanilgan.

O'rta Sharqdagi eng baland minoralardan Qutlug' Temur minorasi Ko'hna Urganchdagi me'moriy yodgorlik (1321–1333) bo'lib, uning balandligi 62 m. Pishiq g'ishtdan qurilgan minora yuqori tomon ingichkalashib borib, konus shaklini oladi. Minora mavj usulida terilgan g'ishtli belbog'lar va kitobalar bilan bezatilgan. Quyi qismida Qutlug' Temur (Oltin O'rdaning nufuzli amirlaridan) va Oltin O'rda xoni O'zbekxonning nomi kufiy yozuvida bitilgan. Jome masjid (saqlanmagan) tomi orqali eshikdan minoraga kirib, aylana zinapoya orqali yuqoriga chiqilgan. Quyi qismida muazzin uchun yog'ochdan ishlangan maxsus joy qoldiqlari saqlangan.

Minora bunyod etish merosi istiqloq yillarida yangi qurilgan masjid va madrasalarda ham davom etmoqda. Toshkentda Xazrati Imom majmuasidagi qurilgan yangi masjid bosh tarzi oldidagi ikki minora



0 1 2 3

Surxondaryo viloyati. Jarqo'rg'on minorasi.

likrimiz dalilidir. Balandligi 54 m dan bo'lgan minoralar Toshkent islom madaniyati markazi – Xazrati Imom majmuasining dominanti (ramzi) sifatida mahobatli ko'rinish kasb etadi.

Bino tarkibida joylashgan minoralar. Madrasa, masjid kabi yirik jamoat binolarining tarkibida (burchagida, burchagiga taqab) yaxlit konstruktiv va bezagining ajralmas qismi asosida minoralar bunyod etilgan. Minoralar temuriylar davriga oid katta hajmdagi peshtoqlarning kompozitsiyasi tarkibiga kirib, hovli majmualarining burchak qismlarida qurilgan. Minoralarning faqat ayrimlaridagina azon aytish uchun foydalanilgan, ko'pchiligi, ayniqsa ikki-uch bo'g'inli (yarusli)laridan, baland bo'lganligi uchun, foydalanilmagan.

Masalan, Samarqanda qurilgan Ulug'bek madrasasining to'rt burchagida har biri uch yarusli to'rtta minora bo'lgan, hozir ularning faqat birinchi yarusi saqlanib qolgan. Minoralar kallagi (kapitel) chiroyli muqarnasli koshinlangan. Buxoroda qurilgan madrasaning to'rt burchagini minoralar o'rniga usti qubbali guldastalar mahkamlab turishi yangi usul qo'llanganidan va bu usul keyinchalik keng tarqalganini isbotlaydi.

O'ziga xos yechimi va kompozitsiyaviy uslubi bilan ajralib turgan yodgorliklaridan biri Buxorodagi Xalifa Niyozquli qurdirgan (1807) Shot minor hisoblanadi. Hozir bu majmuadan hajmiy yechimi bo'yicha go'zal manzara kasb etuvchi kirish qismigina saqlanib qolgan. Burchaklarida havorang qubbali to'rtta baland mezanasi bo'lgan darvozaxona ikki qavatli kubsimon gumbazli inshoot tarzida ishlangan. Mezanalar minoraga o'xshaydi, yodgorlikning nomi ham shundan kelib chiqqan. Darvozaxona tepasida ikkinchi qavatda kutubxona joylashgan bo'lib, minoralardan biriga o'rnatilgan zinadan chiqilgan.

Samarqanddagi Sherdor madrasasi (1619–1636), Toshkentdagi Ko'kal-dosh madrasasi (1551–1575), Qarshidagi Shermuhammad madrasasi (17–18-asrlar), Kosonsoy jome masjidi (18 asr), Buxorodagi Abdullaxon madrasasi kabi qator yodgorliklar bosh tarzidagi peshtoqning ikki burchagiga minorasimon guldastalar o'rnatilgan va ular binoning ajralmas kompozitsion qismi hisoblanadi.

3.4. Gidrotexnik inshootlar

O'rta Osiyo arxitektura tarixida gidrotexnik inshootlarning ahamiyati katta. Qadimgi suv inshootlari ota-bobolarimizdan qolgan arxitektura yodgorliklari qatorida muhim o'rin tutadi va ularning tipologik asoslaridan birini tashkil etadi. Maxsus hovuzlar, sardobalar, suv omborlari, ko'priklar kabi gidrotexnik inshootlar murakkab muhandislik madaniyatining namunasi sifatida, avvaldan tayyorlangan loyihalar asosida bunyod etilganligini isbotlaydi.

O'rta Osiyo va Yaqin Sharqning ayrim mamlakatlarida keng tarqalgan sun'iy suv havzasi **HOVUZ** bo'lib, suv yig'ish va saqlash uchun qazilgan chuqur joy, shuningdek, u ichimlik suvini ham saqlagan. Hovuzlarning chorsi, to'rtburchak, aylana, olti qirrali va sakkiz qirrali turlari mavjud. Hovuzlar, asosan, mahalla guzarlarida masjid va madrasalar yonida, shahar maydonlari, bog'lar, chorbog'lar, saroy hovlisi kabi hududlarda bunyod etilgan. Atrofi toshlar bilan mustahkamlab, daraxtlar ekib soya-salqin joyga aylantirilgan, ko'pincha favvoralar bilan bezatilgan. Hovuzlarning qadimdan arxitekturada, ayniqsa, ansambllar tashkil etishdagi ahamiyati katta bo'lgan. Qadimiy Misrda to'g'ri to'rtburchak shaklidagi hovuz yo'lkaning ikki tomonida bunyod etilgan. Keyinchalik me'moriy majmualar tarkibida hovuzdan unumli foydalanila boshlangan: Agradagi (Hindiston) Tojmahal, Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa, Labi-

hovuz, Bolohovuz va boshqalar nafaqat aholini suv bilan ta'minlagan, shaharlarning takrorlanmas ko'rkam va jozibali manzillari bo'lgan. Masalan, Buxoro Shohrud arig'i yaqinidagi eng katta va ko'rkam Labihovuz (1620-y) harakterlidir. O'rta Osiyoda eng yirik hisoblangan. Hovuz tarhi to'rtburchakli, hajmi 36×46 m, chuqurligi 5 m bo'lib, 4320 metr kub suvga mo'ljallangan, burchaklari qiya kesik chekkalariga yirik toshlar zina tarzida terilgan. XVIII asrga oid yozma manbalarda qayd etilishicha, Toshkentning o'sha davrdagi markaziy maydoni Registon va Shayhontohurda hovuzlar bo'lgan, uning atrofida daraxtlar o'sgan, qo'lyozmalarga ishlangan miniatyuralarda ham hovuz o'z ifodasini topgan.

Buxoro shahrida 300 dan ortiq hovuz bo'lganligi XIX asr hujjatlarida qayd qilingan. XX asrda esa sanitariya talablari bahonasi bilan aksari hovuzlar quritib o'rniga binolar qurilgan. Hozirda O'zbekiston hududida tabiiy iqlim sharoitlarini e'tiborga olinib hovuzlar (suv havzalari) bunyod etilmoqda, ular favvoralar bilan uyg'unlikda so'lim maskanlar hosil qiladi.

Hovuzning yana bir turi «qulfakli» hovuzlar bo'lib, qurilish uslubiga ko'ra bu hovuzlar oddiy hovuzlardan farq qiladi. Bu hovuzlar yerni o'yib emas, balki do'nglikka yoki soyning biron qirg'og'iga qurilgan.

Buning uchun bo'yi 60, eni 40 m keladigan qulay maydoncha tanlanib, uch tomoniga tosh va chimdan balandligi 2 m keladigan devor qurilgan.

Devorning tagi 3 metr, yuqorisi 1,5 metr qilib uriladi. Hovuzning yuqori va pastki qarama-qarshi tomonlarida ikkita qulog'i bo'lib, ulardan yuqorisidagisi teparoq keladigan soy – suvini hovuzga bog'lash uchun, pastdagi esa hovuzda to'plangan suvni chiqarish uchun ishlanadi. Hovuzdagi suvni chiqarish uchun oqilona ishlangan bu «mexanizm» – «qulfak» deb ataladi. Hovuzga suvni to'plashda va chiqarishda ular qulf vazifasini bajaradi. Hovuz tagidan o'tkazilgan quvur ham diqqatga sazovor bo'lib, uning kesimi to'rt burchak shaklli tosh plitalardan ishlangan. Quvurning suv oqib chiqadigan tashqi og'zi suv kiradigan ichki og'ziga nisbatan ikki baravar keng. Masalan, uning ichki og'zining kattaligi 40 sm bo'lsa, tashqarisi 80 sm bo'ladi. Sababi qulfak ochilganda hovuzdagi suv bosim bilan teshikdan o'tib, quvurga oqib kirganda suvning kuchli zarbi quvurning tashqi og'zini o'pirib ketishini yaxshi hisoblagan qadimgi muhandislar suv bosimini kamaytirib, oqim zarbini sindirish maqsadida quvurni konussimon qilib qurganlar. Shuning uchun ham bunday oddiy, biroq har taraflama puxta qurilgan inshootlar «qulfakli» hovuzlar deb atalib, O'rta Osiyoning tog' oldi tumanlarida

keng tarqalgan, ulardan hozirgi kungacha sug'oriladigan dehqonchilikda foydalanib kelinmoqda. Birgina Forish tumanida (Jizzax viloyati) bunday qulfakli suv inshootlarini Nurak, Qoraxon Qurbonxoji, Pastko'cha, Yonbuloq kabi o'nlab qishloqlarda uchratish mumkin.

Yirik gidrotexnik inshootlardan **BAND**lar O'rta Osiyo arxitekturada tipologiyasida alohida o'rin egallaydi. BAND – to'g'on, damba, suv ombori; Masalan, X asrda hozirgi Forish tumani Pasttog' darasida toshdan qurilgan Xonbandi, Nurota tumanidagi G'ishtband (XII asr), shu tumandagi Beglarsoy darasida qurilgan Abdullaxon bandi va boshqalar.

Pasttog' (Osmonsoy) darasiga qurilgan Xonbandi suv ombori 20 asrda akademik Y. G. G'ulomov boshliq arxeologik ekspedisiya tomonidan tekshirilgan. To'g'onning uzunligi ustki qismida 51,75 m, asosida 24,35 m bo'lib, balandligi 15,25 metrga teng. To'g'on granit toshlardan yo'nib qurilgan bo'lib, toshlar suvga chidamli maxsus qurilish qorishmasi bilan bir-biriga mahkam biriktirilgan.

To'g'on qurilgach Osmonsoy darasi ichida uzunligi bir yarim kilometr, eni to'g'on oldida 52 m va dara og'zida 200 m kattalikdagi suv ombori hosil bo'lgan. Osmonsoy va Ilonchi soylardan bahorda keladigan sel suvlari ana shu omborda to'planib, taxminan bir million olti yuz ming kubometr hajmdagi suv hosil etgan xonbandi suv omboriga to'plangan suv bilan Qizilqumning Mirzacho'l bilan tutashgan chegarasida, taxminan bir yarim ming gektar yer maydoni o'zlashtirilib, inshootdan 6 km shimolda mustahkam rabot va obod qishloq qad ko'targan. Hozirgi kungacha saqlangan bu rabotning xarobalarini mahalliy aholi Kaltepa nomi bilan ataydi.

Abdullaxon bandi – XVI asrning 80 yillarida Buxoro hukmdori Abdullaxon II qurdirgan qadimiy suv ombori XVI asr Buxoro tarixchisi Hofiz Tinish Mirmuhammad Al Buxoriyning «Abdullanoma» nomli qo'lyozma asarida va XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yozilgan «Tarixi Salimiy» qo'lyozma asarlarida yozilishicha bahorgi yomg'ir suvlarini to'plash uchun qurdirilgan to'g'on qoldiqlari Nurota tumani markazidan 65 km sharqda, eski Oqchob qishlog'i yaqinidagi Beklarsoy darasida hozirgacha saqlangan o'sha davrdagi eng ulkan va murakkab suv inshootlaridan bo'lgan. 1957–1962-yillarda O'zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti olimlari tomonidan o'rganilgan Abdullaxon bandining to'g'oni slanes toshlardan qurilib, tosh palaxsalari suvga chidamli maxsus ganch qorishmasi – qir bilan biriktirilgan. To'g'onning uzunligi asosida 73 m, yuqorisida 85 m, balandligi 14,5 m ni tashkil etgan. Bunda suv bosimi hamda uning

saqlanuvchi kuchi hisobga olingan holda to'g'on asosining qalinligi 15,3 m uning qismi 4,5 m qilinib, zinapoya shaklida qurilgan. To'g'on oldida hosil bo'lgan suv omborining uzunligi 1,5 km, eni 75–125 m. Abdullaxon bandiga ta'minan bir million ikki yuz ming kubometr hajmdagi suv to'plangan.

Inshootdan quyi joylashgan Kamar, Oqchob, O'rganjiy, Ravot, Jilon - ramp'ali va Soykechar qishloqlari atrofi sug'orilib obod etilgan. XVI asrda ana shu qishloqlar hududida taxminan bir million ikki yuz ming gektar yer maydoni o'zlashtirilgan.

Sardobalar. Oqar suvlardan mutlaqo mahrum bo'lgan cho'l va dasht joylarida – O'rta Osiyoning Qizilqum, Qoraqum, Mirzacho'l, Qarshi va boshqa cho'llar orqali chet mamlakatlarga qatnagan savdo karvonlari va chorva mollarni suv bilan ta'minlash maqsadida maxsus suv inshootlari «sardoba» lar qurilgan. «Sardoba» – sovuq suvli xona yoki muz xona ma'nosini anglatadi, maxsus qurilgan gumbazli hovuz. Sardobalar anchagina murakkab qurilgan. Ular turli xil hajmda bo'ladi. Silindr shaklida yerga o'yib ishlangan sardoba hovuzning chuqurligi 10–15 m, diametri 12–16 m va devorining qalinligi 1–1,5 metrni tashkil qiladi, hovuz yuzasi sathi bilan bir tekis bo'lgan. Sardoba gumbazi sifatli pishiq g'isht va ganchdan ishlangan, tepasi tuynukli, atroflariga hovuzga suv tushadigan teshiklar qilingan. Kirish uchun sardobaga eshik ham o'rnatilgan, uning oldi suvni toza saqlash maqsadida devor bilan o'ralgan. Sardoba yoniga mollarni sug'oradigan oxur qilinib, unga suvdondan maxsus tarnov orqali suv oqizilgan. Ba'zi sardobalarda ularni nazorat va tozalab turuvchilar uchun xonalar ham bo'lgan.

Raboti Malik karvon saroyini suv bilan doimiy ta'minlab kelgan, uning yaqinida (145–150 m janubiy g'arbida) joylashgan yirik gumbazsimon inshoot Malik sardobasi hisoblanadi. Sardoba gumbazli, hovuzining diametri 12,8 m, balandligi 20 m, uning uchdan ikki qismi pishiq g'ishtdan, yerga o'yib ishlangan. Sardobaning shimoliy qismida suvga tushish zinapoyalari, gumbazi tepasida yorug'lik tushuvchi tuynuklari mavjud. Sardobaga suv Zarafshon daryosidan maxsus kanal orqali keltirilgan.


Sardobalar geografik joylashuvi, joyning tabiati, relefiga ko'ra bir necha xil: qor-yomg'ir suvlaridan, anhor-ariq suvlaridan, yer osti suvlaridan (korizlar yordamida) to'ldiriladigan sardobalar bo'lgan. Qor-yomg'ir suvlaridan to'ldiriladigan sardobalarni qurishda joyni to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki bunday sardobalar bahorda atrofdagi nishabliklardan oqib tushadigan qor va yomg'ir suvlari hisobiga to'ldirilgan.

Masalan, Jizzax shahridan 35 km shimoli sharqda joylashgan «Yog'ochli» degan sardobaning kattaligi $25 \times 25 = 26 \times 26$ va 27×27 sm va

5–5,5 sm bo'lgan to'rtburchakli pishiqlik g'ishtdan qurilgan, uning diametri 15,2 m va devorining qalinligi 1,4 metrga teng. «Yog'ochli» sardoba gumbazining uch tomonida uchta shamollatuvchi tuynukchalar bo'lib ularning tashqarisida mo'ri bo'lgan. Shamollatuvchi mo'ri va tuynuklar doimo inshoot ichidagi xavoni tozalab, unga salqinlik berib turgan. Sardoba hovuziga suv quyiladigan maxsus suv yo'li hamda undan suv olib chiqadigan peshtoqli kirish yo'lagi bo'lib, yo'lakdan zinapoyalari orqali hovuz ichiga tushilgan.

Turkmanistonning Sandiqli cho'lida Kerki bilan Qarshi shaharlarini bog'lovchi qadimiy karvon yo'lida Sangi Suvoq sardobasi bunyod etilgan (XVII asr o'rtalarida). Sardoba pastlikda joylashgan va atrofdagi nishabliklardan oqib tushuvchi qar-yomg'ir suvlari bilan to'ldirilgan. Hovuzning diametri 17 m. Sardoba pog'onali, baland gumbazi pishiqlik g'ishtdan ishlangan, tepasi va yon tomonlari tuynukli. Yo'lovchilar dam olishi uchun yonida ravoqli ayvonchalar qilingan. Mol sug'orish uchun tarnov o'rnatilgan. 19-asrning 90-yillarida rassom K. Kosmovskiy tomonidan sardobaning surati chizilgan. Sangi Suvoq sardobasining arxitekturaviy kompozitsiyasi o'ziga xos: pog'onali gumbazi, dam olish uchun qilingan mehrobsimon ayvonchalari va peshtog'i bilan ajralib turadi.

Qashqadaryo viloyatida 1892-yili suv saqlanadigan hovuz Qamashi sardobasi bunyod etilgan. Uning bosh tarzi peshtoqli, gumbazi yassi pog'onali. Gumbazdagi tuynuklar orqali ichiga yorug'lik tushadi. Hovuzga peshtoqdagi aylanma zina orqali tushiladi. 1913-yilda ta'mirlangan.



XVI asrda buxorolik noma'lum muhandis tomonidan chizilgan sardoba tarhi (loyihasi).



Navoiy viloyati. Raboti Malik karvonsaroyi tarkibidagi sardobaning umumiy ko'rinishi.

tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Movaraunnahrda 44 ta sardoba bo'lgan. Ulardan 29 tasi Qarshi cho'lida, 3 tasi Mirzacho'lida, 3 tasi Cho'lient bilan Farg'ona o'rtasidagi qadimgi savdo yo'lida, 1 tasi Karmana vodiysida – Cho'li Malik (Raboti Malik)da bo'lgan. Sardobalardan O'rta Osiyoning ba'zi dasht-cho'llarida hozir ham qisman foydalaniladi.

Ko'prik – suv, chuqurlik va shu kabilar ustidan o'tish uchun mo'ljallangan maxsus qurilma. Xomashyoga ko'ra g'ishtko'prik, toshko'prik, taxtako'prik (taxtapul) kabi turlari bor. **Ko'prik.** O'rta Osiyodagi qadimgi inshootlardan hisoblangan Qashqadaryo ustidagi **ko'prik, asosan,** pishiq g'isht va mustahkamlovchi qorishmalar yordamida 12 ustunli, 14 ravoqli qilib Abdullaxon II davrida qurilgan. Ko'prikning uzunligi 122,5 m, eni 12 m, daryodan ko'prikning yuqori sathigacha 5,5 metrdir. Inshoot juda puxta, mustahkam qurilgan bo'lib, milliy me'morchiligimizning muhandislik sohasidagi yorqin namunalaridan hisoblanadi. Har bir g'ishtin ustunning diametri qariyb 4 metr bo'lgan, uning tagzamini sariq xarsang toshlardan ishlangan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ko'prik XVI asrdan ham oldin mavjud bo'lgan. Ko'prikning ikki tomonida usti gumbazli qorovulxona joylashgan, ular 1926-yilda ham mavjud bo'lgan. Keyinchalik buzib tashlangan. Hozirgi vaqtda eski ko'prik asl holiga keltirilib ta'mirlandi.

Iskandar ko'prik (Surxondaryo viloyati, taxminan 1557–98) – qadimiy savdo yo'li (Termiz-Shag'aniyon va Hisor) Bandixonsoy ustiga qurilgan.


Ko'prikning umumiy uzunligi 70 m dan ortiq, balandligi soy tubidan tepasigacha 12,1 m. Usti uch qismdan iborat: yo'lovchi va transport o'tadigan yo'l, suv o'tish uchun nov ishlangan.

Qadimiy ko'priklar – gidrotexnika inshootlari deyarli hamma viloyatlarda mavjud bo'lgan va milliy me'morchilikning muhandislik sohasidagi yuksak mahoratidan darak beradi.

Gidrotexnik inshootlar turkumiga qadimdan bunyod etilib kelingan Akveduk (lot. aqua – suv va dico – eltaman) suv o'tkazgich-ko'prik-jar,



Qashqadaryo. Qadimiy ko'prik
(Ta'mirdan keyin).





Toshkent. Choyxona atrofidagi ariq va hovuzlar. (A. Ziyayev rekonstruksiyasi).



Buxoro. Labi hovuz ansambli.

dara, daryo, yo'l ustidan o'tkaziladigan nov yoki quvurdan iborat ko'priksimon, estakada ko'rinishidagi suv o'tkazuvchi inshootlar ham kiradi. O'tkaziladigan joyning uzunligi va chuqurligiga qarab, akveduk yog'och, temir-beton, tosh, beton va metallardan quriladi. O'zbekistonda qadim zamonlardan buyon akveduklar yog'och, g'isht va toshdan qurilib kelingan. Masalan, VIII asr oxiri IX asr boshlarida Afrosiyobni suv bilan ta'minlash maqsadida pishiq g'ishtdan akveduk qurilgan bo'lib, ichki qismi qalay bilan qoplanganligi uchun tarixiy manbalarda «Jo'yi ariz», ya'ni qo'rg'oshin arig'i nomi bilan tilga olinadi. Jo'yi ariz qoldiqlarini arxeologlar Samarqand dehqon bozorining ro'parasidan topgan ma'lumotlar bo'yicha uning kattaligi 59×40×9 sm, 42×42×9 sm, 42×20×9 sm, 28×49×9 sm, 36×49×9 sm lik pishiq g'isht bilan kul aralash ohak qorishmasidan qurilgan degan hulosaga kelishgan. Samarqandni suv bilan ta'min etishda muhim inshoot bo'lgan Jo'yi arizni muhofaza qilishga alohida e'tibor berilgan. Jo'yi ariz 1220-yili mo'g'ullar tomonidan vayron qilingach, Afrosiyob suvsiz qolib, xarobaga aylangan.



Surxondaryo viloyati. Iskandar ko'prigi tarhi va qirqimi.

IV bob. O'RTA OSIYO ARXITEKTURASI TARIXIDA TAYLIM-TARBIYA MASKANLARI

4.1. Maktablar

«Maktab» deb ataluvchi ta'lim shakli dastlab VII–VIII asrlarda arab davlatlarida paydo bo'lgan. Dastlab maktablar masjidlar qoshida joylashtiriladi. VII–IX asrlarda ular O'rta Osiyoda ham keng tarqalgan.


Maktablar bolalarga boshlang'ich ta'lim berishga asoslanib, ularda o'qish, asosan, o'qish va husnixatni o'rganganlar. O'qish va yozishni bilgan yoshlar Qur'onni, nomozni va turkiy tildagi she'riy asarlarni yod olganlar. Maktablarda ta'limning asosiy shakli dars bo'lib, bolalar, odatda, 5–7 yoshdan o'qiy boshlagan. Bolalarning necha yoshgacha maktabda o'qishi zarurligi ularning iqtidoriga qarab belgilangan.

Aksariyat maktablar mahallalarning jamoat markazlari – guzarlarda joylashib, guzar masjidlari, madrasalar va boshqa vazifadagi jamoat binolari tarkibiga kirgan. Ayrim hollarda maktablar uchun alohida joylashgan binolar qurilgan. Islomiy an'analarga ko'ra qiz va o'g'il bolalar ajratib o'qitilgan: qizlar, odatda, muallimaning uyida, o'g'il bolalar esa maktabda o'qishgan. Boy xonadonlarning farzandlari, odatda, o'z uylarida, o'qituvchi yollab o'qitilgan.

Jamoat binolari tarkibiga kirgan maktablar uchun xonalar tanlashda O'rta Osiyoning issiq iqlim sharoiti e'tiborga olingan.


Masalan, Samarqand viloyatining Uxum qishlog'idagi maktabda o'quv xonalar uchun qishloq masjidiga yondosh joylashgan ayvonli xonalar va ochiq ayvonlar tanlangan. Arxitektura doktori L. Y. Mankovskayaning ma'lum qilishicha, Buxorodagi mahallalardan birining masjidi qoshida qurilgan maktab 2 qavatli bo'lib, uning birinchi qavatida qishda, ikkinchi qavatidagi boloxonada esa yoz faslida dars o'tilgan.

Alohida binoda qurilgan maktablar, odatda, yog'och sinchli, ustunli-to'sinli qurilmalar yordamida yoki pishiq g'ishtdan peshtoqli-gumbazli shakllarda ishlangan. Buxorodagi Chashmayi-Ayyub mahallasida ana




Maktablarning Samarqand shahri markazi atrofidagi guzarlarda joylashishi.
XIX asr.


shunday alohida binoga ega gumbazli katta maktab bo'lib, u tarhda 29×30 metr, o'rtada joylashgan katta gumbazli zali esa $10,5 \times 10,5$ metrga teng bo'lgan. Maktab tarkibida o'qituvchilar xonasi yoki jamoatxona vazifasini bajargan katta zaldan tashqari dahliz, bir necha darsxonalar, ayvonlar va ravoq tomli hujralar bo'lgan. Binoning rejaviy yechimi asimmetrik kompozitsiyada ishlangan. Biroq o'rta asrlarda alohida bino tarzida qurilgan maktablar soni deyarli ko'p bo'lmagan. Arxitektura nomzodi A.A. Ziyayevning ma'lumoti bo'yicha maktablarning asosiy qismi boshqa jamoat (guzar, mahkama, madrasa) yoki ibodat (masjid, xonaqoh) binolari



Toshkent shahri Shig'atoy ko'chasining boshlanishida maktablarning madrasa, masjidlar tarkibida joylashishi. XX asr boshi.



Toshkent sh. Maktablarning mahalla masjidlari tarkibida joylashishi: chapda – Azlar masjidi; o'ngda – Ko'k masjid (A. Ziyayev manbasi bo'yicha).



Buxorodagi Qozi Fayzi guzarining maktabi, tarxi, tarzi va qirqimi.


bilan birgalikda qurilgan. Arxitektura doktori T.A.Hidoyatovning aniqlashicha, bunday maktablarning me'moriy-rejaviy yechimlarida, xonalar soni, tarkibi va ularning funksional bog'lanishida muqim tartiblar kuzatilmaydi. Biroq maktablarni qurishda me'morlar O'rta Osiyoning noqulay issiq va quruq iqlim sharoitini e'tiborga olib, xonalarni baland qilish, deraza yuzalarini kamaytirish va bino tarkibiga yozgi ochiq ayvonlar kiritishga harakat qilganlar.

XVI–XVII asrlarda Balx shahri Shayboniylarning yirik siyosiy markaziga aylanib, shaharda 200 ming aholi istiqomat qilgan va ularga 900 ta maktab to'g'ri kelgan.

Tarixchi olim K. Kattayevning «Samarqand madrasalari va ilmiy rivoji» kitobida ko'rsatilishicha, 1864-1868-yillarda Samarqand shahri mahallalarida madrasalar qatorida bir necha maktablar ham qurilgan. Abulqayrboy, So'fi Roziq, Shohkashon, To'pkandiy, Qozi Abdurasul kabi mahalla maktablari shular jumlasiga kirgan.

1876-yilgacha Turkistonda 300 ga yaqin madrasa, 7 mingga yaqin maktablar faoliyat ko'rsatgan, deb yozadi tarixchi olim Sh. G'afforov. Uning ta'kidlashicha, bu davrlarda ayrim manbalarning qayd qilganidek, Turkiston aholisining 2 foizigina savodli, qolganlari savodsiz bo'lgan degan fikrlar butkul noo'rindir.

J. G'afforov tarix fanlari doktori P.G. Kimning tadqiqotlariga asoslanib, 1897-yildagi Turkiston aholisi, bu o'lkadagi maktablar va ulardagi o'quvchilar soni, ularning aholi umumiy soniga nisbati va aholining savodxonligini o'sha davr Rossiya va Belorussiya aholisining ana shunday ko'rsatgichlariga, bu mamlakatlar aholisining savodxonligi haqida aniq tasavvur beradigan quyidagi jadvalni tuzgan:



Buxorodagi Chashmai-Ayyub mahallasining maktabi, XVI asr.

Mamlakatlar	Aholisining soni	Maktablar soni	O'quvchilar soni	Aholining umumiy soniga nisbati	Aholining savodxonligi
Rossiya	126368800	33401	2318100	1,8%	21%
Belorussiya	6492857	2263	125418	1,9%	24,7%
Turkiston	3792774	6027	64015	1,7%	19,55%

Albatta, bu ma'lumotlarni ham so'nggi dalillar deb qaramaslik kerak, deb yozadi Sh. G'afforov.

Sharq olimlari va mutafakkirlari nafaqat ilm-u fanni o'rganish va rivojlantirish, balki ta'lim-tarbiya tizimi va uslublarini takomillashtirish bobida ham ish olib borganlar. Jumladan, Ibn Sino Sharq olimlari ichida birinchi bo'lib tarbiya uslublarining mukammal tizimini yozib qoldirgan va ularning mohiyatini tushuntirib bergan. Uning bir nechta asarlari shu masalaga bag'ishlangan. Masalan, «Tadbir ul-manzil» risolasining bir bobu yoshlarni qanday qilib ma'lumotli qilish haqidadir. «Tib qonunlari»ning to'rtta bobi bolalar sog'lig'i va jismoniy tarbiyasi muammolariga bag'ishlangan. «Ash-Shifo» asarida ham bolalar tarbiyasiga oid turli usullar to'g'risida maxsus boblar mavjud.

Ibn Sinoning fikricha, bolaga o'z vaqtida xat-savod, eng kerakli hunarlarni o'rgatish va uni san'at asoslari bilan tanishtira borish zarurdir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ayrim ziyoli kishilar xususiy maktablar ochib, ularda daromadli oilalarning farzandlarini o'zlari o'qita boshlaydilar. Bunday ziyolilar «maktabdor» deb atalib, ular bolalarga o'qish va husnixatni o'rgatishdan tashqari og'zaki hisobni ham o'rgatganlar. Maktabdorning savodli xotinlari esa «otinoyi» deb atalib, ular o'z uylarida davlatmand kishilarning qizlarini o'qitganlar.

Bu davrga kelib qizlar ham o'g'il bolalar kabi boshlang'ich maktablarda o'qiy boshlagan. Biroq ular uchun alohida qizlar maktabi belgilangan. Bunday maktabdagi o'quvchilar soni 10–20 ta gacha bo'lgan. Ularga bir muallim dars bergan, katta yoshdagi bolalardan biri guruhl boshlig'i, xalfa esa o'qituvchining yordamchisi vazifasini bajargan.

Maktabning dasturida Qur'oni karim oyatlari, hadislarni yodlash, shariat asoslarini o'rgatish, arab yozuvi bilan tanishish, abjad usulidagi hisobdan xabardor bo'lish (shuning uchun boshlang'ich bosqich talabalari abjadxon deb ham tilga olinadi), odob-ahloq mavzusidagi pandnoma, she'riy asarlarni o'qish va yodlash nazarda tutilgan.

Tarixchi A.Abdurasulovning yozishicha, XX asr boshida (1909-y.) Xiva shahrida jami 1500 ta maktab bo'lib, ularda 45 ming bola tahsil olgan. Xivada qizlar o'g'il bolalar bilan qo'shib o'qitilgan. Bu davrda Farg'ona viloyatida ham anchagina o'quv maskanlari bo'lib, ularning soni 2316 ta maktabni tashkil qilgan. Ulardan 1749 tasi o'g'il bolalarga, 567 tasi esa qiz bolalarga mo'ljallangan. Ularda 24690 ta o'g'il bola va 6559 ta qiz bobla ta'lim olgan. Bu davrdagi ta'lim tizimi O'rta Osiyoda, asosan, uchta yo'nalishda olib borilgan. Birinchisi, eski maktab va madrasalar, ikkinchisi rus-tuzem maktablari, uchinchisi Yangi, usul – jadid maktablari.

O'zbekistonda Chor Rossiyasi hukumronligiga qadar tashkil etilgan turkistonlik ta'lim an'analari asoslangan maktablar «**eski maktablar**» bo'lgan bo'lsa, **rus-tuzem maktabi** (ruscha tuzemes – mahalliy odam) Turkistonda mahalliy aholi bolalari uchun ochilgan boshlang'ich maktablar edi. Bu maktablarni Chor Rossiyasi hukumati mahalliy hukumdorlar bilan yaxshi aloqa bog'lash va savdo-sotiq ishlarini olib borish maqsadida tashkil etgan edi. Rasmiy jihatdan rus-tuzem maktablarining asosiy vazifasi mahalliy xalq bolalariga rus tilini o'rgatib, asosan o'lkalar uchun tarjimon (tilmoch) lar tayyorlash bo'lgan. 1877-yilda Turkistonda 170 ta rus-tuzem maktablari faoliyat ko'rsatib, undan 85 tasi hozirgi O'zbekiston hududida bo'lgan.

Rus-tuzem maktablarida ta'lim muddati asosan 4 yil (1–4-sinflar) bo'lgan. 1905-yildan boshlab ularning ayrimlarida ikkinchi bosqich ta'limi, ya'ni 5–6-sinflar ham tashkil etiladi. Rus-tuzem maktablarida «musulmon» cha va ruscha sinflar tashkil etilgan. Ruscha sinflarga, aslida, rus muallimi, musulmon sinflari o'quvchilariga esa mahalliy, ya'ni musulmon muallimi dars bergan. Ayrim rus-tuzem maktablarida maktablarga ham rus tilini o'rganish maqsadida kechki kurslar ochilgan.

Jadid maktablari esa eski musulmon maktablaridagi ta'lim uslubining ayrim tomonlarini isloh qilishga, musulmonlarga yangicha, yevropa uslubida ta'lim berishga qaratilgan maktablardir. Bu harakat Turkistonda XX asrning boshlarida boshlangan mahalliy xalqning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan o'zgarishlarni,



Jadid maktabi.

mahalliy ziyolilar orasida ma'rifat va yangilikka intilish hissiyotlarining kuchayotganligini o'zida aks ettirgan edi.

Jadid maktablarida diniy darslar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar ham o'qitila boshlanadi. Eski maktablardagi yakka o'qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o'tiladi, sinflarda geografik xaritalar, globuslar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalar paydo bo'ladi, maktabning gigienik sharoitlari yaxshilanadi, sinflarda partalar, doska, darslar orasida tanaffus berish kabi yangiliklar joriy qilinadi. Ta'lim muddati 4 yil bo'lib, 1914–1915-yillardan boshlab ayrim jadid maktablarida 2 bosqichli (boshlang'ich va yuqori sinflardan tuzilgan) ta'lim tizimi joriy etiladi. Bunday namunaviy jadid maktablarida arifmetika va geografiyadan tashqari geometriya (handasa) va fizika (hikmat) dan ham darslar berilgan.

Bu ta'lim tarmoqlarining har biri o'z davrining o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy-g'oyaviy jarayonlari bilan uyg'unlashgan holda faoliyat ko'rsatganlar.

4.2. Madrasalar

Madrasa so'zi arabchada «o'rganmoq» ma'nosini anglatib, u O'rta Osiyoda umumiy va oliy ta'lim muassasasi sifatida VIII asr oxiri va, xususan, Somoniylar davrida shakllangan. Madrasalar bu davrning yirik shaharlari Buxoro va Samarqandda VIII asrning oxiri va IX asrning boshlarida qurila boshlangan. Unga qadar ta'lim ishlari, yuqorida qayd qilinganidek, maktablar va masjidlarining kutubxonalarida hamda maxsus bilim uylarida olib borilgan.

Dastlabki madrasalar, aksari hollarda, masjidlar qoshida shakllangan. Masalan, Samarqandda IX asrning ikkichi yarmida qurilgan Raboti-G'oziyon madrasasi va XII asr o'rtalarida qurilgan Qusamiya madrasalari o'sha davr masjidlari bilan yonma-yon yoki tutash tarzda joylashgan.

Bundan maqsad bir joyning o'zida ham ibodatga, ham ilm olishga imkoniyat yaratishdir. Keyinchalik, masalan, Temuriylar davrida madrasalar masjidlar qoshidagina emas, balki alohida binolar tarzida hamda xonaqohlar bilan birga ham qurilib, yirik ilm maskanlariga aylantirilgan. Ularning ayrimlari tarkibida o'z ibodatxonasi, ya'ni yozgi va qishgi masjidlari bo'lgan. Masalan, Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasi o'z masjidiga ega bo'lgan.

K.Kattayev Movarounnahrda ilk madrasa Buxoroda yonib ketgan Forjak madrasasi emas, balki Samarqandda IX asrning ikkinchi yarmida

andilimi Shayxzoda (Poyqaboq) darvozasi yaqinida qurilgan Raboti (Poyon) madrasasi, deb ko'rsatadi. Hatto, uni nafaqat yurtimiz, balki jahon dunyosining ham ilk madrasasi bo'lishi mumkin deydi.

Madrasalar haqidagi dastlabki ma'lumotlar O'rta Osiyoda IX–X asrlar asharlari bayonida uchraydi. Masalan, Herman Vanberining yozishicha, bu davrda birgina Buxorodagi madrasalar soni butun Sharq mamlakatlaridagi madrasalardan ko'p bo'lgan. Xiva shahri madrasalarining soniga ko'ra Bokorodan keyin ikkinchi o'rinda turgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, XI asrning oxiri XII asrning boshlarida Samarqandda 444 ta madrasa bo'lib, ularning har birida to'rttadan mudarris va ko'pligi olimlar va 1780 ulamolalar talabalarga dunyoviy bilimlar va fikhdan tashqari berishgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida esa Xivada 65 ta madrasa bo'lib, ularning 54 tasi shahar ichida, 11 tasi shahar atrofida joylashgan.

IX–X asrlarda Samarqand ham O'rta Osiyodagi fan va ta'lim markazlaridan biri edi. Bu davrda Samarqandda 17 ta madrasa mavjud bo'lib, ularda islomiy ta'limotdan tashqari dunyoviy fanlar ham o'qitilgan.


K. Kattayev o'zining yuqorida eslatilgan kitobida Samarqand tarixida mavjud madrasayu-maktablar bo'lganligi, ularning aniq joylashgan joylari, ta'lim tizimi va ish yuritish tamoyillari haqida fikr yuritgan.

XI asr boshida bu yerda Samarqand hukmdori Qoraxoniy Timg'och Bog'raxon madrasasi qurilib, u tarhda bo'yiga cho'ziq to'g'ri to'rt-burchakli, ichki hovlilili, hovliga qaragan toqli ayvonlar, kirish peshtoqi va uning ikki yonidagi gumbazli zallar ko'rinishida shakllangan.

Madrasada turli fanlar uchun, xususan Qur'onni ovoz chiqarib o'qish, adab ilmi adabiyotlarini o'rganish, ilm bilan shug'ullanish uchun alohida darsxonalar ajratilgan. Madrasa shtatida 9 ta lavozim belgilanib, talabalar soni 50 dan kam bo'lmaganligi ko'rsatilgan.

Madrasalar tarkibiy jihatdan ichki hovlilili, yozgi va qishgi darsxonalar, hujralar, masjid, ayrim hollarda ustoz mudarrislar uchun ham xonalar bo'lgan.

Ba'zi madrasalar tarkibiga hatto maktablar ham kirgan. Hovlida esa mo'jaz bog'-bo'ston yoki hovuz bo'lishi ko'zda tutilgan. Dastlabki madrasalar bir, keyinchalik kattaroq madrasalar (XIV–XV asrlarda) yirik, ikki qavat qilib qurilgan. Katta madrasalarning burchaklariga minora (guldasta)lar qurish rasm bo'lgan. Ba'zan madrasalarda hujralarning hovli tomoni toqli ayvon (galareyalar) bilan o'ralib, hovli o'rtasiga hovuz ishlangan.



Qoraxoniyy Timg'och Bog'raxon madrasasi. Samarqand, XI asr. Tarhi va peshtoqining g'ishtin naqshi.

XV–XVI asrlarga kelib O'rta Osiyoda qo'sh madrasalar qurish ham paydo bo'ladi. Samarqanddagi Ulug'bek va Sherdor, Buxorodagi Modarixon va Abdullaxon madrasalari qo'sh madrasalardir.

Madrasalarda o'nlab, yuzlab va hatto minglab ilmu-toliblar tahsil olganlar. Masalan, Marvdagi XI–XP asr madrasalarida yuzlab, Buxorodagi XIII asr Masudiya va Xoniya madrasalarining har birida mingtagacha talabalar o'qishgan. Xivadagi Muhammad Aminxon madrasasi (1851-y.) bu yerdagi eng yirik madrasa hisoblanib, unda 260 ta talaba tahsil olgan. Mashhur sayohatchi va geograf Sven Xedenning «Osiyo bo'ylab» nomli kitobida yozilishicha, 1894-yili Qo'qondagi Xudoyorxon madrasasida 86 hujra bo'lib, 200 ta tolibi-ilm tahsil olgan. Madrasalar o'tmishda hukmdor va malikalar hamda ular xizmatida bo'lgan zadagonlar, ma'rifatli insonlar tamonidan qurilgan.

Madrasaga boshlang'ich ta'lim maktabini tugatgan o'spirinlar qabul qilingan. Ular bilim doirasiga qarab, madrasada 12–20 yilgacha tahsil olishgan. Ayrim madrasalarda o'qish muddati 8 yilgacha qisqartirilgan. Jumladan, Samarqanddagi Ulug'bek madrasasining o'qish muddati 8 yil bo'lib, unda talabalar bilimiga qarab past, o'rta va yuqori doiradagi nafaqa (stipendiya)lar bilan ta'minlangan. Talabalarga dars beruvchi mudarrislar va madrasa xizmatchilari ham o'z maoshlariga ega bo'lganlar.

Ushbu xarajatlar va madrasa binosiga qarash chiqimlarini qoplash maqsadida madrasalarni qurdirgan hukmdor va amaldorlar o'zlarining ko'chmas mulklari daromadidan yetarlicha vaqflar belgilashgan. Vaqflarda madrasalarning joylashgan joyi, talabalar, mudarrislar, boshqa xodimlar soni, ularning oylik maoshlari ko'chmas mulklar va ulardan tushadigan daromadlar aniq ko'rsatib qo'yilgan.

XIX asr boshlarida Qo'qon xonligiga bo'ysingan 30000 atrofida aholisi bo'lgan Namangan shahrida 10 taga yaqin madrasa bo'lib, ularda 100 talaba tahsil olgan. 150 ming aholi yashagan Samarqandda esa 40 ta madrasa, 200 ming aholiga ega bo'lgan Buxoroda 30 ta madrasa, 13 ming sonadonli Toshkent shahrining eski qismida o'nlab madrasalar mavjud bo'lgan. 1894-yilda Turkistonda 6445 ta maktab va madrasalar faoliyat ko'rsatgan. Madrasalarni bitirganlar kamida uch tilni: arab, fors tillari va eski o'zbek yozuvini mukammal bilganlar.

«Samarqandda oliy ta'lim – madrasayi-oliya – universitet tarixidan lavhalar» (2001-y.) kitobining muallifi akademik B. Valixo'jayevning yozishicha, madrasalar o'z vazifalariga qarab ikki xil: umumiy va oliy ta'limga mo'ljallangan. Umumiy ta'lim vazifasini bajargan muassasalar «madrasa», oliy ta'limga mo'ljallangan muassasalar esa «madrasayi-oliya» deb atalgan. Bu madrasalar bir-biridan nafaqat katta-kichikligi, me'moriy yechimlarining saviyasi va nufuzi bilan, balki ularda o'qitiladigan fanlar soni, ularning dasturlari, ta'lim yo'nalishi, o'quv jarayoni va tizimining tashkil qilinishi bilan ham farq qilgan.

«Madrasayi-oliya»lar faqat yirik va poytaxt shaharlarda shakllantirilgan bo'lsa, oddiy madrasalar nafaqat shaharlarda, balki tuman va hattoki katta mahallalarda ham qurilgan. Masalan, Mirzo Ulug'bekning Buxoro va G'ijduvonda qurgan ta'lim muassasalari madrasa, Samarqanddagisi esa mavqei jihatidan madrasayi-oliya hisoblangan.

Umumiy ta'lim madrasalarini bitirganlar, asosan, boshlang'ich ta'lim (maktab) muallimlari, masjid imomi, qozixonaxodimi sifatida faoliyat ko'rsatganlar. Madrasalarni iqtidorli bitirganlar o'z ma'lumotlarini madrasayi-oliya (yoki madrasayi dor-ul-ulum)larda davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Ilmi toliblarning ayrimlari maxsus tayyorgarlikdan o'tgandan so'ng qozi askar, qozi o'rda, qozi a'lam, mushrif, mutrik mansablariga tayinlangan.

4.3. Madrasayi-oliyalar

Madrasalarning ta'lim-tarbiya tizimidagi asl mohiyati zamon talablari nuqtayi nazaridan mutaxassislar tayyorlashdan iborat bo'lgan, deb yozadi B. Valixo'jayev. Darhaqiqat, arab mamlakatlarida keyinchalik davr talabiga ko'ra ixtisoslashgan maxsus ta'lim muassasalari shakllanib, ular «madrasatun-harbiya» (harbiy bilim yurti) va «madrasat ul-muallim» (o'qituvchilar instituti) deb yuritilgan. Oliy ta'lim beruvchi madrasalar «madrasayi-oliya» yoki «madrasat-ul-ulum» deb atalgan.

Madrasayi-oliyalar ilmiy jihatdan yuksak darajaga yerishgan allomalarga to'plangan joylarda, jumladan, Bag'dod, Samarqand, Hirot, Xiva, Buxoro va shunga o'xshash shaharlarda faoliyat ko'rsatgan.

Samarqanddagi Bibixonim, Mirzo Ulug'bek, Shaybonixon, Abu Saidxon, Yalangto'sh Bahodir va Amir Haydar kabi hukmdorlar qurdirgan madrasalar «oliy madrasa» (yoki «madrasayi-oliya») deb atalgan. Amir Haydar oliy madrasasi 1813-yili Buxoro hukmdori Amir Haydar tomonidan Samarqand Arki ichida mashhur «Ko'ktosh» turgan mavze yonida qurilgan.

Fransuz muharrirlaridan biri Gustav Labun: «Musulmonlar ta'sis qilgan dor-ul-ulumlar orasida Bag'dod, Qohira, Kurdu, Samarqand va boshqa shaharlarda ilmu hikmatga tegishli rasadxona, kimyoxona, muza(muzey) va namunaxonalar bo'lib, ularda har bir ilm va fanga zarurlik asbob va uskunalar ham bor edi» deb yozadi.

Madrasalardagi darslar o'qitiladigan ilmlar xususiyatiga ko'ra arab, fors va turkiy (o'zbek) tillarida olib borilgan.

Ulug'bekning Samarqanddagi madrasayi-oliyasida tahsil ko'rgan Mahmud ibn Haydar o'zining «Tarixi ilm» kitobi muqaddimasida madrasadagi intizom va talabchanlik haqida shunday bir qiziq dalil keltiradi: «Bir kuni madrasa mudarrisi Ismatullo ibn Mansur talabalarga dars o'tish o'rniga uyida ishlashga, uyining tomini shuvashni buyurdi. Bu haqda Ulug'bek bilib qolib, mudarris shuvatgan toinni buzdirdi va uni madrasadagi ta'lim-tarbiya ishlaridan chetlatdi». Ulug'bek madrasayi-oliyadagi talabalarni uch mavqega: I – «adno» (past, boshlang'ich 2 yil), II – «avsat» (o'rta, keyingi 3 yil), III – «a'lo» (oliy yoki yuqori tugatuv yili, 3 yil) ga bo'lib, shu asnoda ularga maosh belgilagan. Ko'rib turibmizki, Samarqand madrasayi-oliyasining o'quv muddati boshqa madrasalardagi o'quv muddatidan farq qilib, rasmiy 8 yil deb belgilangan.

Ayni paytda, hayotiy sabablarga ko'ra madrasada 8 yildan ko'p o'qigan talabalar ham bo'lgan. Biroq bunday talabalarga rasmiy o'qish muddati tugagach maosh belgilanmagan.

Samarqand madrasayi-oliyasida shug'ullangan mudarrislar «jamo» shubhini ishlab chiqib, unga ko'ra har bir ustoz guruhda faqat 10–15 ta shogird bilan shug'ullanishi shart bo'lgan. Ulug'bekning pedagogik qarorlarini maxsus o'rgangan olim M.Tohirovning fikricha, Samarqand madrasayi-oliyasida qo'llanilgan o'quv rejasining taxminiy ko'rinishi va unda o'rganilgan fanlar quyidagicha shakllangan:

Madrasada o'rganiladigan fanlar	Adno (boshlang'ich kurs)	Avsat (o'rtanchi kurs)
Arab tili	–	+
Qur'on	+	–
Ilmi bayon (notiqlik)	+	+
Hadis	+	+
Mantiq	–	+
Tafsir	–	+
Fikh	+	+
Tabiatshunoslik	–	+
Handasa	–	+
Riyoziyot	+	+
Falakiyot	–	+
Tib	+	+
Jug'rofiya	–	+
Tarix	+	+
Adabiyot	–	+

Fikrimizcha, madrasada ushbu asosiy fanlardan tashqari yana ayrim qo'shimcha va maxsus fanlar ham o'tilgan bo'lishi mumkin.

Tarixchi olim K. Kattayev o'zining Samarqand madrasalari haqidagi kitobida Markaziy Osiyo olimlari mashg'ul bo'lgan fan turlari qatoriga 73 ta ilmni kiritgan: **ilmi obdon**–inson badani haqidagi ilm (qadimda boshlang'ich tib ilmi ham shunday atalgan); **ilmi adab** – filologiya (u 12 ta alohida ilmlar majmuasidan tuzilgan); **ilmi adad** – hisob ilmi; **ilmi advor** – musiqa ilmi; **ilmi aruz** – she'riyat vazni nazariyasi va




qoidalariga doir ilm; **ilmi axloq** – inson tarbiyasi va estetikasi; **ilmi aqliy** – tabiiy ilmlardan tashkil topgan; **ilmi bade'** – she'r san'ati va badiiy san'atlar ilmi; **ilmi bayon**; **ilmi barin** – metafizika ilmi; **ilmi bahs** – dialektika va mantiq turi; **ilmi bunya** (yoki binya) – fiziologiya; **ilmi insho'** – insho yozish, ijod etish ilmi; **ilmi ijtimio** – sotsiologiya; **ilmi kalam** – e'tiqod va ilohiyotshunoslik; teologiya ilmi; **ilmi kimyo** – kimyo ilmi; **ilmi qofiya** – arab grammatikasi; **ilmi lison** – tilshunoslik; **ilmi lug'at** – lug'atshunoslik; **ilmi manozir** – optika; **ilmi mantiq** – logika; **ilmi maodin** – minerologiya; **ilmi maso'xat** – geodeziya; **ilmi musallasot** – trigonometriya; **ilmi nabotot** – botanika; **ilmi nafs** – psixologiya; **ilmi nujum** – astronomiya; **ilmi rasad** – rasadxona qurish, sekstant yasash va jadvallarga doir ilm; **ilmi rasmulxat** – kalligrafiya; **ilmi riyoz** – matematika; **ilmi sarf** – morfologiya; **ilmi siyoq** – qadimiy hisob ilmi; **ilmi tarix**, **ilmi tib**, **ilmi fikx va usul** – islom dini va shariat qonunlariga doir ilm; **ilmi hadis**, **ilmi hay'at** – kosmografiya, **ilmi hayvonot**, **ilmi handasa** – geometriya, **ilmi hikmat** – falsafa ilmi va fizika ilmi; **ilmi xol** – tasavvuf, **ilmi jabru muqobala** – algebra; **ilmi jadri asqol** – mexanika va hokazolar.

— O'rta asr olimlaridan biri mashhur faylasuf va astronom Nasiriddin Tusiy (1201–1274) o'sha davr madrasalarida o'tiladigan nazariy bilimlarni uch yo'nalishga bo'lib, ularning birinchisi ilohiy ilmlar, ikkinchisi riyoziy ilm (matematika) va uchinchisi tabiiy ilmlar bo'lganligini eslatadi. Ulug'bekning Samarqand madrasasi Buxorodagi madrasasidan keyin (1417–1420) qurilgan bo'lib, tashqi va ichki ko'rinishi, muhandislik yechimlarining o'ziga xosligi bilan temuriylar davrida qurilgan ko'pgina madrasalardan farq qiladi. Ayniqsa, bosh peshtoqining tarzi va me'moriy tuzilishi g'oyat salobatli va mahobatlidir.


Madrasaga kiraverishdagi peshtoq qanoslarining yuzlarida to'la osmon tasviri ifodalangan. Atoqli olim akademik Toshmuhammad Qori-Niyoziy bu holni «madrasada o'qitilgan fanlar ichida falakiyotga alohida ahamiyat va faxrli o'rin berilganligidan», deb tushuntiradi. Madrasa tarhi to'g'ri to'rtburchak shaklida (81×56 metr) bo'lib, 30×30 metr hovliga ega, tashqi burchaklarida baland minoralar joylashgan. Madrasa o'z vaqtida 2 qavatli bo'lib, to'rt burchagida baland gumbazli qishki darsxonalar, har ikki yonida hovliga qaragan qator hujralar joylashgan. Ularning soni 55 ta. Madrasaning kunbotar qismida qishki masjid mavjud. Ushbu madrasayi oliyada kutubxona ham mavjud bo'lgan. Hovlining to'rt

Uyda bir-biriga muqobil to'rtta baland ayvon va supalar joylashgan. Havliga yon tomondan ham kirish mumkin. Ayvonlar hovliga salobat beribgina qolmay, yoz kunlari darsxona vazifasini ham bajargan. Madrasa devorlarining naqshlari asosan, moviy, lojuvard va oq ranglarda ishlangan. Ular ham husnidagi girihlardan iborat bo'lib, koshin (yuzasi sir berib pishirilgan rangdor g'isht) lar bilan terilgan. Madrasa bosh peshtoqidagi bozoklar ham koshinkoriy ishlangan.


Ulug'bekning Buxoro va G'ijduvondagi madrasalari ham Samarqand madrasasidek to'rtburchak tarhga va chors hovliga ega. Ular hajmiy tuzilishi va tarhining o'lchovlari jihatidan Samarqand madrasasiga nisbatan kichik




Ulug'bekning Samarqanddagi madrasayi-oliyasi. 1417–1420-yy.



a)



b)



d)

Ulug'bekning Buxoro. 1417-y. (a, b) va G'ijdivondagi. 1433-y. (d) madrasalari.

bo'lsada, me'moriy jihatdan ancha mukammal ishlangan. Hovlilar ikki muqobil ayvonli, Buxoro madrasasi ikki qavatli hujralar bilan, G'ijdivon madrasasi esa bir qavatli qilib qurilgan. Madrasalarda darsxonalar, masjid, kutubxonalar, hujralar, ayvonlar, minoralar bor. Madrasalar hovlisi berk, lekin o'ziga xos jozibador qilib bezatilgan. Madrasa tarzlari serhasham, puxta va teran ohanglilikda go'zal va mahobatli qilib ishlangan.

Madrasalarning yaxshi ishlab turishi uchun Ulug'bek durustgina vaqf belgilagan edi. Jumladan, u birgina Samarqand madrasasi uchun yiliga

uning tangadan ziyod pul belgilagandi. Talabalarning toza, sog'lom yurishi uchun madrasayi-oliya yonida hammom va sartaroshxona ham tashkil etilgandi.


Talabalar maosh (stipendiya) va kiyimlar bilan ta'minlanib turilgan. Ular boshqa madrasalar talabalaridan farqli o'laroq haftada besh kun o'qishgan. Talabalarning davomati va o'zlashtirishi maxsus daftarlarda qayd qilinib, nazorat etilardi. Sababsiz dars qoldirgan talabalar nafaqadan mahrum edilar. Madrasayi-oliyada 100 dan ziyod talaba ta'lim olar edi.

Ulug'bekning madrasayi-oliyasi asrlar davomida musulmon Sharqida dong taratgan oliy bilim maskani bo'lib keldi. Madrasa binosi ta'lim-tarbiya, ma'rifat va ilm maqsadlarini ko'zlab bunyod etilganligi uchun uni yaratgan me'morlar talabalarga bilim va tarbiya berish masalasini yaxlit va uyg'un hal qilishgandi: ta'limot va ilm markazi go'zal san'at asari tarzida go'yat maftunkor, jozibador me'moriy maskan-ansambl ko'rinishida yaratildi. Oddiy va rangli sirlangan g'ishtlar, koshin va parchinlar, o'yma marmarlar omixta bo'lib, ana shu yagona go'yani ifodalagan edi.

Ma'lumki, Temuriylar davrida Hirotda ham ta'lim-tarbiya va madrasasozlik bobida katta ishlar qilingan edi. Jumladan, birgina Alisher Navoiyning o'zi Injil kanali bo'yida hashamatli «Ixlosiya» madrasayi-oliyasi va uning qarshisida go'yat go'zal va ko'rkam «Xalosiya» xonaqoxini soldiradi. Navoiy o'zining «Vaqfiya» asarida bu haqda shunday yozadi: «Ixlosiya» madrasasi muqobilasidakim, ... xonaqoh bino qilindi». Ko'rinib turibdiki, har ikkala bino yordamida Injil suvi bo'yida tartib va zukkolik bilan bir me'moriy majmua-ansambl bunyod etilgan.

Navoiy bunyod etgan ushbu me'moriy ansambl tashkil etilishiga ko'ra O'rta Osiyo shaharsozlik nazariyasida «qo'sh uslub» nomi bilan mashhur. Samarqanddagi Registon maydonida olamga mashhur Ulug'bek va Sherdor madrasalari hamda Tillakori masjid-madrasasi «maydon uslubi»dagi ansambl ko'rinishida bunyod etilgan. Bu uslublarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ansambl tarkibidagi binolarning bosh peshtoqi bir-birlarining ro'parasida joylashmog'i kerak. Ular orasidagi masofa ushbu binolar bosh tarzlari enining yig'indisi yarmidan kam bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Binolar orasida maydon joylashgan yoki ko'cha o'tgan bo'lishi mumkin.

Binolarni «qo'sh» yoki «maydon uslubi»dagi majmua tarzida bunyod etishdan asosiy maqsad binolar orasidagi gavjum maydon yoki ko'chada kun davomida soya-salqin tashkil etishdir. Bu uslub yordamida Injil kanali



Samarqand Registonidagi maydon uslubidagi ansambl, XV va XVII aa.

bo'yida tashkil etilgan muhtasham me'moriy muhitda ham xushhavo mo'jaz iqlim yaratilgan ediki, bu shaharsozlik merosi bobida e'tiborga loyiqdir.

Navoiy o'zining «Ixlosiya» madrasayi-oliyasini qurdirar ekan, madrasani muqaddas dargoh, mudarris, muallimni esa boshqalarga ibrat ko'rsatuvchi, namuna bo'luvchi inson sifatida ko'radi. U o'zining «Maxbub ul-qulub» («Qalblar sevgisi») asarida madrasa mudarrislariga yuksak talablar qo'yadi: «Mudarris din ilmidan aniq masalalarni bilmog'i, ko'pchilikka dunyoviy bilimlardan ta'lim bermog'i, yaramaslikdan hazar qilmog'i va nopok odamlardan yiroq bo'lmog'i, o'zini olim va bilimdon deb ko'rsatmasligi, turli-tuman axloqqa xilof ishlarni «qilsa ham bo'ladi» deb halolni xaromga chiqarmasligi, joiz bo'lmagan ishlar

bilan mashg'ul bo'lib odamlarni yomon otliqqa o'rgatmasligi, qilish kerak bo'lgan ishlarni qilmaslikni ham odamlar undan o'rganmasligi kerak». Durhaqiqat, o'tmishdagi madrasayi-oliyalar ta'lim va tarbiya uyg'unligiga asoslangan holda talabaga madaniyatni, odob-axloq va mehr-shavqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni singdiruvchi ma'rifat maskanlari sifatida ham mashhur bo'lgan. Xondamirning yozishicha, faqatgina Ixlosiya madrasasi va Xalosiya xonaqohi dargohida 20 yil davomida minglab talabalar ilm-ma'rifatdan bahramand bo'lgan.

Navoiy o'zining «Vaqfiya» asarida madrasa va xonaqohga bosh qilib «ikki olimu pokiza mudarrislar» tayin etganligi haqida yozadi: Navoiy iltifotiga muyassar bo'lgan ulamolardan biri o'z davrining iqtidorli olimi Amir Atoullox Mashxadiy ediki, Navoiy uni 1486-yili o'zining Ixlosiya madrasayi-oliyasiga mudarris qilib tayin etgan edi. Navoiy ushbu madrasadagi dars olib borilish tartibini ko'rsatib, «har haqiqi darsda o'n bir tolibi ilmkim, borisi yigirma ikki bo'lg'ay», deb guruhdagi talabalar sonini aniq belgilaydi. Talabalarga nafaqa ularning madrasadagi o'zlashtirish va ilm olishdagi muvaffaqiyatlarini hisobga olib belgilanadi. Navoiy talabalarni Ulug'bek kabi uch toifaga bo'ladi. Birinchi toifaga a'loqa o'zlashtirganlar kirib, ularga har oyda 24 oltin naqd pul va yiliga 5 yuk bug'doy, o'rtacha o'qiydigan talabalarga 16 oltin, 4 yuk bug'doy, past o'zlashtiruvchi talabalarga esa 12 oltin va 3 oshlik belgilangan.

Navoiy madrasayi-oliyasidagi o'quv va xizmat intizomiga nihoyatda katta e'tibor berib, quyidagi aniq talablarni qo'yadi:

«Yana shart shulkim, madrasa mavolisi madrasada baytutat qilgaylarkim, agar o'zga yerda sokin bo'lib, dars chog'i hozir bo'lmasalar, muqarrar qilg'on vazifaning nisfin olgaylar va bu madrasa va xonaqohning mudarrisidan yo talaba va mutavalli va shayx va xuffoz va boshqa amalisidin nomashru' amre sodir bo'lsa, ikki qatlagacha shar'an har mulohazaga mustavjib bo'lsalar, anga ko'ra, ta'zir va extisob qilsunlar. Uch qatla vujud tutqondin so'ngra ixroj qilsunlar, dagi o'rniga yana kishi nasb qilsunlar».

Ko'rinib turibdiki, madrasada davomat muntazam tekshirib turilgan, agar talabalar darslarga qatnashmay o'zga joylarda yursalar, o'zlariga belgilanadigan maoshlaridan kam nisbatda olganlar. Talaba yoki mudarris, ish yurituvchi, shayx, qori yoki amaldagi boshqa shaxslar qoidaga xilof ish qilsalar, ikki martagacha shariatga munosib jazo berish, agar bu hol uch marta takrorlansa, hatto madrasadan chetlatib, o'rniga boshqa kishi tayin etish ham ko'rsatilgan.

Navoiy madrasalardagi talabalar, mudarrislar, ilm-fan ahillari, mu-savvirlar, o'sha davr hattotlari talab ehtiyojlarini e'tiborga olib Hirotda sifatli qog'oz ishlab chiqaradigan durustgina bir korxonaga yoki Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, qog'oz «juvozi» ham tashkil qilgan edi.

«Madrasayi-oliya bajaradigan vazifa zamon va davr taqozosi-ehtiyojiga ham bog'liq bo'lgan. Shu tufayli ularning tarixida rivojlanish-ko'tarilish jarayoni ham, ma'lum sabablarga ko'ra sokinlik holati ham yoki an'anaviy usulda faoliyat ko'rsatish jarayoni ham kuzatiladi. Har holda shunisi muhimki, mamlakatimiz hududidagi oliy ta'lim tizimi tarixi qadim-qadimlarga borib taqalib, uning oliy dargohi-madrasayi-oliyalar o'z zamonasida hozirgi universitet mavqeiga ega bo'lgan. Shuning uchun hozirgi universitetlarning paydo bo'lish, ta'asis etilish tarixini ana shu mashhur madrasayi-oliyalar bilan bog'lash mantiqan va tarixan maqsadga muvofiq bo'lib, istiqloq davrida tarixni xolisona yoritish, tiklashning ajoyib namunasi bo'ladi», deb yozadi akademik B.Valixojayev.

Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi madrasayi-oliyasi keyinchalik zamon va davrlar taqozosiga ko'ra bir maromda bo'lmasada, XX asr boshlarigacha o'z faoliyatini davom ettirdi. Shundan so'ng Samarqandda avval pedakademiya vujudga kelib, keyinchalik u universitetga aylantirildi va hozirda ushbu universitet Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti deb yuritiladi.


O'tmishda qurilgan madrasa va madrasayi-oliyalar hajm-rejaviy yechimlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ularning me'moriy yechimlarida, asosan, bir yoki ikki hovliliga ko'p ayvonli kompozitsiyalar, markaziy bo'ylama o'qqa nisbatan simmetrik joylashgan me'moriy shakllar qo'llanilgan. Buning sababi ichki hovliliga binolar O'rta Osiyoning issiq va quruq iqlimi sharoitida hovlisiz binolarga ko'ra har tomonlama qulay iqlimiy-ekologik va funksional imkoniyatlarga ega bo'lganlar. Ichki hovlida o'ziga xos mo'jaz bog', gulzor, soyabon ayvonlar va atrof muhitdan holi shinam va salqin me'moriy muhit yaratish qulayliklari mavjud bo'lgan. Shu bois ham madrasalar qurilishida aksari hollarda ichki hovliliga rejaviy kompozitsiya tanlangan.

Madrasalarning kirish qismi, ya'ni ostonosiga va hovli to'rida joylashgan ayvon shakliga alohida e'tibor berilgan, ular masjidning peshtog'i kabi mahobatli va baland peshtoq tarzida ishlangan. Bosh peshtoqning ikki yonidagi gumbazli zallarda, odatda, qishgi masjid va darsxona joylashgan. Madrasa bosh tarzining burchaklari minoralar yoki chiroyli guldastalar bilan bezatilgan. Buxorodagi Ko'kaldosh,


Abdulazizxon, Mir Arab, Qo'qondagi Norbo'tabiy, Xivadagi Muhammad-Rahimxon, Toshkentdagi Ko'kaldosh ana shunday madrasalardir.

Ayrim yirik madrasalarning kirish qismi o'ziga xos ishlanib, hovliga to'g'ridan to'g'ri kirilmasdan, peshtoq ayvonidan o'tib, yon tomondagi firsaksimon dalon orqali kirilgan. Buning sababi hovlida sof holi muhit yaratish bo'lib, bunda peshtoq eshigining o'rni, odatda, chiroyli panjara yoki devor bilan to'silgan.


Samarqand Registonidagi Ulug'bek, Sherdor va Tillakori, Buxorodagi Mir Arab madrasalari bunga misoldir. Ulardan birinchi ikkitasi va



a)



b)



d)

Toshkent, Buxoro va Xiva madrasalari: a) Toshkentdagi Ko'kaldosh, b) Buxorodagi Kalobod, d) Xivadagi Muhammad Rahimxon madrasalari.

Mir Arab madrasasi ichki hovlilari, peshtoqli va to'rt ayvonlik tarzda ishlanib, madrasa hovlisiga to'g'ridan to'g'ri emas balki peshtoqning o'ng tomonidagi dalon orqali kiriladi.

O'rta Osiyoning hovlili madrasalari va masjidlariga xos yana bir xususiyat shuki, kirish peshtoqining orqa tomonida hovliga qaratib yana bir peshtoq ishlangan. Buning sababi hovlining bo'ylama bosh o'qi bo'ylab bir-biriga muqobil joylashgan 2 peshtoq yoki bo'ylama va ko'ndalang o'qlarda bir-biriga muqobil 4 peshtoqli me'moriy kompozitsiyani yaratishdir.


Peshtoqlar mahobatli, munaqqash, baland va keng ravoqli yozgi ayvon tarzida ishlanib, hovli ko'rinishlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu ayvonlardan to'rdagisi yozgi masjid, qolganlari esa yozgi darsxonalar vazifasini bajargan.

O'rta Osiyoda Amir Temur va Temuriylar davriga kelib madrasasozlikda yangi me'moriy qurilish uslubi, ya'ni madrasani xonaqoh bilan birga yaxlit me'moriy turkum-ansambl tarzida qurish uslubi qo'llaniladi. Shunday tartibda ilk bor Samarqandda XV asr boshida Muhammad Sulton madrasasi va xonaqosi quriladi.

Madrasa va xonaqoh binolari yaxlit hovli atrofida bosh peshtoqlari bilan bir-biriga muqobil tarzda joylashtirilgan. Madrasa va xonaqohni bunday me'moriy majmua tarzida qurishdan maqsad madrasani sof ta'lim-tarbiya ishlari va talabalarga mo'ljallash, xonaqohni esa mudarrisarga, ularning o'z ilmi-toliblari bilan yerkin uchrashuvlari va ilmiy-falsafiy suhbatlar o'tkazishlariga imkon yaratish edi. Xuddi shu maqsadni ko'zlagan Ulug'bek ham Registonda bu uslubni takomillashtirib, o'zi yaratgan me'moriy turkumga madrasa va xonaqohdan tashqari alohida karvon-saroy, masjid



Samarqand. Muhammad Sulton madrasasi va xonaqosi.



Ulug'bek karvon-saroyi o'rniga qurilgan Tillakori masjid-madrasasi. XVII asr.

va hammom binolarini ham kiritadi. Ma'lumotlarga ko'ra karvon-saroy va hammom madrasa va xonaqohga vaqf tarzida berkitilgan. Bu binolardan faqat madrasagina bizgacha saqlangan. Xonaqoh o'rniga XVII asrda Sherdor, karvon-saroy o'rniga esa Tillakori masjid-madrasasi bino etilgan.

Madrasalarni qurishda mahalliy iqlim sharoitlari e'tiborga olinib, yozgi va qishgi darsxonalar ishlangan. Yozgi darsxonalar keng va baland ravoqli ochiq ayvon tarzida, qishgilari esa yopiq zal ko'rinishida bo'lib, binoning burchaklarida joylashgan. Hujralar cho'zinchoq, to'g'ri to'rtburchakli, bir yoki ikki (pastki va yuqori) bo'limli, eni bilan hovliga qaratib qurilgan. Hujralarning pastki bo'limida qaznoq, mutolaa va suhbat o'rne bo'lib, yuqorigi bo'limda yotoqxonalar joylashgan. Ayrim madrasalar hujralarining to'rida mo'jazgina omborcha ham bo'lib, u tashqi devor yonida ishlangan. Samarqanddagi Ulug'bek, Xivadagi Muhammad Rahimxon madrasalari hujralarining ana shunday omborchalari mavjud. Hujralar odatda 2 talabaga yoki oilasiz bir mudarrisga mo'ljallangan.

Xullas, O'rta Osiyo madrasalari va madrasayi-oliyalariga xos me'moriy-rejaviy xususiyatlarni umumlashgan holda quyidagicha belgilash mumkin:

1. Hovlilarning soni bo'yicha: bir hovlili, 2 va 4 ayvonli turli rejaviy shakllarda; ikki hovlili frontal-simmetrik yoki asimmetrik hamda bo'yiga cho'zinchoq rejaviy shakllarda (Xivadagi Xurjun, Abdurasulboy, Buxorodagi Xurjin madrasalari);

2. Hujralarning hovliga nisbatan joylashishi bo'yicha: hovliga qaratilgan va tashqariga qaratilgan hujralar;

3. Madrasa binolarining shahar tizimidagi qurilish uslubi bo'yicha:

– ikki madrasani yoki bir madrasa va xonaqohni bir joyda boshqarish tarzlarini bilan bir-biriga muqobil uslubda qurish («qo'sh» ansambli);

– madrasani boshqa jamoat binolari bilan birga yaxlit maydon atrofida me'moriy majmua tarzida qurish (Samarqand Registonidagi Ulug'bek madrasayi-oliyasi, xonaqosi va karvon-saroyi, Muhammad Sulton madrasasi va xonaqosi, Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalari, Buxorodagi Ulug'bek va Abdulazizxon hamda Qo'sh madrasalar, Hirotdagi Alisher Navoiy madrasayi-oliyasi va xonaqosi va boshqalar).



a)



b)

Buxorodagi Mirarab (*a*) va Nodirdevonbegi (*b*) madrasalari. XVII asr.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, madrasalar O'rta Osiyo xalqi tarixida nafaqat umumiy va oliy ta'lim muassasalari vazifasini, balki shahar me'moriy qiyofasi va muhitini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etib, ayrim hollarda hatto shaharlar ko'rki va nufuzini ham belgilab bergan.

Yuqorida sanab o'tilgan ta'lim-tarbiya maskanlari adabiyotlarida ko'proq dunyoviy ilmlar ta'limining muassasalari tarzida talqin etilgan. Biroq O'rta Osiyo xalqlari hayotida o'tmishda diniy-axloqiy va tasavvufchilik ilmlari ham keng tarqalgan ediki, bular haqida faqat Respublikamizning istiqloq yillaridagina yozila boshlandi. Ana shu xolislik nuqtayi nazaridan biz O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy madaniy hayotida muhim rol o'ynagan va o'tmishda tasavvufchilik hamda adab ilmi maskanlari tarzida faoliyat ko'rsatgan xonaqohlar va qorixonalar haqida ham gapirishni ma'qul ko'rdik.

V b o b. O'RTA OSIYO ARXITEKTURASI TARIXIDA ILM-FAN MASKANLARI

IX–X asrlarda Sharq olimlar uchun misoli jannatga aylanadi. Islom dunyosining markaziy va yirik shaharlarida ilm-u fan, qomusiy bilimlar, kitoblar, ilmiy-tadqiqot va munajjimlik qurilmalari hamda ulamolarni o'zida mujassam etgan maxsus ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy muassasalar rivojlanadi. Akademiyalar, bilim uylari, donishmandlar uyi, dorulfununlar, kutubxonalar, rasadxonalar va nigoristonlar shular jumlasidandir.

5.1. Akademiyalar

«Akademiya» qadimgi yunoncha so'z bo'lib, u yunonlarning afsonaviy qahramoni «Akadema» nomidan olingan. Qadimgi yunon faylasufi va matematigi Aflotun (eramizdan oldingi 429–348-yillarda yashagan) Afina shahri yaqinida o'z shogirdlari bilan hamkorlikda ilmiy ishlar olib borishga mo'ljallangan maxsus ilmiy muassasa – akademiya tashkil etadi va uning peshtoqiga «Bu yerga geometriyani bilmaganlar kirmasin» deb yozib qo'yadi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Eronning Xuziston viloyatidagi Gundishapur shahrida VI asrda akademiya ochilib, uning tarkibida fanning boshqa bo'limlaridan tashqari alohida shifoxona, dorixona, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan bog' ham bo'lgan. Akademiya shifoxonasida nafaqat bemorlarni davolash va bo'lg'usi tabiblarni tayyorlash, balki ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Gundishapur akademiyasi 300 yildan ziyodroq faoliyat ko'rsatib, o'z faoliyatini Eronga arablar yurishidan keyin tugatgan.

Islom mamlakatlaridagi ilk akademiya Bag'dodda xalifa al-Ma'mun (813–833) asos soladi.

830-yili Bag'dodda tarjimon va olimlardan iborat «Xizonat al hikmat» (Hikmat xazinasi) degan ilmiy uyushma tuziladi. Uyushma a'zolari Qadimgi Yunon va Sharq xalqlari yaratgan asarlarini yig'ish,

o'rganish va ularni arab tiliga tarjima qilish hamda tabiiy fanlar bo'yida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanadi. Ana shu uyushma olimlarning salohiyati asosida Bag'dod akademiyasiga asos solinadi.

U arabchada «Bayt ul-hikma», ya'ni «Donishmandlar uyi» deb atalgan. Bu akademiyaga o'z davrining yirik olimlari to'planib, ular orasida o'rta osiyolik olimlardan Muhammad al-Xorazmiy (783–850), Ahmad al-Marvaziy (IX asr), Yah'yo ibn Abu Mansur (IX asr), Say'id al-Javhariy (IX asr), Ahmad al-Farg'oniylar (IX asr) arablar va boshqa yurt olimlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatgan. Akademiya bir nechta qismlardan olimlar istiqomat qiladigan va ishlaydigan bo'limlardan, kutubxona va rasadxonalardan tarkib topadi. Akademiyaning ikkita rasadxonasi bo'lib, ulardan biri 828-yilda Bag'dodning Shammossiya mahallasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Qasyun tog'ida 821-yilda barpo qilinadi.

Dastlab, Bag'dod rasadxonasini tashkil qilish va boshqarishga marvlik Yah'yo ibn Abu Mansur, keyinchalik esa Muhammad Muso al-Xorazmiy rahbarlik qilgan. Rasadxonalarda kuzatish va tekshirish uchun yangi astronomik asboblari – murakkablashgan usturlob, o'ying tutilish diski kabilar yaratilgan. Al-Xorazmiy boshchiligidagi olimlar bu asboblari yordamida yer meridianining bir darajasi uzunligini, ekliptikaning ekvatorga og'ishini, fazoviy yoritqichlarda bo'ladigan turli hodisalar (quyosh va oy tutilishlari)ni, ularning harakatlari va sferik koordinatlarini aniqlaganlar. Ana shu ilmiy izlanishlar natijasida al-Xorazmiyning falakiyot va trigonometriya jadvallariga doir «Xorazmiy ziji» va «Astrolyabiya bilan ishlash haqidagi kitob» kabi risolalari bitilgan.

Ma'mun akademiyasida turli maqsadlarga yo'naltirilgan ilmiy ekspeditsiyalar ham tashkil qilingan. Chunonchi, 830 yilda al-Xorazmiy boshchiligida 3 ta ilmiy ekspeditsiya G'arbiy Hindistonga (Hozirgi sharqiy Afg'oniston), Vizantiyaga, Volganing quyi oqimiga uyushtirilgan. Xorazmiy o'zining birinchi ekspeditsiyasida butun dunyoda «Arab raqamlari» deb atalgan Hind raqami va hisoblashning o'nlik tizimi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishgan va keyinchalik buni ilmiy tahlil qilgan holda o'zining arifmetikaga doir «Hind arifmetikasi hisobi bo'yicha qo'shuv va ayiruv kitobi»da aks ettirgan.

Bag'doddagi Ma'mun akademiyasida nafaqat ilmiy izlanishlar, balki yangi ilmiy xodimlarni tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor berilgan. Masalan, Ibn al-Kiftining xabar berishicha, xalifa al-Ma'mun o'zining safdoshi va sobiq do'sti Muso ibn Shokir vafot etgach, uning o'g'illari

Abu al-ʿAla Muhammad, Ahmad, Hasanlarni «Baytul hikmat» qoshidagi maktabga oʻqishga berib, Yahʼyo ibn Abu Mansur va Muso al-Xorazmiyga ularning taʼlim-tarbiyasini topshirgan. Keyinchalik Musoning oʻgʻillari matematika va falakiyot fanlari sohasida katta yutuqlarga yerishib, mashhur olim boʻlib yetishganlar.

Maʼmun akademiyasi qariyb 200 yil faoliyat koʻrsatadi. Akademiya kadrlari jahon fani xazinasiga, ayniqsa, Sharq va Gʻarbda fanning turli sohalarini rivojlanishiga katta hissa qoʻshadi.

Misr hukmdorlaridan biri 988-yilda Qohira shahridagi Al-Azhar masjidida yonidagi uy-joylar asosida akademiya tashkil etib, unga 30 ta taniqli olimlarni ishga taklif etadi.

XI asr boshlarida Gurgench (Urgench)da xorazmshoh Ali ibn Maʼmun (997–99) va uning ukasi Abu Abbas Maʼmun (999–1017) hukmronlik qilgan davrda Xorazmda olamga mashhur boʻlgan ilm maskani – «Majlisi ulamo» («Maʼmun akademiyasi») tashkil etilib, unda 30 dan ziyod oʻz davrining taniqli olimlari turli fan sohalarini boʻyicha faoliyat koʻrsatadi. Ular orasida dunyoga mashhur olimlar Abu Rayhon Beruniy (973–1048) va Abu Ali ibn Sinolar (980–1037) yetakchi oʻrinni egallashadi.

Beruniy Maʼmun akademiyasida va keyinchalik Gʻaznada olib borgan ilmiy faoliyati jarayonida fanning deyarli barcha yoʻnalishlari boʻyicha 150 dan ortiq asarlar yaratgan qomusiy olimdir.

Ibn Sino «Majlisi ulamo»dagi yirik olimlar davrasida boʻlib, oʻsha zamonning mashhur tib olimlari bilan hamkorlikda ish olib boradi va oʻzining jahonga mashhur 5 kitobdan iborat «Tib qonunlari kitobi» («Kitob al-qonun fi-t-tib») asarini yaratadi.

Ibn Sino nafaqat qomusiy olim va mutafakkir, ayni zamonda u isteʼdodli shoir, adib va tarbiyashunos boʻlgan.

Ulardan tashqari atoqli astronom va matematik al-Xoʻjandiy, mashhur tabib va faylasuf jurjonlik Abu Saxl al-Masxiy, atoqli tabib va tarjimon Abul Xayr Xammar, taniqli adabiyotchi va shoir Abu Mansur as-Saʼolibiy va boshqalar ushbu akademiyada ijod qilganlar.


Beruniy ushbu akademiyaning «prezidenti» vazifasini bajargan. Akademiyaning barcha olimlari hukumat tomonidan maosh bilan taʼminlanib turilgan.

Yaqin, Oʻrta Sharq va Oʻrta Osiyoda ilmiy ishlarni akademiyalar shaklida tashkil etish anʼanaga aylanib, bu jarayon ushbu oʻlkalarda keyingi asrlarda ham davom ettiriladi. XV asrda Samarqandda Mirzo Ulugʻbek

boshchiligida navbatdagi akademiya tashkil topadi. Fan tarixiga «Ulugʻbek akademiyasi» va «Ulugʻbekning Samarqand astronomik maktabi» nomlari bilan kirgan ushbu ilmiy markaz yaxshi jihozlangan rasadxona, undagi boy kutubxona, oʻz davrining oliy oʻquv yurti – madrasayi-oliya, mudarrislar uchun maxsus xonaqohdan tashkil topgan edi.

Ulugʻbek akademiyasi va uning madrasayi-oliyasida faoliyat koʻrsatganlar qatorida Mirzo Ulugʻbekdan tashqari zamonasining yetuk olimlari: Mavlono Ahmad, Qozizoda Rumi, Gʻiyosiddin Jamshid Koshiy, Muhammad Havofiy, Ali Qushchi, Muyiniddin Koshiy, Mansur Koshiy, Abdullo Birjondiy, Qozizoda Rumiyning nabirasi Mirim Chalabiy, Muhammad Olim Samarqandiylar bor edi. Akademik Qori Niyoziyning yozishicha, oʻsha davrda Samarqandda Ulugʻbek boshchiligidagi olimlar safi ancha keng boʻlib, ularning soni 140 taga yetgan. Boʻriboy Ahmedov va Ashraf Ahmedovlar ham Ulugʻbek akademiyasiga mansub olimlar sonini 100 dan ziyod boʻlgan deb hisoblaydilar.

Akademiyada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida dunyoga mashhur asar «Ziji Koʻragoniy» («Ulugʻbek yulduzlar jadvali») yaratiladi, qator matematik risolalar bitiladi, koʻplab ilm ahllari – shogirdlar tayyorlanadi. Ulugʻbek akademiyasiga qarashli ilmiy markaz imoratlaridan bizgacha madrasa binosi va rasadxona qoldiqlari yetib kelgan xolos.



Ulugʻbek akademiyasining olimlari.

XV asrda «Sharq Rafaeli» deb nom olgan mashhur rassom Kamoliddin Behzod (1445–1537) yetakchiligida temuriylar saltanatining ikkinchi poytaxti Hirotda ulkan ilm va sanʼat akademiyasi – «Nigoriston» shakllanadi. Uning vujudga kelishi va rivojlanishida Boysunqir Mirzo, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiylarning roli kattadir.

Navoiy davrida bu akademiya Sharqning jahon miqyosidagi yetakchi madaniyat va sanʼat markazlaridan biriga aylanadi. Nigoristonda ayniqsa kitoblar yozish, ulardan nusxalar koʻchirish va bezash sanʼati hamda Sharq musavvirchiligi yuksak darajada kamol topadi. Ushbu akademiya maxsus qurilgan binoga ega boʻlganmi yoki yoʻqmi, bu haqdagi maʼlumotlarga ega emasmiz. Biroq, tarkibida oʻnlab, hattoki yuzlab xodimlar va turli fan sohalari boʻyicha olimlar ishlaydigan bunday akademiyalar ularni taʼsis etgan hukumdorlar saroylari qoshidagi alohida ajratilgan zallarda, xonalar yoki ichki hovlilari maxsus binolarda joylashtirilganligiga shubha qilmasak ham boʻladi. Bagʻdoddagi Maʼmun va Samarqanddagi Ulugʻbek akademiyalari tarkibiga kirgan rasadxonalar va madrasalar uchun alohida binolar quriladi.

Kezi kelganda oʻrta asrlarda Yevropadagi birinchi akademiya 1662-yili Angliyada taʼsis etilganini, uning «London qirollik jamiyati» deb atalganini eslash lozim. Ushbu ilmiy jamiyat Kembrij universiteti talabalarining ilmiy toʻgaraklari asosida vujudga keladi. Uning tashabbuskori Robert Voyl (1627–1691) hisoblanadi. Bu akademiya oʻz vaqtida R. Guk, X. Ren va Isaak Nyutonlar rahbarlik qilishgan.

Rossiyadagi ilk akademiya 1724-yili Pyotr I asos solgan edi. U 1747-yilgi nizomga koʻra «Imperator Fanlar va Sanʼat akademiyasi» deb atalgan. 1803-yildan boshlab esa «Imperator Fanlar akademiyasi» deb ataladigan boʻlgan.

5.2. Bilim yoki ilm uylari

Bilim yoki ilm uylari Sharq mamlakatlaridagi akademiyalar kabi, islom hukumdorlari, boy ziyolilar va allomalar tomonidan taʼsis etilib, ular nafaqat olimlarning uchrashib ilmiy-munozaralar, bahslar oʻtkazish va ilm-u fan bilan shugʻullanishlari uchun, balki oddiy fuqarolar uchun ham moʻljallangan. Bilim uylari IX–X asrlardan boshlab Arabiston, Misr, Shom va xalifatning boshqa mamlakatlarida taʼsis etilgan. Jumladan, shoir va olim ibn Hamdam (vafoti 935-y.) Mosul shahrida birinchilar qatorida ana shunday bilim uyini taʼsis etib, unda fanlarning barcha sohalari

bo'yicha yirik kutubxona tashkil etadi. Ushbu bilim uyidan hammaning erkin foydalanishiga imkon yaratilib, kambag'allarning shug'ullanishlari uchun hatto tekinga qog'ozlar ham berilgan. Ibn Xiban ismli (vatoni 965-y.) fikrxshunos olim esa Nishopurda Ilm uyini tashkil qilib, unda kutubxona, o'zga shaharlik olimlarga yotoqxona, ularning yashashlari uchun maxsus nafaqa (stipendiya) ham ajratadi. 1004-yilda Al-Hakim Qohira Bilim uyiga asos solib, unga bu shahardagi mavjud barcha saroy kutubxonalarini yig'adi va unda yagona katta jamoat kutubxonasini tashkil etadi. Unga bosh kutubxonachi, 2 ta yordamchi, o'qituvchi va xizmatchilar tayinlaydi. Bilim uyiga kelib o'qiganlarga siyohdon, qog'oz, yozish uchun «qalam» hamda ovqat tekin beriladi. Bag'dod shahrida ham dastlab Bilim uyi tashkil etilib, unda o'z davrining yirik va tanikli olimlari uchrashib va shug'ullanib turishgan.

Bunday uylarning me'moriy ko'rinishlari va tarhiy yechimlari haqidagi tarixiy ma'lumotlarni afsuski uchratmadik. Biroq, o'ylaymizki, ular ham akademiyalar kabi turarjoy yoki saroylarga o'xshash binolarda joylashib, ko'p xonali, zalli va ayvonli ko'rinishlarga ega bo'lgan. Biroq, ma'lumki, bilim uylari uchun o'tmishda maxsus me'moriy yechimli binolar xili shakllanmagan, ushbu maqsadda foydalanilgan binolar esa bizgacha saqlanmagan.

5.3. Kutubxonalar

Tarixiy manbalarga qaraganda O'rta Osiyoning ko'p davlatlarida, xususan, Sug'diyona, Xorazmda III asrlardayoq anchagina boy kutubxonalar bo'lgan. Lekin ular arablar istilosi (VII–VIII asrlar) davrida katta talofat ko'radi.

O'rta asr Sharq mamlakatlarida saroy devonlarining tarixiy hujjatlarini saqlovchi arxiv va kitob omborlari uchun maxsus binolar ta'sis etiladi. Ayniqsa, xalifat hukmdorlari nodir kitoblar va maxsus hujjatlar uchun alohida binolar qurdiradi. Jumladan, Ibn Sinoning (980–1037) tarjimai holi bayonida Buxoro hokimi amir Nux ibn Mansur qurdirgan ana shunday katta kutubxona haqida so'z ketadi: «Men ko'p xonalardan iborat kutubxonalarga kirdim. Har bir xonada kitoblar solingan qator sandiqlar turardi, ulardagi kitoblar esa ustma-ust taxlab qo'yilgan edi... Har bir xonada fanning ma'lum sohasiga oid kitoblar saqlanadi. Men o'sha kitoblar ro'yxatini o'qib, o'zimga keraklilarini topib berishni

o'ndim». Afsuski, Ibn Sino ushbu kutubxonaning me'moriy tuzulishi haqida to'laroq ma'lumot bildirmagan.

Biroq o'rta asr islom Sharqi kutubxonalarining me'moriy yechimlariga doir ba'zi ma'lumotlarni Adud ad-Davla Sherozda tashkil etgan kutubxona bayonida uchratish mumkin. Al-Maqdisiyning yozishicha, ushbu kutubxona «katta kursi ustiga qurilgan uzun va ulkan peshayvon ko'rinishida bo'lib, unda turli xil qimmatbaho kitoblar joylashgan. Peshayvondagi barcha devorlarga uzunligi odam bo'yi, eni 3 tirsakka teng shkafklar o'rnatilgan. Ular naqshlangan taxtalardan ishlanib, osig'lik eshikchalarga ega. Barcha qo'lyozmalar shkaf tokchalariga terilgan bo'lib, har bir ixtisoslikning alohida o'z qatorlari va kitob ro'yxatlari mavjud. Kutubxona binosi ushbu ro'yxatga ko'ra ketma-ket ulangan zallar shaklida qayta qurilmoqda edi. Zallar oldidan ravoqli-gumbazli galareya ishlangan. Bino kursisi baland ko'tarilgan». Ushbu ma'lumotdan ko'rinadiki, Sheroz kutubxonasi ko'p zallik bino bo'lib, zallar oldi baland peshayvon va ravoqli-gumbazli galareya bilan bezatilgan.

Tarixchi Yoqut Xamaviy (1170–1229) Marv shahrining o'nta yirik kutubxonasini ko'rib, ularda saqlanayotgan kitoblarning qimmati va soniga dunyoda biron-bir kutubxona teng kelolmaydi, deb yozadi. Bu kutubxonalar orasida alohida binoga ega bo'lgan kutubxonalardan tashqari Marv madrasalari, jome masjidi va xonaqosi tarkibiga kirgan kutubxonalar ham bo'lgan.

Xorazmda ham bu davrda Ma'mun akademiyasining katta ta'siri ostida ilm-ma'rifatga yo'naltirilgan tadbirlar shakllanadi. Masalan, Xorazmshohlarga qaram bo'lgan Buxoro viloyatidagi Dehqon tumanida «Kambag'allar uyi» kutubxonasi (Xizanat al-kutub Dar al fuqaro) ochilib, unda noyob qo'lyozmalar to'planadi.

O'rta Osiyoda kutubxonalar tashkil etish Amir Temur va Temuriylar davrida ancha jonlanadi. Temurning o'zi Samarqanddagi Ko'ksaroyida ulkan kutubxona tashkil etib, unga nafaqat Movarounnahr shaharlari, balki o'zi zabt etgan o'zga yurtlardan ham nodir kitoblar keltiradi. Ma'lumki, bu kutubxona poytaxt olimlarining xizmatida bo'lgan. Temuriy Shohruh Mirzo ham Hirotda ana shunday yirik kutubxona bunyod etadi. Temur farmoyishi bilan Turkistonda qurilgan Xoja Ahmad Yassaviy maqbaraxonaqosi ko'p funksiyali inshoot bo'lib, uning tarkibida ham kutubxona tashkil etiladi. Shahrisabzdagi «Dor-ut-tilovat» ham zamonasining ilm maskanlaridan hisoblanib, uning tarkibida ham kutubxona bor edi. Mirzo

Ulug'bek bunyod etgan Samarqand rasadxonasining kutubxonasida qariyb 15 ming kitob saqlanar edi.

Shuni ta'kidlash zarurki, islom dunyosidagi barcha madrasalar rasadxonalar, dor ush-shifolar, xonaqohlar va shuningdek, masjidlar ham yuqorida eslatganimizdek o'z kutubxonalariga ega bo'lgan. Bulardan tashqari, allomalarning shaxsiy kutubxonalari ham faoliyat ko'rsatgan. XX asr boshida Buxoroda ana shunday 11 ta kutubxona faoliyat ko'rsatgan.

Ulardan 3 tasi: Burxonuddin Sadr qozi kalon, Siddiqxon Xishmat va Muhammad Sharif Ziyo kutubxonalari eng yirik va boy kutubxonalar hisoblangan. Muhammad Sharif Ziyo shoir, musiqashunos va nomdor hattot ham bo'lgan. Uning katta xizmatlaridan biri shuki, u o'z kutubxonasidagi nodir kitoblar fixristini tuzgan. Sharif Ziyo ushbu fixristda faqat kitoblar va uning mualliflari nominigina emas, balki qo'lyozmalarning yozilgan tarixiy sharoiti, hattoti, lavhasi, qog'ozi, qo'lyozmalarni qanday va qancha pulga olingani va hatto ba'zi kitoblarning zamondoshlari va avlodini ham ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

Madrasalarda kutubxonalar aksari hollarda madrasaga kirish darvozasi ustidagi zalga joylashtirilgan. Jumladan, Buxoroda Abdulazizxon II (1651–52-yy.) va Xalifa Niyozqul (XVIII asr) madrasalari hamda



Buxoro. Chor-Minor: Xalifa Niyozqul madrasasining darvozasi va kutubxonasi.

Subxonqulixonning Dor ush-shifosi tarkibidagi kutubxonalar ana shunday tartibda qurilgan. Xalifa Niyozqul madrasasining darvozasi va kutubxonasi an'anaviy «chortoq» kompozitsiyasida ishlanib, u bizgacha Chor-Minor nomi bilan yetib kelgan.

Chor-Minorning ikkinchi qavatida o'z vaqtida kitobxona joylashgan. Bu kutubxonalarga madrasa darvozaxonasi devoridagi aylana zinalar orqali kirib chiqilgan. Xivadagi Olloqulixon madrasasining kutubxonasi esa darvoza ustidagi bir necha hujralarda joylashib, uning tarkibida qiroatxona va kitob omborlari mavjud.

Ba'zi yirik saroy kutubxonalari tarkibida kutubxonachilikdan tashqari

O'rta Osiyoda keng tarqalgan kitobat san'ati, ya'ni qo'lyozma asarlarni to'chirib yozish va u bilan bog'liq hattotlik, musavvirlik, lavvohlik (bachalar chizish) va muqovasozlik ishlari va ta'limi bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'limlar va ustaxonalar ham faoliyat ko'rsatgan. Masalan, Ko'hna Urgenchdagi Ma'mun akademiyasining kutubxonasi. Hirotdagi Shohruh va Boysunqur Mirzolar, keyinchalik esa Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy homiyligida qurilgan saroy kutubxonalarining ana shunday kitobat va musavvirlik ustaxonalari hamda bo'limlari bo'lib, ularda ishlayotgan sodimlar, ustoz va shogirdlar hukumat va homiylar tomonidan doimiy muosh bilan ta'minlanib turilgan.

Shunday qilib, o'rta asrlardagi kutubxonalarining me'moriy-shaharsozlik tasnifini uch xilga: 1) alohida qurilgan binolarga ega bo'lgan kutubxonalar; 2) ilm-fan, ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy va diniy muassasalar tarkibiga kirgan kutubxonalar; 3) hukumdor va amaldorlar, allomalar saroylari va uylari tarkibidagi xususiy kutubxonalarga bo'lish mumkin. Agar biz bularga o'rta asr shaharlaridagi kitob bozorlarini ham qo'shsak, o'tmishdagi kutubxonalar va kitobchilik tarmog'ining ancha keng bo'lganligini, ularning eshiklari ilm-ma'rifatga qiziqqan har bir inson uchun doimo ochiq bo'lganligini va beminnat xizmat ko'rsatganligining shohidi bo'lamiz.

5.4. Rasadxonalar

«Rasad» – forscha so'z bo'lib, yo'ldagi yoki uzoqdagi narsani diqqat bilan kuzatish, degan ma'noni anglatadi. «G'iyosul-lug'ot» kitobida keltirilishicha, qadim zamonlarda munajjimlar baland tog' ustiga chiqib, 700 gaz (gaz uzunlik o'lchovi, 1 gaz 91,5 sm ga teng) balandlikda, bir-biriga qarama-qarshi ikki supacha (chavdara) yasashib, o'rtasiga o'tirib yulduzlarni kuzatishgan. Bu – ilk rasadxona bo'lgan.

Rasadxonalarining vujudga kelishini olimlar dehqonchilikning rivojlanishi bilan bog'laydilar. Akademik M. S. Bulatovning ta'kidlashicha, O'rta Osiyoda rasadxona neolit davridayoq (eramizgacha IV–III ming yilliklarda) ayrim ibodatxonalar tarkibiga kirgan. Jumladan, Qadimgi Jaytun (Turkmaniston)da ana shunday «xram – observatoriya» qurilgan. Bobilda miloddan avvalgi I minginchi yillardayoq osmon yulduzlarini kuzatish uchun ibodatxonalar qoshida qurilgan minoralar – «zikkuratlar»dan foydalanilgan. Yunonlarda esa milodgacha IV asrda maxsus astronomik kuzatuv punktlari faoliyat ko'rsatgan.

Olimlarning fikricha, Qadimgi Xorazmda qurilgan Qo'y-qirilgan qal'ada, ya'ni quyosh xudosiga bag'ishlangan ehromda ham (milodgacha IV asr) astronomik kuzatuv ishlari olib borilgan, chunki qal'aning markazida joylashgan asosiy qismi, uning shakli va o'lchamlari dastlab shu maqsadga mos kelgan. Qal'a markazidagi ushbu asosiy inshootning me'moriy ko'rinishi ulkan silindr shaklida bo'lib, uning pastki diametri 44,5 metr, yuqori qisminiki esa 42 metrga teng bo'lgan.

VIII asr oxiri – IX asr boshlarida astronomiya aniq fanlar ichida yetakchi o'rinni egallay boshlaydi.

Halifalikning birinchi astronomik rasadxonasi Bag'dodda ash-Shamossiya mahallasida 828-yilda asl marvlik bo'lgan Yah'yo ibn Mansur boshchiligida quriladi. Halifalikdagi ikkinchi rasadxona 831-yili Damashq yaqinida joylashgan Dayr Murron cherkovi yonidagi Qasyun tog'ida qurilgan. Uning boshlig'i Homid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy bo'lgan. Har ikkala rasadxonada ham Bag'doddagi Ma'mun akademiyasining olimlari rahbarligida ish olib borilgan.

O'sha davr astronomik asboblarining mashhur ustasi Rey shahridagi Faxr ad-Davla saroyi rasadxonasining yetakchi olimi asli farg'onalik Homid ibn al-Xo'jandiy hisoblangan (vafoti 1000-y.).

Marvda XI asrda Umar Hayyom (1040–1123) ishtirokida rasadxona loyihasi chizilib, u bir yil ichida barpo etiladi. Unda olib borilgan kuzatishlar va boshqa izlanishlar natijasida 1097-yili Umar Hayyom o'z homiysi Sulton Malikshoh topshirig'iga ko'ra yangi astronomik taqvim, ya'ni «zij»ni tuzadi.

Mo'g'illar hukumdorligidan keyin ham (XIII–XIV asrlar) O'rta Sharq mamlakatlarida rasadxonalar qurilishi tez-tez rag'batlantirilib turilgan, chunki ular muhim davlat ishlari va qarorlarini munajjimlar tuzgan astronomik taqvimlarga qarab belgilaganlar. Shuning uchun ham bunday taqvimlarning to'g'ri va aniqligi muhim ahamiyat kasb etgan. Ana shunday ehtiyoj tufayli mo'g'il xoni Xuloguxon 1258-yilda yangi astronomik taqvim tuzish maqsadida Ozarboyjonning poytaxti Marog'a shahrida rasadxona qurdiradi. Rasadxona qurilishiga taniqli munajjim Nasiriddin Tusiy boshchilik qiladi. Ushbu rasadxonada 20 dan ortiq olimlar faoliyat ko'rsatadi.

1424–1429-yillarda Samarqandda dunyoga mashhur Mirzo Ulug'bek rasadxonasi quriladi. Rasadxonaning bunyod etilishida uning joyini tanlashdan tortib, to'jihoz-uskunalarini hozir qilgunga va o'rnatgunga

qadar o'z zamonasining mashhur olimlari (matematik va astronom Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi va taniqli me'mor usta Ismoil va uning o'g'li) Ulug'bekka hamkor bo'ladilar. Rasadxona yaratilishida Sharq va G'arbda yig'ilgan boy ilmiy meros, bilim va amaliy tajribalar asos qilib olinadi. Marvon II (744–750) zamonasida Damashqda qurilgan rasadxona, IX asrning boshlarida ishga tushgan Bag'dod rasadxonasi, Nasiriddin Tusiy nomi bilan bog'liq bo'lgan Marog'a (XIII asr) rasadxonalari ilmiy ishlari va qurilish tajribalari, mashhur yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolemey ta'limotlari, ulug' vatandoshlarimiz Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy va boshqalarning ajoyib ilmiy asarlari va tajribalariga tayanib ish ko'riladi. Har qalay rasadxona binosi va uning qurilishi juda murakkab bo'lganligi sababli, besh yilga cho'ziladi.



Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasining asosiy o'lchov asbobi – sekstantning yer ostida saqlangan qismi.

Ulug'bek akademiyasi o'zidan oldingi rasadxonalardan qurilish va uskunalarining mukammaligi bilan farq qilgan. Rasadxona markazida Samarqand meridian chizig'i yo'nalishida joylashtirilgan radiusi 40,2 metrlik asosiy o'lchov asbobi (rasadxonaning bosh teleskopi) – «Sudus Faxriy» (sekstant) qurilgan. Sekstant bu aylana yoyi uzunligining oltidan bir qismidir. Ushbu asbob yoyining ustiga marmar toshli yoylarga daqiqa va soniya bo'linmalari qayd qilingan mis tasma ishlangan.


Ilm olami ajoyibotlaridan biri bo'lgan ushbu rasadxonada Ulug'bek davridan boshlab falakkiyot, matematika, geografiya fanlari sohasida ajoyib asarlar yaratilgan. Ular orasida alohida o'rin tutgan asar–yulduzlar jadvali «Ziji Ko'ragoniy» bo'lib, unda 1018 yulduzning joylashgan o'rni, harakati, har xil astronomik miqdor, trigonometrik vazifa va 600 dan ortiq shaharning geografik o'rni haqida aniq ma'lumotlar berilgan. Rasadxonaning asosiy astronomik qurollari – «Sudus Faxriy» (sekstant), «tarbe'» (kvadrant) va «zotulhalqa» kabi burchak o'lchovchi hamda boshqa turli asboblardan iborat bo'lib, ularning yordami bilan XV asr Samarqand

astronomlari Yerdagi yilning davomiyligi, kecha-yu kunduz miqdori, ekvatorni kesib o'tadigan doiraviy chiziqning yo'nalishini va boshqa ko'plab hajmlarni aniqlaganlar. O'lchov va hisoblarning aniq o'tkazilishi yuqori darajada bo'lgan.

Abdurazzoq Samarqandiy o'zining «Malai-sa'dayn...» asarida yozishicha, rasadxonada «to'qqiz falak, yetti sayyora va yetti iqlim suvrat xaritasi» chizilgan ediki, bu o'sha davr uchun falakkiyot va geografiya sohasida inqilob darajasida turar edi.

Olimlar rasadxona binosining 3, 6 yoki 7 qavatligi haqida hozirgacha bahs qilishib kelmoqda. 2002-yili arxitektor G.I. Korobovsev Ulug'bek rasadxonasining uch qavatli bo'lganligini isbotlashga harakat qilib ko'rdi.

Uning fikricha, rasadxona ichida nafaqat shakli va funksiyasi, balki balandligi bilan ham bir-biridan farq qiluvchi ikki xil guruhdagi xonalar joylashgan. Birinchi guruhga balandligi uch qavatga teng to'rtta katta zallar: masjid, kutubxona, fanxona va ustaxonalar kirgan. Ikkinchi guruhga esa rasadxona xizmatchilarining xonalari kirib, ularning balandligi o'rtacha



Ulug'bek rasadxonasining G.I. Korobovsev ishlagan rekonstruksiyasi.

bir qavatga mos kelgan. Rasadxona qavatlarining umumiy balandligi 13 m, asosiy asbob, ya'ni sekstantning balandligi esa 33 m bo'lgan.

Mutaxassislarining fikricha, bino aylanasining diametri 46,2 metrga teng. Sakstantning hozirda saqlanib qolgan qismi yer sathidan 30 mertgacha baland bo'lgan. Rasadxona binosi kattaligi, qurilish uslubining o'ziga xosligi va uskunalash jihatidan Sharq va G'arb mamlakatlaridagi barcha boshqa astronomik inshootlardan ustun turgan.


Rasadxona binosi pishiq g'ishtdan ishlanib sirti koshin va parchinlar bilan bezatilgan. Rasadxona xonalariga Ulug'bek o'zi va o'zidan oldin o'tgan olimlarning falakkiyot sohasidagi muhim yutuqlarini turli shakllar, tasvir va raqamli naqshlar bilan chizdirgan. Samarqand rasadxonasiga xos me'moriy tasnifiy xususiyatlar quyidagilardir:

- bino funksiyasi uning shakl-u shamoyiliga tamoman mos kelgan va rasadxonalarga xos qurilmaviy tizimdan tashkil topib, bu funksiyadagi inshootlarning ilk ibtidoiy shakllari (ehrom-rasadxonalar) bilan genetik bog'langan;

- binoning markaziy qismida asosiy astronomik asbob – sekstant joylashgan;

- sekstant atrofidagi barcha zallar va xonalar ulardan ilmiy tadqiqot muassasasi sifatida foydalanishga mo'ljallangan (kutubxona, fanxona, ilmiy bahslar zali, kuzatish natijalarini tahlil qilish ustaxonasi, masjid va h.k).

Shunday qilib anglashiladiki, rasadxonalar o'rta asrlarda o'z funksiyalariga mos va xos me'moriy ko'rinishdagi alohida binolarga ega bo'lgan.



Ulug'bek rasadxonasining hozirgi ko'rinishi.

VI bob. O'RTA OSIYO ARXITEKTURASI TARIXIDA DAVOLASH VA SHIFOBAXSH-GIGIENIK MUASSASALAR

6.1. Shifoxonalar

Tarixiy obidalar va moddiy madaniy merosimiz haqida ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar o'tkazilib, ko'plab kitoblar yozilgan bo'l-sada. jamoat binolari tarixining hali fanga noma'lum va atroficha o'rganilmagan sohalari ham anchagina. Ana shunday kam o'rganilgan sohalardan biri davolash va shifobaxsh muassasalarning shakllanish, shaharlarda joylashish, xalq orasida tutgan o'rni va roli, ularning me'morchilik va qurilish tarixidir.

Jamoat binolarining bu xildagi namunalari qatoriga shifoxonalar, dorixonalar, hammomlar, garmobalar, shifobaxsh chashmalar hamda qator «balneodavo» muassasalari (bularga mineral suvlar, qum va loy balchiqlar vositasida davolaydigan muassasalar, obzaxxonalar ham) kirgan.

Sharq mamlakatlari xalqlari tabobatga oid turli xil tibbiy muassasalar va shifoxonalardan juda qadim zamonlardan boshlab foydalanib kelganlar.

O'rta Sharq mamlakatlarida xalq tabobati xizmati ilk bor zar-dushtiylik dini shakllangan davrlarda (eramizdan oldingi VI asr) ushbu din ibodatxonalari qoshida tashkil qilina boshlangan. Shaharlardagi otashkadalar tarkibida dastlab darmongoh, keyinchalik kasallarni davolash xizmatlari yo'lga qo'yilgan.

Qadimiy Hindiston shahri Adjantda (miloddan oldingi II–I asrlar) topilgan devoriy rasmlarning birida saroy malikasini davolayotgan tabib, bir guruh kanizaklar va xizmatkorlar tasvirlangan. Kanizaklardan biri malikaning oyog'ini uqalash bilan ovora. Malikaning yonida o'tirgan yigit – bu tabib, u boshiga maxsus uskuna kiyib olgan. Kanizaklarning biri soyabon, biri oyna, yana biri dori darmon, sharbat suvi ko'tarib turibdi. Xizmat ko'rsatayotgan yigitlar ehtimol evnuklardir. Malikani davolash ochiq ayvonda kechmoqda.

Tarixchi I. To'xtiyevning yozishicha, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo xalqlarida islom dinigacha keng tarqalgan budda ibodatxonalarida (I–VI asrlar) iloxiy bilimlar bilan birga tabobat ilmi ham o'qitilgan.

Eronning Gundishapur shahrida VI asrdan boshlab maxsus ilmiy akademiya va maktab shakllantirilib, uning tarkibida alohida kasalxona, dorixona va dorivor o'simliklar uchun maxsus bog' tashkil etilgan. Akademiya shifoxonasida bemorlarni davolashdan tashqari ilmiy tadqiqotlar va tabiblarni tayyorlash ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu davrda Sharqda qo'llanilayotgan tibbiy yordam va xizmat turlari hali O'rta asr Yevropasiga ma'lum emas edi. VIII asrdayoq Suriya va Misrda yirik shifoxonalar – bemoristonlar tashkil qilinib, ularda yotib davolanish imkoni yaratilgan. Aynan shu davrlardan boshlab Sharqda, jumladan, Misr, Iroq, Suriya, Eron, Turkiya, Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlarida tabobat ilmi va amaliyoti ancha yaxshi rivojlanib, fuqaroviy davolash muassasalari xalq orasida keng e'tibor qozongan. Masalan, hozirgi O'zbekiston hududida ham X asrda tabobat ishlari rivoj topib, XI asr boshlarida Ko'hna Urgenchda, keyinchalik esa Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi yirik shaharlar o'z shifoxonalariga ega bo'lgan.

Shifoxonalar qurilishiga hokimlar, ulug' zotlar mansabdorlar, tibbiyot arboblari bosh-u qosh bo'lganlar. Sharqning buyuk siymolari ulug' tabiblar Abu Bakr-Roziy va Abu Ali Ibn Sinolar ham o'z davrida jamoa shifoxonalari qurilishiga jadal yondashganlar. Ar-Roziy Bag'dodda, Ibn Sino esa Ko'hna Urgench va Hamadonda shifoxonalar qurilishiga ma'sul bo'lgan. Mazlum xalqqa atab «Dor ush-shifo» lar qurish, tibbiyot sohiblarini tayyorlash, tabobat xizmatini to'g'ri yo'lga qo'yish bular xayrli xizmatlar qatoriga kirib, el yurt va hokimlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. «Islom sultonlari va ulug' hokimlar el sog'lig'ini yaxshilash uchun davlat xomiyligi ostida dori darmonlar va kimyoviy malham moddalar yig'dilar. Bu ishga bilimdon tabiblarni jalb etib, qulay va yorug' shifoxonalar qurdilar» – deb yozgan edi XIII asrning iste'dodli arboblaridan biri Rashid ad-Din.

Eronning taniqli ilmiy markazlaridan bo'lmish Ray, Isfaxon, Xamadan, Movarounnahrning Samarqand, Ko'hna Urgench shaharlarida X–XI asrlarda yirik shifoxonalar bo'lib, ularda xalq e'tiborini qozongan tabiblar faoliyat ko'rsatganlar. Ayniqsa, Bag'dod shahri o'rta asrlarda Sharq tabobat ilmining yirik markazlaridan biri bo'lgan. Bu yerda X asrda beshta shifoxona qurilib, ularni o'z davrining mashhur tabibi Sinan Ibn Sabot boshqargan. Shifoxonalarning ikkitasi Dajla daryosi

bo'yiga, manzarali va xushhavo joylarga qurilgan. Mazkur davolash muassasalarida bosh tabib va davolovchi tabiblardan tashqari sanitarlar, xizmatchilar, qorovullar, xo'jalik ishlarini boshqaruvchilar, osoyishtalik va tartib saqlovchilar singari shtatlar ham belgilangan.

Bag'dod shifoxonalarini tashkil etganlar orasida shahar hokimi Adud ad-Daula ham bo'lgan. U o'zi qurdirgan shifoxonaga 24 ta yetuk tabiblarni yig'ib, ularga xomiylik qilgan va o'z davrining mashhur tabibi Abul Hasan ibn Gilmizni kasalxonaga bosh tabib etib tayinlagan.

Tabiblar, odatda, bir necha tillarni bilganlar. Bu ularga bemorlar bilan suhbatlashishda, tibbiyotdan talabalarga dars berishda qo'l kelgan. Bag'dod kasalxonalarida ko'z kasalliklarini davolash yaxshi yo'lga qo'yilgan. U yerda telbalar uchun ham maxsus shifoxona tashkil etilib, u shahardan biroz chetroqda joylashtirilgan.

Poytaxt Bag'doddan uzoqda joylashgan Shiroz, Isfaxon, Vosit kabi shaharlar ham o'z shifoxonalariga ega bo'lgan. Bu shifoxonalarda tabiblik mahoratini tasdiqlovchi shahodatnomaga ega bo'lgan mutaxassislar ishlaganlar.

Qadimgi arboblarning shifoxonalar oldiga mashshoqlarni tez-tez olib kelib turish odati bo'lgan, chunki musiqa dardning oldini olishga va charchoqni yo'qotishga yordam bergan.

Jamoat shifoxonalarini islom mamlakatlarida qurish butun o'rta asrlar davrida davom etib kelgan. Masalan, XIII asr o'rtalarida Xaleb shahrida (Suriya) jamoat kasalxonasi mavjud bo'lib, XV asrda yana yangisi – Argun al-Komiliy bemoristoni qurilgan. Mazkur kasalxonaga bir necha hovlilarni biriktiruvchi katta bir bino (kompleks) ko'rinishida bo'lib, alohida hovlilar atrofida yotib va qatnab davolanuvchi bemorlar uchun maxsus xonalar, oshxonalar va boshqa yordamchi xonalar joylashgan bo'lgan. Kasalxonaga binosi ziynatli, muqarnas, tupbarggul tarzidagi bezaklar, marmar va fayansdan ishlangan sadaf naqshlar bilan bezatilgan.

Islom mamlakatlaridagi shifoxonalar va tibbiy xizmat turlari Movarounnahr va Xuroson shaharlariga ham xos bo'lgan. Hozirgi O'rta Osiyo respublikalari hududida o'z davrining ulug' allomalari (Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Husayn Bayqaro, Alisher Navoiy) va qator hokimlar xalq orasida sog'liqni saqlash ishlari bilan shug'ullanib, shifoxonalar qurdirganlar.

Shifoxona va ulardagi tibbiy faoliyat turli xil xizmatlar evaziga uyushtirilgan vaqflar hisobidan amalga oshirilgan. Shunday vaqflarning

birida «kasalxonani ta'sis etuvchi shaxs «xonalarga» e'tibor berish, kasalxonadagi bemorlarni dori-darmonlar bilan ta'minlash, tabiblar, qon oluvchilar, xizmatchilar, oshpazlar, osoyishtalik va tartib saqlovchilar va boshqalarga moyana, kasallarga sut va ovqat, sog'ayishi va dam olishida zarur bo'lgan barcha ashyolarni mol mulk qilib vaqflarga o'tkazadi va ularga egalik huquqini beradi», deb yozilgan.

1046–1068-yillarda Samarqandda hokimlik qilgan Tamg'och Bug'raxon Abu Isxoq Ibroxim Tamg'ochxonning vaqf hujjatlariga ko'ra 1066-yilning o'rtalarida shaharning Rivdod ko'chasidagi dahada kasalxona (dorulshafaqa) joriy etiladi. Bug'raxon vaqf hujjatiga ko'ra, kasalxona bu yerdagi shahar dahalaridan birida joylashgan bo'lib, bir yondan masjid bilan, qolgan tomonlardan daraxtlar, uy joylar bilan chegaralangan bo'lgan. O.G. Bolshakov mazkur kasalxona qurilgan joy haqida fikr yuritib, u hozirgi Registon maydoniga yaqin bo'lgan So'zangaron ko'chasi yo'nalishiga to'g'ri kelgan, deb taxmin qiladi.

Vaqfda ko'rsatilishicha, shifoxona binosining to'rt tomoni berk, hovlisi va ko'chaga qaragan bitta darvozasi bo'lgan. Demak, shifoxona rejasining tuzilishi to'rt tomoni berk ichki hovlili bino ko'rinishiga ega bo'lgan. Bu esa kishini o'z navbatida Samarqand shifoxonasi o'zining me'moriy rejaviy yechimi bo'yicha o'sha davrda nafaqat O'rta Osiyoda, balki butun islom Sharqida keng tarqalgan madrasa binosining me'moriy tuzilishiga yaqin bo'lgan deb xulosa qilishga chorlaydi. Madrasa, karvon-saroy, masjid binolariga xos ichki hovlili rejaviy yechim shifoxonalarga ham juda mos kelgan, chunki bunday me'moriy tarh kasallarning palatalarini ichki hovliga qaratib joylashtirishga va turli tibbiy xizmat turlarini tashkil qilishga imkon tug'dirgan. Bundan tashqari, ichki hovlida kun davomida soya salqin va dam olishni tashkil qilishga qulay sharoit yaratilgan.

Samarqand shifoxonasida malakali tabiblardan tashqari kichik tibbiy xodimlar, qon oluvchilar, oshpazlar, imomlar, hovliga qarovchilar hamda go'rkovlar ishlagan. Demak, shu xizmatlarga mos ravishda turli xonalar, jumladan, kasallar uchun hujralardan tashqari oshxona, masjid, dorixona, tabiblarning yig'ilishi uchun zallar va boshqa yordamchi xonalar bo'lgan. Samarqand shifoxonasi qoshida yuqoridagi vaqfda ko'rsatilishicha, qatnab davolanuvchi kasallar uchun kichik shifoxona («nimak bemoriston»), ya'ni darmonxona ham tashkil qilingan. Shifoxona nizomida bu yerda nafaqat kasallar, balki nochor nogironlar, majruhlar, qarovsiz qolgan qariyalar ham manzil topadilar, deb aytilgan. Samarqand shifoxonasining

qancha vaqt faoliyat ko'rsatganligi noma'lum, ammo u XIII asrga kelib Chingizxon bosqini davrida yakson qilingan ko'rinadi. Hozirgi davrda bu binodan, afsuski, nishona ham qolgan emas.

Samarqand shahridagi jamoat shifoxonasi kabi davolash muassasasi Marvda, Balxda, Xorazmning qadimiy poytaxti Ko'hna Urgench va Buxoroda ham bo'lgan. Ushbu shifoxonalarda ichki kasalliklarni dori darmonlar bilan davolash bo'limlaridan tashqari boshqa bo'limlar ham bo'lgan bo'lishi mumkin. Chunki xorazmlik o'sha davr tabiblari bemorlarni davolashda turli usullardan: dori darmonlar, jarroxlik, massaj, «balneodavo»lar, parhez, «musiqaterapiya», ya'ni kuy ohangi, qo'shiq va turli o'yin (raqs) lar kuchidan ham foydalanganlar.

Samarqand, Ko'hna Urgench, Marv va Balx shifoxonalariga hamda XI asr vaqf hujjatlariga asoslanib, O'rta Osiyoda bu davrga kelib jamoat kasalxonalarining barcha vazifalari va ehtiyoj talablari aniqlangan, o'ziga xos huquqiy tartibotga ega muassasa bo'lib to'liq shakllangan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shunisi qiziqarliki, o'sha davrlarda ham hozirgi zamondagi shifoxonalardagidek «konsilium» usuliga amal qilinib, oddiy tabiblar bemorlarni davolashda yuqori malakali tabiblar bilan kengash o'tkazib turgan. Kasalxonalar tarkibida masjid, dorixona, tabiblarning yig'ilishi va maslahatlashishi uchun maxsus jamoatxonalar bo'lgan.

L.G. Soldatze o'zining Ibn Sino haqidagi tarixiy romanida ulug' tabib davrida (X asr) Buxoroda ham kasalxona bo'lganligi haqida xabar beradi. Uning bemorlarni uyidan tashqari shahar kasalxonasida ham davolagani, yoshligidanoq mahorati va bilimi bilan boshqa tabiblarni hayratda qoldirgani haqida yozadi.

Ma'lumki, bobokalonimiz buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham tabobat namoyandalarini qo'llab quvvatlab, ularni o'z asarlarida madh etgan, tabiblar, olimlar, me'morlar va san'atkorlarga homiylik qilgan, uning ko'rsatmasi va mablag'iga binoan Xuroson muzofotida xalq manfaati uchun ko'plab binolar qurilgan. Ular orasida shifoxonalar ham bo'lgan. Qurilgan va qurilayotgan binolarni shoirning o'zi tez-tez ko'zdan kechirib turgan.

Tarixchi Xondamirning ta'riflashicha, Alisher Navoiy Hirot atrofidagi Injil kanali bo'yida nihoyatda ziynatli «Ixlosiya» madrasasi va uning yaqiniga nihoyatda ko'rkam «Xalosiya» xonaqoxi, g'arb tomoniga esa 1480–1481-yillarda «Shifo'iya» shifoxonasi va «Safoiya» hammomini qurdirgan. Shifo'iya sog'liq ma'nosini anglatsa, Safoiya tozalikni bildirgan.

«Shifoiya» va «Safoiya»ning, ya'ni shifoxonaning hammom bilan yonma-yon qurilishida hammomda davolash tadbirlarini amalga oshirish, hatto ayrim kasalliklarni hammom yordamida aniqlash mumkinligi sabab bo'lgan. Shifoxonada bemorlar davolanish bilan birga hammomda cho'milish, terlash, uqalanish (massaj) singari shifobaxsh-gigienik muolajalarni ham olganlar. Tabobat xizmatini tashkil qilishdagi bunday shifobaxsh-gigienik uyg'unlik boshqa Sharq mamlakatlarida ham ilgari qo'llanib kelingan. Shifoxonalarda mavlono tabiblar bemorlarni davolash bilan birga talabalarga tib ilmidan dars berganlar. Shuning uchun bo'lsa kerak, taniqli adib Sadriddin Ayniy o'zining «Esdaliklar» ilmiy asarida Navoiyning «Shifoiya» sini «madrasa» deb ataydi.

Akademik V.V.Bartold esa uni «Bolnisa», deb yozadi. Fikrimizcha, hozirgi tushuncha bilan aytganda Navoiyning «Shifoiya» binosi o'sha davrdagi boshqa shifoxonalardan farq qilib, o'z mavqeiga ko'ra tibbiyot klinikasi va dorulfununi, ya'ni «Madrasayi-dorul shifo»si va tabobat sohasida malaka oshirish instituti vazifalarini bajargan bo'lsa ajab emas. Zero, Mir Alisherning inoyati bilan o'sha davrda mavlono Nizomiddin Abdulxay, mavlono Muhammad Muin, mavlono Darvishali, mavlono Abdulxay Tuniy singari mashhur tabiblar etishib chiqqanki, ular tib ilmini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.

Navoiy shifoxona yonida Injil daryosi bo'yida ko'rkam va xushhavo bog' tashkil etadi. Undagi keng sersoya xiyobonlar, go'zal chamanzor va gulzorlar, billur suvli hovuzlar bu yerda qurilgan binolarga o'ziga xos tabiiy poyandoz bo'lib xizmat qilgan. «Shifoiya» ushbu bog' ichida joylashgan bo'lib, tarzi bilan Injil kanaliga qarab turgan. Shifoxona binosi ichki hovlilari tarhi berk hajm-rejaviy tuzilishga ega bo'lib, Hirot shahri yonida tayyorlanadigan qizil g'ishtdan qurilgan bo'lgan. Shifoxona hovlisida «kavsar misol» hovuz ham bunyod etilib, unda baliqlar atrofida kasallarni dam olishlari uchun joy ishlangan, hovli sahniga esa Gazurgoh tog'ining mayin shamoli esib turgan.

Navoiy davriga qadar ham Hirotida bir necha jamoat shifoxonalari bo'lib, ulardan ayrimlari qarovsiz holga tushib qoladi. Shulardan biri Temuriylar sulolasidan Xuroson hukmdori Sulton Abu Saidning (1459–1469) katta xotini Milkat og'a tomonidan shahar ichkarisida qurilgan «Dorush shifo» dir. Mazkur shifoxona Navoiyning himmati bilan qayta tiklanadi va obod holga keltiriladi. Hirotning yetuk tabiblaridan hisoblangan mavlono Darvishali Mir Alisherning iltifotiga ko'ra ushbu

dorush-shifoning mudarrisi etib tayinlanadi va barcha muolaja ishlari unga topshiriladi. Sharqshunos olim M.E. Masson Hirot shifoxonalarining yana biri hukmdorlar xonadoniga, ya'ni Shohruh Mirzoning nabirasi Mirzo Alouddavlaga tegishli bo'lgan, degan fikrni bildirgan. Ko'rinib turibdiki, Hirotida Navoiy davrida va unga qadar ham mazlum xalq salomatligi yo'lida xayrli ishlar amalga oshirilgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyo va Sharq xalqlarida yozda salqin, sersoya va zilol suvlarga boy joylardan xushhavo bog'lar tashkil qilish odat tusiga kirib qolgan. Bunday bog'lar o'tmishda, asosan, yirik yer-mulk egalari uchun xizmat qilgan. Ular ayrim bog'larda aslzodalarga xizmat ko'rsatuvchi maxsus shifoxonalar qurdirganlar. Masalan, Toshkent qal'asi tashqarisidagi Kaykaus chorbog'ida (XVI asrda) imtiyozli zodagonlar va xarbiylarga mo'ljallangan shifoxona binosi bo'lgan. Shifoxona chorbog'ning qulay joyida joylashgan bo'lib, unga xarbiy to'qnashuvlarda yarador bo'lgan o'zbek sultonlari jang maydonidan keltirib turilgan. Chorbog'da davolanishdan tashqari aslzodalar uchun adabiy munozaralar, bazm ziyofatlar, hazil mutoyibalar ham o'tkazib turilgan.

Samarqand, Ko'hna Urgench, Marv, Balx, Hirot, G'azna, Toshkent shaharlaridagi jamoat shifoxonalariga o'xshash davolash muassasasi Buxoro shahrida ham bunyod etilgan. Shaharning Registon maydonida hozirgi ark darvozasining shimoli g'arbida 1682-yili Buxoro xoni Subxonqulixon farmoyishi bilan «Dorush shifo» binosi quriladi. Bino uncha katta bo'lmay bir qavatli, ko'rinishidan an'anaviy madrasa binosiga o'xshash, ichki hovlili, to'rt burchak ko'rinishidagi rejaga ega bo'lgan. Shifoxona bosh peshtoqi g'arbga qaratilib, uning yonidan Registon maydonini kesuvchi yo'l o'tgan. Ushbu muassasa vaqf hujjatlariga ko'ra, davolash ishlaridan tashqari yosh talabalarni tabobat ilmiga (ilohiyot va adab bilan birga qo'shib) o'qitishga mo'ljallangan. Shu boisdan ham u «Madrasai dor ush-shifo» deb nomlangan. Shunisi qiziqki, mazkur shifoxonada Samarqand shifoxonasiga o'xshash qatnab davolanuvchi bemorlar uchun alohida «ambulatoriya»dan tashqari, dorixona va tabobatga doir kitoblar saqlanuvchi kutubxona ham bo'lgan. Shifoxona binosi XX asrning 30-yillarida Registon maydonini kengaytirish munosabati bilan buzib tashlangan.

Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin bu o'lkada G'arbiy Yevropa davlatlariga xos tibbiy muassasalar qurila boshlanadi. Ana shunday kasalxona (lazaret) birinchi bo'lib 1868-yili

Toshkentda Chor Rossiyasi harbiy garnizoni qoshida ochiladi va u harbiy gospitalga aylantiriladi. Faqat harbiylarga mo'ljallangan ana shunday gospitallar keyinchalik Samarqandda (1872-yilda), Xivada (1872-yilda), Buxoroda ham (1891-yilda) ishga tushiriladi.

Xivada Dishon qal'aning shimoliy qismida yevropacha qurilgan shifoxona hozir ham dastlabki vazifasini davom ettirib kelmoqda. Bino bir qavatli frontal kompozitsiyada ishlanib, uning tashqi me'moriy ko'rinishida ruscha qurilish uslubining ta'siri sezilib turadi. Shifoxonaga kirish qismining shakli esa xorazm me'morchilik uslubida bunyod etilgan.

Movarounnahr va Xurosonda shifoxonalar binosi o'tmishda, odatda, bir ikki qavatli qilib qurilgan. Yuqorida nomlari tilga olingan O'rta Osiyo shifoxonalari esa, xususan, bir qavatli bo'lgan. Shifoxonalarni qurishda poydevor, devorlar, hatto gumbaz va ravoq tomlar ham mahalliy pishiq g'ishtlardan ishlangan. Bino oldidagi va ichki hovlidagi yer usti to'shamalari pishiq g'ishtlar yoki tabiiy toshaxtalardan bajarilgan.

O'rta Osiyo shifoxonalarida kasallar yotadigan xonalar tashqi devorga yon tomoni bo'ylab joylashib, eshigi bilan ichki hovliga qaratilgan. Yozning issiq kunlari hujralarda bemorlarga qulay mikroiklim yaratish uchun me'morlar hujralarning enini bo'ylariga qaraganda ancha kichik ishlaganlar. Shunday bo'lsada, hujralarni yetarli yorug'lantirish va shamollatish uchun ularning enini bo'yiga nisbatan 1:2 qismdan oshirmaslikka harakat qilingan. Jumladan, Buxoro shifoxonasida bu nisbat 1:1 ni tashkil qiladi.

Yuqori haroratli quyosh nurining ta'siri O'rta Osiyoda derazalarni kichik qilishni taqozo etgan. Shu boisdan palatalar eshik ustiga o'rnatilgan panjarali mo'jaz derazalardan yorug'lantirilgan. Ayrim hollarda bunday derazalar eshik bilan birga ishlanib, yanada yaxlit jozibador qurilmani tashkil qilgan. Eshiklarning balandligi va eni xona vazifasiga mos kelgan. Shifoxona tabiblarining umumiy yig'ilish va kengash o'tkazadigan jamoatxonasi o'z xizmat doirasiga ko'ra ancha baland, havodor va keng ishlangan. Hujra va xonalar ham gumbaz va ravoq tomlar bilan yopilganligi tufayli baland va keng ko'rinish hosil qilganki, ularda bemorlar o'zlarini yerkin his qilganlar. Shifoxonalarda davolanish yozin-qishin barobar kechgan ko'rinadi, negaki tegishli vaqf hujjatlarining birida shifoxonada o'tin tayyorlovchi shtatlar bo'lganligi haqida yozilgan. Demak, bu o'tinlar shifoxona pechkalarida yoqilgan bo'lsa ajab emas.

Shifoxonalar binosining rejasi hovlili ko'rinishga ega bo'lgan ekan, buning sababi nimada degan savol tug'ilishi tabiiy. Jamoat shifoxo-

nalaridagi hovlilar kasalliklarning turiga qarab alohida bo'limlar tashkil qilishga qulaylik tug'dirgan. Bu esa turli xil bemorlarni bir-biridan ajratib davolash imkonini bergan. O'tmishda shifoxonalar boshqa binolarga yaqin yoki yonma-yon joylashganligi sababli shahar ichida ularga hozirdagidek alohida keng va bog' maydonlari ajratishga hamma vaqt birday imkon bo'lmagan. Bu esa bemorlarning shifoxona hovlisida ochiq havoda dam olishlari, shuningdek, ibodat qilishlari uchun qulay sharoit yaratishni, ya'ni ichki hovlilar tashkil qilishni taqozo etgan.

Ayrim shifoxona hovlilari ziynatli naqshlar bilan bezatilib, obodonlashtirilgan, ishkamlar, manzarali daraxtlar, butalar, gulzorlar, favvoralar bilan bezatilgan bo'lsa ajab emas. Shifoxonalardagi ichki hovlilarning, umuman ular joylashgan maydonlarning obodonchiligi haqida hozircha kengroq ma'lumotlarga ega bo'lmasakda, yuqorida bayon qilingan fikrimizni ba'zi yozma manbalar qisman bo'lsada tasdiqlaydi. Masalan, Suriyaning Xaleb shahrida XV asrda qurilgan shifoxona hovlilari bezaklarga g'oyat boy bo'lib, muqarnaslar, to'pbarggulli ganchkor naqshlar, marmar va fayansdan ishlangan sadaf bezaklar bilan hashamlangan bo'lgan. Alisher Navoiyning Hirot shahridagi Shifoiya shifoxonasi hovlisida chiroyli hovuz ishlangan bo'lib, unda baliqlar suzib yurgan. Hovuz atrofiga esa gulzorlar ishlangan.

6.2. Dorixonalar

O'rta Osiyo shaharlarida shifoxonalar tarkibiga kirgan dorixonalardan tashqari alohida joylashgan dorixonalar ham bo'lgan.

Eron, Xitoy va Hindistonda dorixonalar eng qadimiy tibbiy muassasalar qatoriga kirib, ular qoshida turli xil dorivor o'simliklar etishtiruvchi maxsus bog'lar barpo etilgan. Ularni qorovullar qo'riqlashgan, u yerda dorivor o'simliklarni yig'uvchilar, dorilar tayyorlovchi «dorisoxxo»lar va ish yurituvchilar ishlashgan. Ayrim hukmdorlar o'z saroylari qoshida ham dorixonalar tashkil qilgan. Dongdor tabiblarning hatto shaxsiy dorixonalari ham bo'lib, ulardan bemorlarga dorilar maxsus dori qog'ozi bo'yicha berib turilgan.

Erondagi mashhur Gundishapur shifoxonasi qoshida ham dorixona bo'lib, unda tajribali dori tayyorlovchilar ishlashgan. Shunday dori tayyorlovchilardan biri Abu Zakariya ibn Masaviyx (777-857) bo'lib, u 30 yildan ko'proq vaqt ichida shifoxonani turli dori-darmonlar bilan ta'minlab turgan.

Alohida binoga ega bo'lgan dorixonalarga misol qilib Buxoro vohasidagi ko'hna Poykent shahristonidan 1984-yili topilgan qadimiy dorixona binosini keltirishimiz mumkin. Arxeolog olimlarimiz bu tarixiy yodgorlikni VIII asr oxirlariga taalluqli deb topganlar. Dorixona binosining maydoni 15x5 metrli to'rtburchak shaklida bo'lib, asosan, ikkita katta xona va bir nechta bo'linmalardan iborat. Birinchi xona dori-darmon tayyorlash uchun mo'ljallangan, ikkinchi xonada tayyor dorilar va idish anjomlar saqlangan. Bo'linmalarining birida zinapoyali katta supa bo'lib, unga tayyorlangan dorilar qo'yilgan bo'lishi mumkin. Dori tayyorlanadigan xonalarning yerto'lasida uzunligi 6,3 metrli sardoba ham joylashgan. U tayyor dori-darmonlarni va turli xil mahsulotlarni saqlashda o'ziga xos sovitkich rolini bajargan.

Poykent dorixonasi hozircha O'rta Osiyoda topilgan shu xildagi yodgorliklarning yagona namunasidir. Lekin yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, bunday alohida binoga ega bo'lgan dorixonalar Sharqning boshqa mamlakatlarida ham bo'lgan. Jumladan, Misrda hokimlik qilgan Axmad ibn Tulun (VIII asr) o'z saroyining masjidida qoshida alohida dorixona qurdirgan. Masjidga kelgan bemorlarga bepul tibbiy xizmat ko'rsatilgan.

Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, davlat tomonidan tashkil etilib, jamoaga xizmat ko'rsatgan birinchi islom dorixonasi milodning 754-yilida Bag'dodda ochilgan. Bunday dorixonalar keyinchalik boshqa islom va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham tashkil etilgan. Shunday dorixonalar qatoriga Poykent dorixonasi ham kirgan. XI asr boshlariga kelib, Sharqda tayyorlangan dori-darmonlarga bo'lgan talab yanada oshgan bir paytda ayrim musulmon shaharlarida muattar shifobaxsh moddalarni sotishga mo'ljallangan maxsus maydonlar tashkil qilina boshlagan. Nemis olimi S.D. Goyteyning yozishicha, XI asr oxiri – XII asr boshlarida Misrning Fustot shahri bozorida shunday maydonlar bo'lib, ular «murabba'a al-attarin» deb atalgan. Yirik «attarin», ya'ni turli muattar hid taratuvchi shifobaxsh moddalar va dorivor o'simliklar bilan savdo qiluvchi ko'tara dorixonalar esa «murabba'a» deb atalib, ular bozorlarda maxsus maydonchalarda joylashgan bo'lgan. Eron sayyohi Nosiri Husrav ham XI asrda Nishopurda shunday katta va kichik murabba'alar bo'lganligi haqida xabar beradi.

O'rta Osiyo shaharlarining bozorlarida ham shunday dori-darmonlar bilan savdo qiluvchi maxsus do'konlar bo'lgan. Bundan tashqari, uyda dori tayyorlovchilar ham bo'lib, ular dorilarni tabiblarning ko'rsatmasi

bo'yicha tayyorlaganlar. Bunday uy va bozordagi dorixonalar Ibn Sino davrida xalqqa xizmat ko'rsatuvchi dorixonalar tarmog'ini tashkil qilib, bemorlarni dori-darmonlar bilan ta'minlab turgan.

O'rta Osiyoga o'zga yurtlardan Buyuk ipak yo'li bilan kelgan sayyohlar, mehmonlar, savdogarlarga tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida yirik karvon-saroylar qoshida ham ambulatoriyali dorixonalar tashkil etilgan bo'lishi mumkin. Navoiy shahridan 20 km Buxoro tarafda joylashgan «Raboti Malik» karvon-saroyi xarobalaridan topilgan turli muattar hidli dori-darmonlar solingan bir qancha sopol, shisha idishlar, pichoq, qaychi va shunga o'xshash jarrohlik anjomlari fikrimizning dalilidir. Bulardan o'sha davr tabiblari va dori tayyorlovchilari foydalagan bo'lsalar ajab emas.

Bundan tashqari, Sharq mamlakatlarida deyarli hamma shifoxonalar o'z dorixonalariga ega bo'lgan. Buxorodagi «Dor-ush-shifo», Hirotidagi «Shifoia», Samarqand shifoxonasi, Misr va Bag'dod, Tabriz va Xamadondagi shifoxonalar qoshidagi dorixonalar shular jumlasidandir.

Ko'rinib turibdiki, O'rta Osiyoda o'rta asrlar va bizga yaqin bo'lgan davrlarda ham xalq orasidagi tabobat xizmati e'tiborli yo'lga qo'yilib kelingan. Bunga ilg'or xalq tabobati, kimyo fani, farmakologiya va tibbiyot ilmining sezilarli rivoji ham uzviy ta'sir ko'rsatgan.

6.3. Hammomlar

O'rta Osiyo xalqining nufuzli an'analaridan biri hammom qurish san'atidir. Hammomlarning vazifasi ko'p bo'lib, ular o'tmishda dam olish, kuch qudrat va sog'liqni tiklash maskani, tozalik va shifobaxsh muassasa vazifasini bajargan. Kishilar hammomga shifo topish, hordiq chiqarish va turli xil dardlardan forig' bo'lish maqsadida ham kelganlar. Shu bois hammomlar o'tmishda mashhur allomalar, sayyohlar, elchilar va keng xalq ommasini olqishiga ko'p martalab sazovor bo'lgan. Shahar hammomlari bozorlar, karvon-saroylar, jome masjidleri, madrasalar, shahar darvozalari yaqinida, guzarlar qoshida qurilgan. O'zga yurtlardan horib, uzoq yo'l yurib kelgan savdogar va karvon ahli shaharga kirishdan oldin hammomda yuvinib chiqishlari shariatdan hisoblangan. Hammomlar doim odamlarga to'la bo'lib, ularda yerkak va ayollar o'zlariga belgilangan kunlarda cho'milishgan. Ba'zida ayollarning alohida hammomlari bo'lgan.

Yozishlaricha, qadimgi turklar «charga» (chodir hammom) va sayyor kasalxonalarni kashf etib, ularni o'z qo'shinlari bilan birga olib

yurishgan. Vizantiyaliklar esa chodir hammomni turklardan o'rgangan va o'z qo'shinlariga tadbiiq etgan degan fikrlar mavjud.

O'rta Osiyo shaharlari va jumladan, Buyuk Ipak yo'li o'tgan shaharlar shifobaxsh hammomlarga juda boy bo'lgan. Tarixchi Narshaxiy X asrdayoq Buxoroda bir nechta hammomlar bo'lganligidan dalolat beradi. Ular ichida eng mashhuri Darvozai Mansur mahallasidaga «Xon hammomi» hisoblangan. XIX asrlarga kelib Buxoroda 8 ta bozor, 9 ta guzar hammomlari, Xo'jandda guzar hammomlaridan tashqari 2 ta bozor hammomlari ishlab turgan. XIX asr oxirida Samarqand va O'ra Tepaning 7 tadan bozor va guzar hammomlari bo'lgan. Shu davrda Toshkentda 5 ta, Qarshida 4 ta hammomlar ishlab turgan. O'rta Osiyoning qadimiy shahar va qishloqlarida hozir ham tarixiy hammomlar mavjud bo'lib, ulardan xalqimiz nafaqat gigienik, balki shifobaxsh va sog'lomlashtirish maqsadlarida ham foydalanib kelmoqda.

Qadimdan beri ko'p asrlar, zamonlar o'tdi, o'nlab va hatto yuzlab yangi hammomlar, ruscha banyalar qurildi, ammo milliy Sharqona hammomlar azalgidek xalq orasida o'z mavqeyi va mohiyatini saqlab kelmoqda. Xo'sh nega shunday? Hammomlar shuhratining siri nimada?

Bu savollarga javob topish maqsadida, biz O'rta Osiyo shaharlaridagi qator tarixiy hammomlarni, shu jumladan, sobiq ittifoq davrida (tipovoy) loyihalar asosida qurilgan ko'pgina «banya»larni ham ko'zdan kechirib, ularning ish jarayonini tekshirdik, hammomlarga tushgan kishilar va xodimlar bilan suhbatlashdik (hammasi bo'lib 100 ga yaqin hammom tahlil qilindi). Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, eski tipovoy (№2-08-02, №2-08-01, №284-4-21 sp, №127, NKO-3) loyihalar asosida XX asrning 70-80-yillarida qurilgan «banya»larda xalqqa maishiy xizmat ko'rsatish va sog'lomlashtirishdek gigienik vazifa zamona talablariga nisbatan sezilarli darajada ma'naviy eskirgan. Ko'zdan kechirilgan hammomlarda, asosan tag'orada yuvinilib dushga tushiladi va ayrim (№284-4-4 s, №49-130-1 va №2-08-08 loyihalar asosida qurilgan) hammomlarda xususiy obzan (vanna) va dush kabinalari mavjud. Tipovoy banyalarda shifobaxsh xususiyatli xona bu ulardagi birgina bug'xona hisoblanib, u ham bo'lsa tekshirilgan hammomlarning deyarli 40% da ishlaymaydi. Ishlaydiganlarida esa bug' hammomning suvni isitib beruvchi umumiy qozondan truba orqali yuboriladi. Bunday bug'ning sog'lomlashtiruvchi shifobaxsh ta'siri juda past bo'lib, uning inson tanasi va vujudiga foydasidan ko'ra ziyoni ko'proqdir. Shuning

uchun ham vrach-gigienistlar hammomda bunday bug'dan foydalanishni tavsiya etmaydi, chunki u juda past haroratli va kishi organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Aslida tipovoy banyalarda bug'ni «elektr kamenka» yoki «pech kamenka» lardan olish tavsiya etilgan. Ammo xizmatdagi mavjud «banya»lar, odatda, bunday «pechka»lar bilan ta'minlanmagan, ta'minlanganlarida esa ulardan foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, uyida obzani (vannasi) yoki dushi bor oilalar ruscha hammomlarga tushishni xush ko'rmaydilar. Bu kamchilikdan qutulish maqsadida kommunal hammomlarga mutasaddi tashkilotlar turli xil qo'shimcha sog'lomlashtiruvchi xizmat turlarini (fin hammomi sauna, cho'milish uchun mo'jaz hovuzlar, bug' xonali va dushli cho'milish nomerlari, kosmetik xonalar, qahvaxonalar, choyxona va shu kabi zamonaviy funksiyalarni) kiritib hammomlarning samarali ishlashlarini ta'minlashga intilmoqdalar. Ammo bunday ijobiy o'zgarishlar hamma hammomlarda ham maromida amalga oshirilmayotir, chunki bu jarayon o'ziga xos moddiy mablag' va tashabbus talab qilmoqda. Shu boisdan biz kuzatgan ko'pchilik tipovoy hammomlarda bunday ta'mirlash ishlari birday maromda va ijobiy yo'nalishda olib borilmayotir.

Kuzatilgan tarixiy hammomlarda esa (sobiq ittifoq davrida qurilgan xalq hammomlari ham shunga kiradi) shifobaxsh sog'lomlashtirish vazifasining mazmun va mohiyati butunlay boshqacha. Masalan, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent, O'ra-Tepa, Xo'jand, Qo'qon, Kattaqo'rg'on, Xiva, Kosonsoy, Nurota va boshqa qator shaharlardagi tarixiy hammomlarda binoning asosiy cho'milish xonalari pol osti qizitish quvurlari orqali tarqaluvchi issiq havo yordamida isitiladi va natijada nafaqat pol, balki xonalar, ulardagi o'rindiqlar, supalar, bularning barchasi issiq holatda saqlanadi. Xalq hammomlarida o'rindiqlar va supalar tabiiy tosh yoki marmardan ishlangan toshtaxtalar bilan qoplangan. Toshtaxtalar va xonalardagi qurilmalarning issiqlik tarqatuvchanligi tufayli xonalardagi havo qiziydi, qizigan pol va supalarga tushgan suv esa bug'lanib issiq havoga zarur namlik baxshida etadi. Hammom ichkarisiga kiraversangiz cho'milish xonalarning issiq namlik darajasi asta sekin o'zgarib havo harorati oshib boradi, shunga mos ravishda xonalarning vazifalari ham o'zgarib boradi.

Bu haqda O'rta Osiyolik ulug' tabib Abu-Ali Ibn Sino o'rta asrdayoq shunday yozgan edi: «Birinchi xona sovitadi va ho'llaydi, ikkinchi xona isitadi va ho'llaydi, uchinchi esa isitadi va quritadi». Xonalarning issiqlik namlik holati orasidagi bunday farq cho'miluvchilarning

o'z mijoz va ta'biga ko'ra hammom xonalarini tanlashga imkoniyat beradi. Ibn Sino hammomlardagi asosiy xonalar haqida yozgan xolos. U o'zining bu fikri bilan o'sha davr hammomlarining tuzilishidagi doimiylikni va xonalar orasidagi zarur aloqadorlikni ko'rsatmoqchi bo'lgan. Hammomlarda harorati mo'tadil xonadan asta sekin o'rtadagi iliq xona orqali issiq xonaga, so'ngra xilvat xonaga o'tib cho'milish zarurligini «Qobusnoma» muallifi Kaykovus ham taklif etadi. Ibn Sino va Kaykovuslarning ushbu ko'rsatmalariga me'morlar X–XI asrlardan keyingi davrlarda ham amal qilishgan ko'rinadi, chunki yaqin Sharq va O'rta Osiyo hammomlarining funksiyaviy tuzilishidagi doimiylik va bir-biriga o'xshashlik hozirgacha muqim saqlanib kelmoqda. Ushbu xalqlar hammomlari orasidagi juz'iy farqlarni esa joylardagi me'moriy maktablar va muayyan ijtimoiy buyurtmalar tufayli ro'yobga chiqqan deb tushuntirish mumkin.

Darhaqiqat, O'rta Sharq mamlakatlari hammomlarining keyingi o'rta asrlardagi qurilishida, hatto ular shahar ijtimoiy hayotining ajralmas sog'lomlashtirish shifobaxsh udumiga aylangan davrlarga kelib ham, o'sha qadimiy tartibot va o'ziga xoslik, ya'ni mo'tadil iliq va issiq xonalar tizimi saqlanib qolgan.

O'rta Osiyo hammomlarining tarixiy shakllangan to'liq doimiy xonalar tarkibi quyidagilardan iborat: 1 – yechinish xonasi (chorxari); 2 – lungi xona; 3 – yuvinish va dam olish xonasi; 4 – markaziy zal (katta gumbaz, kinnik yoki buxorocha miyon saroy); 5 – xodimi xona (uqalash xonasi); 6 – issiq xona yoki buxorocha garm xona; 7 – sovuq xona yoki xunuk xona; 8 – suv xonalari (odatda ular ikkita: issiq va sovuq suv xonalari, obi garm va obi xunuk); 9 – olov xona (hamma).

Yuqorida sanab o'tilgan asosiy xonalardan tashqari tarixiy hammomlarda, ko'pincha, uncha katta bo'lmagan xususiy tozalanish xonasi «poki xona»ni va onda-sonda mo'jazzgina «hojat xona» ni ham uchratish mumkin.

Yechinish xonasi, odatda, baland, katta kvadratga yaqin to'rt burchakli rejaga ega keng zal hisoblanib, ko'pgina vazifalarni bajaradi: unda kiyimlar yechiladi, hammomdan so'ng dam olinadi, choy ichilib, hordiq chiqariladi, suhbatlashiladi. Ilgarilari yechinish xonasi madaniy «klub» vazifasini bajarib, unda turli yangiliklar haqida suhbatlashilgan, soch olingan, hordiq chiqarilib, shaxmat yoki nardada o'ynalgan, choy yoki qahva ichilgan, boloxonaga o'tib bir oz uxlab, dam olingan. Shuning uchun ham yechinish xonasi baland va keng qilib qurilgan.

Yechinish xonasidan keyingisi – bu «lungi xona» hisoblanib, unda qadimda ichki kiyimlarni yechib, belga lungi olingan. Shuni aytish kerakki, Oʻrta Osiyoda, islom qoidalariga binoan, boshqalar oldida ichki kiyimlarni yechish noodoblik hisoblangan. Qadimiy kitoblarning birida jamoa hammomlarida oʻzini tutish qoidasi haqida maxsus gapirilib, unda suvni ob xonadan ehtiyotkorlik bilan olib, boʻlar-boʻlmasga ishlatmaslikka, shaloplatmaslik, choʻmilganda qoʻshniga suv sepmaslikka harakat qilish tavsiya etiladi. Choʻmiluvchilarga badanning oʻrta qismi – «ovrot»ni koʻrsatmaslik, uni uzoq vaqt yalongʻoch qoldirmaslik uqtiriladi. Shuning uchun ham choʻmiluvchilar ichki kiyimlarini xilvatda, lungi xonada yechishib, shu yerning oʻzida ovrotni yopish uchun lungi olishgan va uni belga bogʻlab keyingi yuvinish xonalariga oʻtishgan. Hammomda belga lungi bogʻlash odati hozir ham, ayniqsa, kekxa yoshdagi kishilarda saqlanib qolgan, biroq endi hamma chorxarida yechinib, shu yerning oʻzida lungi olishmoqda. Demak, endi lungi xonaga hojat yoʻq. Ammo bu xonaning muhim boshqa vazifalari ham bor, u boshqa yuvinish xonalariga nisbatan biroz salqin. Shuning uchun ham unda issiq choʻmilish xonalaridan chorxariga chiqish oldidan oyoqlar yuviladi yoki ora sirada nafasni rostlab biroz dam olinadi. Shu boisdan u koʻpchilik Oʻrta Osiyo milliy hammomlariga xos.

Keyingi xona birinchi yuvinish xonasidir. Uning harorat namlik darajasi nisbatan moʻtadil-iliq. Shu bois issiqqa chidash bera olmaydiganlar bu xonada yuvinishlari yoki yotib uqalanishlari mumkin. Shuningdek, unda hammomning boshqa issiq xonalariga oʻtishdan oldin, tanani harorat oʻzgaruviga (issiqqa yoki salqinga) mostlab olinadi. Shunday qilib, lungi xona va birinchi yuvinish xonasi salqin va iliq haroratdan issiq choʻmilish xonalariga oʻtishda oʻziga xos tayyorlanish va tanani issiqqa moslashtirish vazifasini bajaradi.

Navbatdagi xona markaziy choʻmilish xonasi – «katta gumbaz»dir. Katta gumbaz oʻzining oʻlchamlari va meʼmoriy koʻrinishi bilan boshqa yuvinish xonalaridan ajralib turadi, u baland, keng va yorugʻ. Bu zal koʻrinishidagi xona boʻlib, tarhda burchaklari kesilgan kvadrat shakliga ega. U bir yoki ikki yonidagi toʻrtburchak xonalarga keng ravoqlar bilan shunday ochilganki, ular katta gumbazga nisbatan goʻyo keng va chuqur taxmonni eslatadi.

Katta gumbaz harorati deyarli issiq. U xalq hammomlarining asosiy bosh choʻmilish xonasi hisoblanib, muhim shifobaxsh-gigienik vazifalarni

bajarishga mo'ljallangan: dastlabki terlash, uqalashga badanni tayyorlash, uqalanish va yuvinish. Ushbu jarayonlarning barchasi zal o'rtasidagi to'rt yoki sakkiz burchakli keng supada, devorlar bo'ylab o'rnatilgan supa o'rindiqalar va zal burchaklarida joylashgan taxmonlarda bajariladi. Biz kuzatgan xalq hammomlaridagi katta gumbaz o'lchamlari quyidagicha: eni 3,8 dan 7,2 metrgacha (5 dan 6 metrgacha o'lchamdagilar ko'proq uchraydi), balandligi (poldan gumbaz tepasidagi deraza o'rnigacha), asosan, zalning yuzasiga bog'liq bo'lib, 4,3 dan 5,6 metrgacha o'lchamlarga ega. Katta gumbaz o'rtasidagi supa ko'p hollarda sakkiz qirrali bo'lib, balandligi 40–50 santimetrni tashkil qiladi.

Katta gumbazga birikkan yonbosh xona maxsus uqalanish xonasidir. Yonbosh xonalar ikkita bo'lgan hollarda ulardan biri (kengrog'i) hammomda cho'miluvchilar uchun masjid vazifasini o'tagan, hatto bu xonada mehrob ham bo'lgan. Gap shundaki, islom aqidasi ko'ra musulmonlarga nomoz vaqti hammomdaligida to'g'ri kelsa, ular ushbu xonaga yig'ilishib beliga lungi bog'lagan holda ikkinchi lungini polga joynomoz tarzida to'shab mehrobga qarab nomoz o'qishgan. Shu boisdan ham hammom masjidining mehrobini, odatda, Makkaga, ya'ni janubi g'arbga qarab qurganlar. Nomozdan holi vaqtlar ushbu xonada «xodimi», ya'ni uqalanish xizmati bajarilgan. Xodimi cho'miluvchiga, odatda, yotgan holida bajarilgan.

Katta gumbazdan keyingi yuvinish xonalari, odatda, ikkita: issiq va sovuq xonalardan iborat. Ayrim hammomlarda bunday xonalar uchta: sovuq, iliq va issiq yoki bitta sovuq va ikkita harorati bir-biridan oshib boruvchi issiq xonalar (masalan, Toshkentning eski Maxsido'zlik ko'chasidagi hammomda, Samarqanddagi Hujum hammomi, Shahrisabzning eski hammomi va Qarshi shahridagi qadimiy hammomlarda) uchraydi. Ammo ko'pchilik mahalla, ya'ni guzar hammomlarida bunday xonalar asosan ikkita: issiq va salqin xonalardan iborat. Bunday hammomlarda iliq cho'milish xonasi vazifasini boshqa xonalar bajaradi.

Sho'milish xonalaridan keyin ularga tutash holda issiq va sovuq suv xonalari joylashgan. Bu xonalar ham ayrim hollarda uchta: issiq, iliq va sovuq suv «hovuz»laridan iborat. O'tmishda yuvinish uchun suv ushbu hovuzlar devorlaridagi darchalardan cho'michlab olingan. Issiq suv hovuzi sovuq suv hovuzidan, odatda, katta ishlangan. Hozirgi xalq hammomlarida issiq va sovuq suv barcha xonalarga suv quvurlari orqali tarqatiladi. Hammomning har bir yuvinish xonasi o'z funksiyasiga ega. Sovuq xonada sovuq suv bilan yuvinish, badan sovutiladi. Ushbu

xonadagi to'silgan bo'lmalar (kabinalar)da ovrot va qo'ltiq yunglaridan tozalanish uchun maxsus joy ajratilgan. Biz yuqorida keltirgan «Qobusnoma» da ushbu xona «xilvat xona» deb nomlangan. Gap shundaki, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom inson tanasining pokligi va gigienasiga katta e'tibor berib, besh narsa fitratdandir, ya'ni: 1) xarom tuklarni olib yurish; 2) xatna qildirish; 3) mo'ylabni qisqartirib turish; 4) qo'ltiq ostidagi yunglarni olish; 5) tirnoqlarni olib yurish «inson bajarib yurishi lozim bo'lgan narsalardir», degan.

Shuning uchun ham Sharqona musulmon hammomlarida yuqoridagi cho'milish, terlash va uqalanishdan tashqari gigienik muolajalarni bajarish uchun, ayniqsa, ovrotdagi xarom tuklarni va qo'tiq ostidagi yunglarni olib tashlashga mo'ljallangan maxsus xilvat xonalar tashkil qilingan.

Issiq xonadagi yuqori haroratda cho'miluvchilar keng issiq marmar supalarda yotib yoki o'tirib g'alt-g'alt terlashib, issiq suvga yuvinishgan. Bu yerda shuni aytish o'rinliki, xalq hammomlarida terlash uchun bug'xona vazifasini issiq xonadan tashqari markaziy yuvinish zali – katta gumbaz ham to'liq bajara oladi. Shu boisdan bo'lsa kerak, ayrim mualliflar uni bug'xona deb ataydilar. Ammo issiq xona va katta gumbaz havosining harorat namlik holati orasidagi farq ancha sezilarli va buning ustiga issiq xonadagi keng va enli issiq supalar unga ko'proq bug'xona vazifasini bajarishga imkon tug'diradi. Lekin hamma kishilarga ham issiq xona harorati to'g'ri kelavermaydi va ular ko'proq katta gumbazda yuvinishadi.

Yuvinish xonalari ortidagi issiq suv hovuzi ostida olov xona – «gulax» joylashgan bo'lib, unda o't yoqilib hovuzdagi suv isitiladi va, ayni paytda, ushbu issiq havo pol ostidagi kanal-quvurlarga tarqalib xona, pol, barcha supa va o'rindiqlarni isitadi. Pol osti kanallarining kengligi va tig'izligi turlicha bo'lganligi sababli xonalar turlicha isiydi. Isitish kanallari orqali o'tayotgan issiq havo devorlar ichida joylashgan tik mo'rilar orqali havoga so'riladi. Mo'rilar hammom tomlaridan 1–1,5 metrgacha yuqoriga ko'tarilib turadi. Mo'rilarining soni hammom xonalari va tarhining tuzulishiga bog'liq. Hammomda toshtaxta va marmarlardan ishlangan pol, supa, o'rindiq va taxmonlardagi issiqlik odam badaniga shifobaxsh ta'sir ko'rsatadiki, bu inson oyoqlari mushaklar, yelka, ko'krak va suyaklarga juda xush yoqadi.

O'rta Osiyo hammomlarida cho'milish jarayoni, ayniqsa, qiziqarlidir. Badan yengil terlab olingach qo'lga paxmoqli jun matodan tikilgan qo'lqop xaltacha kiyib olinadi va u suvda yengil ho'llanib, badandagi kir ishqalanadi. Kir ko'chgach badan iliq suv bilan yuvilib tashlanadi.


Buning uchun metall tog'ora, ilgarilari esa yog'och tog'ora (jom) ishlatilgan. Hozirgi mavjud xalq hammomlarida tog'ora badanni sovunlab yuvish uchun ishlatiladi, cho'milish uchun esa dushdan foydalaniladi. Ilgarilari Buxoro hammomlarida boshni yuvish uchun tovuq tuxumidan foydalanilgan bo'lsa, Termiz hammomlarida buning uchun qatiq ishlatilgan. Ayniqsa, hammomlardagi massaj (uqalanish) kishiga orom beruvchi shifobaxsh vosita hisoblangan, uqalanishdan so'ng tana va suyaklar rohat olgan. Buxoroda hammom xodimi massaj qilinayotgan kishi badaniga qichishga qarshi qatiq surtgan, oyoq og'rigi bor kishilarga qush moyi yoki yelkasiga ot yog'i surgan. Hammomlardagi cho'miluvchilar xizmatiga «xaltador» – hammomchilar doim tayyor turgan. Ular massaj qilishni ham qoyillatib bajarganlar. Ulardan tashqari maxsus «xodimchi»lar bo'lgan. Massaj kishini ko'pgina dardlardan forig' etgan, unga yangi kuch va quvvat baxsh etgan.

XIX asrda Buxoro hammomlarida bajarilgan massaj tartibi haqida rus sayyohi I. Yavorskiy shunday yozadi: «Yuvintiruvchi uzoq vaqt meni tutib, suyak va mushaklarimni barmoqlari bilan ezdi. So'ngra u qo'llarim, oyoqlarim, gavamni bor kuchi bilan cho'za boshladi. Bo'g'inlarim charsillar va sharqillar edi, ammo bu muolajalar shunchalik tadbirona bajarilar ediki, hatto kuchli cho'zilishlardan so'ng ham mushaklarim jinday og'riq sezmasdi. Massaj nihoyasidagi zarur muolajalardan biri bu xodimchining butun badan, yelka, qorin bo'ylab yurib chiqishi va so'ngra badanni chavaqlashidir.

Shavaqlash – bu shunday narsaki xodimchi qo'llarining yon qirralarini badanga ko'ndalang tarzda tutib, mushaklarni jadallik bilan ura boshlaydi, u go'yoki badanni qo'llari bilan chavaqlayotganga o'xshaydi. «Yurib chiqish»dan men voz kechdim, ammo «chavaqlash»ni mamnunlik bilan qabul qildim. Shavaqlashdan va, umuman, yuvintiruvchining harakatlaridan so'ng o'zimni qushdek yengil his etdim». Hammom-



Xiva. Anushxon hammomlari umumiy ko'rinishi.



Xiva. Anushxon hammomlari tarhi va qirqimi.

larda xodimchilar tomonidan katta mahorat bilan bajariladigan bunday massaj turlari hozirda ham zamonaviy xalq hammomlarida saqlanib qolgan. Jumladan, Samarqandda uchta eski hammomda yettita xodimchi ishlab kelmoqda. Ulardan ikkitasining, ya'ni M. Po'latov va F. Najmiddinovlarning fikricha, bu kasb ularga ota-bobolaridan meros qolgan. Massajdan so'ng yuvinib, lungi xonaga o'tiladi, biroz nafasni rostlab dam olinadi, oyoqlar yuviladi va chorxariga, ya'ni yechinish xonasiga chiqiladi.

O'rta Osiyo hammomlarini qurishdagi umumiy uslublar va asosiy me'moriy qoidalar quyidagilardan iborat:

1) bino fazoviy me'moriy ko'lamining berkligiga, yuvinish xonalarining tarhda zich va ixcham joylashishiga yerishish;

2) yuvinish xonalarini yopish uchun gumbazsimon va ravoq tomlar, yechinish xonalari uchun esa tekis tomlar qo'llash;

3) o'ziga xos pol osti va suv isitish tizimini qo'llash, hammom xonalari, poli va suvini isitishda tejamkorlikka yerishish;

4) ho'l va issiq rejimdagi xonalarning devorlarini tashqi muhit ta'siridan saqlash: buning uchun ularni tarhda quruq yoki namroq rejimdagi xonalar bilan yonma-yon joylashtirish;

5) sog'lomlashtiruvchi shifobaxsh-gigienik xonalarning turg'unligi va ularning o'zaro qulay funksional bog'lanishini ta'minlash: rostlanish xonasi, iliq yuvinish zali va massaj uchun supalar, undan issiq va sovuq xonalarga o'tish;

6) xonalarni namlik va issiqlik haroratiga qarab orientatsiyalash: nam va ho'l xonalarni janub yoki janubi g'arb tomonga, quruq xonalarni esa shimol yoki shimoli sharqqa qaratish;

7) hammomni qurishda mahalliy qurilish materiallaridan keng foydalanish.

Yangi qurilgan hammom haqidagi xabarni xalq har safar mamnunlik bilan kutib olgan, chunki u sog'liq-salomatlik va tozalik ramzining yana bir yangi maskaniga ega bo'lgan. Hammom qurilishining tugallanganligiga bag'ishlab ilgarilari hatto ayrim amaldorlar ziyofatlar uyushtirishgan. Masalan, XV asrning birinchi yarmida Shayx al-Islom degan kishi Samarqandda hammom qurilishining tugashiga atab xalqqa ziyofat bergan. Qizig'i shundaki, unda erkaklardan tashqari xotin qiz ashulachilar ham qatnashgan.

Hammomlar haqida gapirar ekanmiz, Samarqanddagi Registon maydoni atrofida Mirzo Ulug'bek qurdirgan hammomning o'rni xususidagi muammoga to'xtalib o'tmoqchimiz. Gap shundaki, bu hammom bizgacha yetib kelmay, adabiyotda hatto uning joylashgan o'rni haqida ham aniq ma'lumotlar yo'q. Bobur Ulug'bekning Samarqandda qurdirgan imoratlari haqida yozaturib: «Ulug'bek Mirzoning imoratlaridan Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqohdir. Ushbu madrasa va xonaqohga yovuq bir yaxshi hammom solibtur. Mirzo hammomiga mashhurdir, har nav toshlardan forshlar qilibtur. Xuroson va Samarqandda oncha hammom ma'lum emaskim bo'lgay. Yana bir madrasaning janubida bir masjid solibtur, masjidi Muqatta' derlar...», deb tushintiradi. Bobur Ulug'bek hammomini maqtashga maqtagan-u, lekin uning o'rnini aniqroq ko'rsatmagan, ammo Muqatta' masjidini «madrasaning janubida»deb aniq ko'rsatgan.

Xo'sh «madrasa va xonaqohga yovuq», ya'ni yaqin joylashgan hammom kaerda bo'lgan? M.B. Masson XVI asrga oid Samarqand Registonidagi imoratlarning joylashish rejasini ishlab chiqib, Ulug'bek hammomini Muqatta' masjidining g'arbiy qismiga, ya'ni hozirgi Ulug'bek madrasasining janubi g'arbiy tomoniga joylashtiradi.

1974-yili aynan shu joyda, ya'ni Ulug'bek madrasasining orqa tarafida joylashgan xiyobonni qurish uchun unga joy tekislash paytida yer ostidan qadimiy bino qoldiqlari chiqib qoladi. Sinchkov arxeologlar bino qoldiqlari hammomga tegishli ekanligini aniqlaydilar, chunki ular qazilmadan hammom pol osti isitish tizimining bir qismini, o'txona, suv saqlovchi rezervuarlar, XV asrga tegishli bir qancha singan yupqa idishlar, qayroq toshlar to'plami va rangli naqshin qoplama taxtachalar topib oladilar.

Topildiqlar orasida og'irligi 1 kg, diametri 9 sm lik bilyard toshiga o'xshash marmar tosh ham bor ediki, bu topilmalar birgalikda ushbu hammomni oddiy hammomlardan bo'lmay, balki alohida e'tibor bilan qurilgan tantanavor hammomlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Qayroq toshlar hammom tarkibida sartaroshxona bo'lganligini ko'rsatsa, rangdor naqshli qoplama taxtachalar hammom poli va devorlariga ishlatilganligini bildiradi. Marmar tosh esa hammomga tushganlarning yuvinishdan so'ng o'ynab, dam olishganligidan darak beradi. Xullas, arxeologlar ushbu hammomni Ulug'bek qurgan va keyinchalik Bobur yozib qoldirgan «Mirzoi hammomi» deb hisoblaydilar. Darhaqiqat topilgan hammom Bobur ko'rsatganidek «madrasa va xonaqohga yovuq», ya'ni madrasaga yaqin joylashgan va madrasaning xonaqoh tarafidir. Bordi-yu biz arxeologlar fikriga qo'shilmay, Ulug'bek hammomini uning yuqorida eslatilgan karvon-saroyi qoshida qurilgan deb o'ylasak, unda Bobur hammomni madrasa va xonaqohga yaqin emas, balki karvon-saroyga yaqin deb ko'rsatishi kerak edi. Demak, hozircha arxeologlar fikriga qo'shilmay ilojimiz yo'q.

Endi Samarqand xalqiga mashhuru-ma'lum bo'lgan, Tillakori masjid madrasasining yonginasida uning shimol tarafida joylashgan, Registonda avvalgi «Yubileyniy» restoranini qurish munosabati bilan 1961-yili buzib yuborilgan ko'p gumbazli hammomni eslaylik. Ushbu hammom joylashgan joyda ilgari sandiq bozori mavjud bo'lib, hammom «hammomi bozori sanduq» deb atalib kelgan. Ushbu hammomda ishlagan xodimlar bilan qilgan suhbatimizdan ma'lum bo'lishicha, hammom el yurtga o'zining bahavoligi, chiroyliligi va, ayniqsa, tozaligi bilan mashhur bo'lib, uning oqava suvlari ichiga tushsa, hatto odam sig'adigan «tazar» (yonlari tosh, usti esa ravoq shaklida pishiq g'isht bilan yopilgan keng quvur) orqali oqizilib ketilgan. Hammomning rejayiy tuzilishi biz yuqorida ta'rif etgan milliy hammomlarga monand bo'lgan. Uning qurilish tarixi quyidagicha.

XVII asrning 50-yillarida Yalangtush Bahodir Tillakori masjid-madrasasini Ulug'bek karvon-saroyi o'rniga qurdiradi. Madrasa binosi yonidan esa unga vaqf tarzida ushbu hammom binosi bunyod etiladi. XIX asr boshlarida bu hammom avariya holiga kelib qolib, uni Madrahimboy ismli kishi ta'mir ettiradi. Shuning uchun ushbu hammom «Madrahimboy hammomi» ham deyilgan. Aslida esa u XVII asrda Yalangtush Bahodir tomonidan qurilgan bo'lgan.

Hammomlar o'tmishda nufuzli jamoat maskani bo'lgani sababli ularni mohirona bezashga e'tibor berishgan. Hammomlardagi naqshu nigorlar ularning xizmat ko'rsatish doirasiga bog'liq bo'lib, odatda, hukmdorlar uchun qurilgan va saroylar qoshidagi hammomlar g'oyat hashamdor qilib bezatilgan. Oddiy xalqqa xizmat qiluvchi hammomlar esa sodda, ornamental naqshlar bilan hashamlangan. Ma'lumki, XI asr oxirlaridan boshlab islom dinining sobiq akobirlari binolarga tirik jonivorlarning rasmini solishni keskin qoralaganlar. Shu sababli hammomlardagi naqshlar ham tirik jonni ifoda etmasligi shart bo'lgan. XVI asrga oid ayrim miniatyuralarda ifodalangan hammomlardagi devorlarda ornamental naqshlardan tashqari farishta husnli afsonaviy qushlar tasviri ham uchraydi. Ma'lumki, farishta Sharqda go'zallik, soflik, salomatlik va muhabbatga eltuvchi manba timsoli bo'lgan. Shuning uchun ham farishtalar tasvirini Sharq rassomlari hammomlarga bag'ishlangan miniatyuralarda qo'llashgan.

Hammom qurilishidagi xalqchil an'analar zamonaviy xalq hammomlarida ham keng qo'llanib, takomillashtirilib kelmoqda. Hammomlar faqat xalq me'morchiligida rivojlanib qolmasdan, balki loyiha institutlari va tashkilotlari tomonidan ham ishlanib kelmoqda. Keyingi yillarda O'rta Osiyo davlatlarida qishloq va tuman markazlari, shaharlar uchun mo'ljallangan bir qancha xususiy va namunaviy loyihalar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Ularda o'tmish hammomchilik san'atiga xos milliy an'analar takomillashtirilibgina qolmasdan, balki qator hammomlarda shifobaxsh-gigienik va sog'lomlashtirish funksiyalari, yangi texnik jihozlar, dam olish, choy ichish va tamaddi qilish xonalari mavjud. Havosi quruq va issiq bug'xona-saunalar, shifobaxsh dush bo'limlari, cho'milish basseynlari, suzish uchun hovuzlar, yakka tartibda cho'milish va bug'lanish nomerlari, choyxona va kosmetik xonalar shular jumlasidandir.

6.4. Obzanlar

A.S. Uralovning nomzodlik dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston shaharlarida qurilgan xalq hammomlari bilan bog'liq edi. U 1971–1974-yillarda Kiyevda aspiranturada o'qib yurgan kezarida unga ustozlik qilgan olimlar O'rta Osiyo xalqlari vannani va unda cho'milish madaniyatini Yevropadan o'rgangan, chunki O'rta Osiyoda vanna qadimda bo'lmagan deb tushuntirgan edilar. A. Uralov ularga o'shanda O'rta Osiyoliklar hammomni va unda cho'milishni qadim zamonlardan boshlab bilgani haqida dilillar keltirgan bo'lsam-da, biroq vanna masalasida e'tiroz bildira

olmagan edi. 1990-yilga kelib uning qo'limga O'rta Osiyoda X asrda yashab ijod etgan Abu Mansur al-Kumrining «Kitab at-tansir fi-l-istilohat at-tibbiya» («Tibbiy atamalar va unsirlar lug'ati») asaridan tarjima qilingan ayrim ma'lumotlar tushib qoladi. Ularga ko'ra, O'rta Osiyo xalqlari X asrdayoq vannani bilgan, uni mahalliy tilda «obzan» deb atagan va nafaqat unda cho'milishni, balki undan foydalanishning boshqa usullarini, jumladan, tanani sog'lomlashtirish va bemorlarni davolash jarayonida qo'llash uslublarini ham bilishgan. Ibn Sino o'zining X asrda yozgan mashhur «Tib qonunlari» asarida ham obzandan tibbiy maqsadlarda foydalanishning qator uslublarini ko'rsatib o'tgan. Biroq, u obzanning o'ziga tavsif bermagan. Bundan chiqadiki, Ibn Sino davrida O'rta Osiyo xalqlari obzanni yaxshi bilishgan. Biz e'tiborimizni o'sha obzanlardan birontasi bizgacha saqlanib qolganmi? degan savolga qaratdik. Fikrimizcha bunday obzanlar Ibn Sino davrida qurilgan xalq hammomlarini jihozlashda yoki shifoxonalarda saqlanib qolishi mumkin edi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra X asrda Taroz shahrida qurilgan hammomda bir necha obzanlarning qoldiqlari topilgan. Ular silliq toshdan ishlangan. «kir» (suv o'tkazmaydigan maxsus qorishma) bilan suvalgan va hammom poliga o'rnatilgan bo'lib, alohida muolaja xonasini tashkil qilgan. Ularning o'lchamlari hozirgi zamonaviy vannalarga yaqin bo'lgan. Keyingi o'rta asrlarda qurilib arxeologik qoldiqlari bizgacha saqlanib qolgan boshqa O'rta Osiyo hammomlarida (masalan, Axsikent, Toshkent, Samarqand, Shoxjuvar shahri hammomlarida) vannani eslatuvchi jihozlar uchramagan. Shuning uchun ilm-u fanda keyingi davrlargacha X asr O'rta Osiyo obzanlari haqida to'liq tasavvurga ega emas edik. Abu Mansur al-Kumrining yuqorida eslatilgan kitobi bu haqdagi tushunchalarimizni aniqlashtirishga yordam beradi. Chunki unda obzanga tegishli barcha tafsilotlar yozma shaklda berilgan. A. S. Uralov ana shu tarixiy manbaga va Taroz shahri hammomi qoldiqlariga asoslanib, X asr O'rta Osiyo obzanining fanda ilk bor grafik rekonstruksiyasini yaratadi. U zamonaviy vannaga juda o'xshab ketadi: uzunligi 135–170 sm atrofida, balandligi 47–50 sm, eni esa o'tirgan odam elkasining kengligidan kattaroq. Obzan kumush, mis va shunga o'xshash ma'danlarning aralashmasidan ishlangan. Obzanning yog'ochdan qopqog'i bo'lib, undan odamning boshi tashqariga chiqib turgan. Obzan ichiga issiq suv quyilib, unga turli xil shifobaxsh o'tlar tashlangan. Suv tayyorlangach, obzanga odam kiritilib va o'tkazilib, yog'och qopqoq shunday yopilganki, undan odam boshi tashqariga chiqib turgan.

Yana bir tarixiy ma'lumot. Siz O'rta Osiyo xalqlarining o'tmishda issiq havoli «quruq hammom»dan foydalanganini eshitgansizmi? Yo'q. Shunki «quruq hammom» deganda biz faqat fin hammomi – «sauna»ni tushunamiz. Vaholanki, X asrda O'rta Osiyo tabiblari ayrim bemorlarni davolashda o'ziga xos ajoyib quruq hammomdan foydalanishni tavsiya qilganlar.

Abu Mansurning o'sha kitobida aynan shunday hammom haqida yozma ma'lumotlar berilgan. Unga ko'ra bunday hammomni tashkil etish uchun kir yuvish jomiga o'xshash keng silindrik jom yasalib, uning ichiga yog'och stul qo'yiladi. Jom usti ikki teng bo'lakdan iborat yog'och qopqoq bilan yopilgan bo'lib undan stulga o'tirgan odamning boshi tashqariga chiqib turadi. Shundan so'ng yerdan ushbu jom sig'adigan balandlikda chuqur kovlab, jom shu chuqurga o'rnatiladi. Keyin jom chetidan aylanasiga eni bir tirsak (50–60 sm) yer qoldirib, uning atrofidan ham yana shuncha va balandligi jom bo'yidan bir tovon (20–22 sm)ga ziyod bo'lgan aylanma chuqur kovlanadi. Shu chuqurga harorati yerdan o'tib jomni isitadigan, unda quruq issiq havo hosil qiladigan, biroq, odam tanasini kuydirmaydigan darajada olov yoqiladi. Shundan so'ng odam jom ichiga, ya'ni quruq hammomga tushirilib, stulga o'tqaziladi va ustidan ikki bo'lakli yog'och qopqoq yopiladi. Shunda odam kallasi qopqoq tashqarisida qolishi shart. Shu zaylda hammom ichida odam terga botguncha o'tiradi va keyin tashqariga chiqariladi. Kitobdagi ushbu yozma ma'lumotlarga asoslanib, A. S. Uralov O'rta Osiyoda X asrlarda qo'llangan bunday hammomning grafik rekonstruksiyasini ishlab chiqdi.

XX asr o'rtalarida Yevropada «jomadon-hammom» nomli antiqa ixtiro e'lon qilinadi. U elektr quvvatida ishlab, mo'jaz hammomni va tashqi ko'rinishidan kattakon jomadonni eslatadi. Jomadon ichida stul mavjud bo'lib, quruq issiq havo vujudga keladi va unga kirib o'tirgan odam qattiq terlaydi. Bu ixtiro aslida X asr O'rta Osiyo quruq hammomi zaylida ishlanib, jomadon ichiga kirgan odamning boshi maxsus teshikdan tashqarida qoladi va muolaja paytida bemalol gaplashib va televizor ko'rib o'tirish imkoni yaratiladi. Ko'rib turibmizki, bu ixtironing ilk ibtidosi uning Yevropada yaratilishidan salkam ming yil oldin O'rta Osiyoda ma'lum bo'lgan, qo'llangan va u o'sha davrda al-Qumri tomonidan yozilgan kitobga muhrlab qoldirilgan.

Shunday qilib, O'rta Osiyo xalqlari qadim moddiy madaniyati va davolash-shifobaxsh qurilmalarining shu choqqacha arxitektura tarixi

va nazariyasiga noma'lum bo'lgan muhim ikki turi – obzan va quvq hammom ixtiro qilindi va ularning grafik rekonstruksiyalari ishlab chiqilib, ilmiy muomalaga kiritildi.

6.5. Garmobalar

«Garmoba» – forscha so'z bo'lib, «issiq suv» ma'nosini bildiradi. O'tmishda O'rta Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlarida tabiiy issiq chashmalar qoshida qurilgan inshootlar ana shunday nom bilan atalgan. Tabiiy muolajalarga, jumladan, shifobaxsh buloqlarga odamlar qadindan ixlos qo'yib kelishgan. Gippokrat va Aristotel ham bardam bo'lish va uzoq umr ko'rishning asosiy sharti issiqlik va suvdan foydalanishdir, deb ta'kidlagan. Qadimgi hindlar, yunonlar va skiflar mineral suv va shifobaxsh balchiq bilan davolash usulidan, ya'ni balneodavodan keng foydalanishgan.

Qadim zamonlarda hatto ibodatxonalar ham mineral va chashma buloqlar qoshiga qurilgan. Bu yerga ibodatga kelgan odamlar bir yo'la balneodavo ham olishib sog'ayib ketishgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Farg'ona vodiysining o'troq aholisi uzoq o'tmishda bu yerdagi Hazrati Ayub (hozirgi Jalolobod) mineral buloqlarining borligini bilgan va ulardan unumli foydalangan.

Dushanbe shahridan 52 km shimolda Gushori qishlog'i yaqinida joylashgan shifobaxsh buloqlar tarkibida qimmatbaho radiaktiv moddalar borligi aniqlanib, ular qoshida keyinchalik Xo'ja Obigarm suv shifoxonasi tashkil etilgan. Dastlab bu yerda ikkitagina issiq havza bo'lib, kelgan bemorlar ularga tushib, shifo topib ketishgan. Hozirgi vaqtda Obigarm kurorti ancha kengayib, bu yerda o'nlab zamonaviy shifobaxsh hovuzlar va balneodavolar qurilgan.

Ba'zida bunday shifobaxsh garmobalar o'tmishda o'ta katta o'lchamlarga ham ega bo'lib, hatto o'ziga xos me'moriy kompleks (majmua)larni ham tashkil qilgan. Shunday garmobalarning biri IX asrda Kichik Osiyoning Darauliy vohasi (Turkiyaning Sharqiy qismida) qurilgan bo'lib, unda issiq va sokin chashma suvlari ustiga bir necha yirik gumbazli binolar ishlangan. Har bir binoda bir yo'la 1000 kishi cho'milgan, binolar soni 7 ta bo'lgan. Garmoba hovuzlarining chuqurligi odam ko'kragigacha yetgan. Ortiqcha suv garmoba hovuzlaridan chiqib ko'lga oqib turgan. Ushbu garmobalar kompleksiga hozirgi me'zonlar bilan qaralsa, ular jo'ngina bir suv shifoxonasi kurortini yoki balneodavosini tashkil etganligini tushunish qiyin emas.

Tarixchi Mui'niddin Isfizariy temuriy Sulton Husayn Boyqaroning (1438–1506) Hirot shahri yaqinida Gerirud daryosi vohasidagi bunyodkorlik ishlari haqida shunday yozadi: «U yerdagi tog' etagida, Ob qishlog'i yonida issiq chashma bo'lib, u yaqin va uzoq mavzeldagi turli dardlarga chalingan ko'p odamlarni qiziqtirgan. Sulton Husayndan oldingi hukmdor Abu Said Mirzo (1455–1469) bu chashma qoshida katta mustaxkam bino qurdirgan edi. Biroq, Sulton Husayn bu binoni qaytadan kengroq va balandroq qilib, atroflariga park, gulzor va bog'lar qurib, uni necha bor kengaytirdi». Ko'rinib turibdiki, bu garmoba binosi ham juda salobatli me'moriy inshoot ko'rinishida, xalq shifobaxsh muassasasi tarzida qurilib tashkil topgan. Xuroson xalqining undan XIX asrning boshlarigacha foydalanib kelganligi haqida tarix guvohlik beradi.

Ana shunday xalq shifoxonalari (garmobalar) o'tmishda O'zbekiston hududida ham ko'p qurilgan. Bu jihatdan, ayniqsa, Farg'ona vodiysi mashhurdir. Qaynarbuloq, Sho'rsuv, Changara, Chimyon, Chortoq va Xojaobod kabi shifobaxsh chashmalar qoshiga mahalliy aholi qadimdan boshlab garmobalar qurib kelgan. Bunday garmobalar ba'zida shaharlarda ham bino etilgan. Tojikistondagi Obigarm, Farg'onadagi Chortoq va Chimyon, Qirg'izistondagi Jalolobod shaharlarining suv shifoxonalari shular jumlasidandir. Hozirgi vaqtda bu shaharlardagi dastlabki garmobalar zamonaviylashib va kengayib, yirik kurortlarga aylantirilgan.

O'rta Osiyo xalqi so'ngi o'rta asrlarda va hatto bizga yaqin davrlarda ham tabiiy chashma buloqlar qoshida jo'ngina garmobalar qurishib, ulardan unumli foydalanib kelmoqda. Masalan, Tojikistonning Vohan vohasi Ishqashim tumanidagi Panjob daryosi bo'yida tog' etagida joylashgan issiq chashma qoshiga shu yerlik aholi XX asrning 70-yillarida o'ziga xos garmoba qurishgan. Garmoba binosi uncha katta bo'lmay o'zining cho'zinchoq frontal kompozitsiyasi bilan tog' relyefiga o'ta mos tushgan. Bino mahalliy toshdan ishlanib, tarhda to'g'ri to'rtburchakli simmetrik shaklga ega. Garmoba bir-biriga o'xshash ikkita erkak va ayollar bo'limidan tuzilib, har bir bo'lim yechinish va issiq basseynli cho'milish xonalaridan iborat.

Basseynlar chuqurligi odam ko'kragi balandligiga yaqin keladi. Bo'limlarga binoning bir-biriga qarama-qarshi yonidan kiriladi. Cho'milish xonalari tarhda 3,5×4,2 metr bo'lib, bir-biriga yondosh joylashtirilgan. Bu esa tashqi devorlar sathining kamayishi hisobiga xonalardagi issiqlik darajasini saqlash imkonini beradi. Binoning orqa

tomoniga jo'ngina yordamchi xona ishlanib, u cho'milish xonalar basseynida foydalanilgan suvni tashqariga chiqarib yuborish vazifasini o'taydi. Garmobaning sal yuqorisidan yo'l o'tgan bo'lib, u binoni yaqin qishloqlar bilan bog'laydi.

Binoning me'moriy hajmiy yechimi devorlar va tomning kirgan va chiqqan past-u baland joylaridagi yorug'lik va soyalar kontrasti evaziga hamda tog' toshidan ishlangan bino devorlarining atrof-muhitga hamohangligi bilan ajralib turadi. Cho'milish basseynlari xonalarni shamollatish garmoba ustiga o'rnatilgan mo'ri orqali amalga oshiriladi.

Tojikistonning Ayniy tumanida tog'lik Urmetan qishlog'idagi Langar daryosi havzasiga yaqin joyda shifobaxsh chashma bo'lib, XX asrning 50-yillarida mahalliy xalq issiq suvdan foydalanish maqsadida bu yerdagi tog' etagiga garmoba qurishgan. Bino yaxlit ayvonga birikkan uchta to'rt tomlu yuvinish xonalaridan iborat bo'lib, sementli qorishmada mahalliy tog' toshidan qurilgan.

Cho'milish xonalariga ayvon orqali kiriladi. Bu xonalarning orqasida 2,1 metr balandlikda issiq chashmaga ulangan quvur joylashgan bo'lib, undan oqayotgan shifobaxsh issiq suv cho'milish xonalariga tarqaladi. Cho'milish xonalarining balandligi 3,6 metr bo'lib, sathi o'rtacha 18-20 kv m ni tashkil qiladi. Bino tarzini shakllantirgan to'rt ustunli ayvon balandligi ham 3,6 metr. Har bir yuvinish xonasining poliga issiq suv oqib tushayotgan joyda, chuqurligi tizza bo'yiga teng cho'milish hovuzchalari ishlangan. Tashqi ko'rinishidan ayvonli binoni eslatuvchi tosh devorli garmoba atrofidagi tog' landshafti va tabiiy muhit bilan hamohang bog'langan. Ayvon darpardalar bilan bo'linib, yechinib va cho'milib chiqilgach dam olish joyi vazifasini bajaradi.

O'zbekistonning Shahrisabz tumani tog' etagidagi Qizil Emchak qishlog'ida ham ikkita chashma bo'lib, biri Garmak, ikkinchisi Bulkokinak deb ataladi. Shashmalar bir-biriga yaqin joylashgan. Ulardan sal pastroqda, ya'ni tog' qiyaligida shinamgina bir garmoba qurilgan bo'lib, uning orqa devori va tomi qiyalikka qo'shilib ketgan. Bino tog' qiyaligiga frontal joylashgan uchta xonadan iborat, daxlizga o'xshagan xonadan ikkita alohida cho'milish xonalariga kiriladi. Ularning tomida mo'jazgina tuynuklari bo'lib, ularga suv yuqorida joylashgan chashma buloqlaridan yog'och tarnovlar orqali oqizib keltirilgan. Garmak suvi qishin-yozin issiq bo'lganligidan hatto qish kunlari ham garmobada bemaol rohat qilib cho'milish mumkin. Qishloq xalqi binoga «Chashmai hammom» deb nom

rgan. Bino oddiy, bezaksiz bo'lsa-da, ustidagi tirgagichli tarnovlari va sh devorlari bilan tog' manzarasiga uyg'unlashib ketganligi uchun kishi tiborini o'ziga tortadi.

Bunday shifobaxsh cho'milish binolari va garmobalarning mavjudligi O'rtin Osiyo xalqlarining o'tmishda chashma buloqlar qoshida o'ziga o'rin inshootlar qurib, ulardan sog'lomlashtirish vositasi tarzida foydalanganligidan dalolat beradi. Buni esa hozirda keng tarqalgan zamonaviy suv shifoxonalari va «vodolechebnitsa» larning xalqimizdagi o'z imsoli deb qarashimiz mumkin.


O'tmishda shakllangan mana shunday oddiy garmobalardan keyinchalik ularning takomillashgan zamonaviy maxsus me'moriy majmualari va hatto o'sha shifobaxsh tabiiy chashmalar va qurilgan garmobalar mosida «balneologik» sihatgohlar vujudga kelgan.

VII bob. O'RTA OSIYO ARXITEKTURA YODGORLIKLARINI LOYIHALASHNING NAZARIY ASOSLARI

7.1. Binolarni loyihalashdagi umumiy me'moriy qoidalar

O'tmish davri ta'lim-tarbiya va ilm-fan maskanlari me'morchiligi tarixi haqida gapirar ekanmiz, bu davrda bunyod etilgan me'moriy majmualar va binolarning qurilishi mukammal nazariy asoslarga ega ekanligini alohida ta'kidlamoqchimiz. Me'morchilik sohasidagi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Turkiston me'morchiligi Qadimgi Misr va Yunon, shuningdek, Qadimgi Sharq xalqlari me'morchiligi qatori o'zining sinalgan urf-odatlari, tartib va qonuniyatlariga ega bo'lib, ulardan ayrimlari xalq orasida hanuzgacha saqlanib qolgan.

Bino tarhini ishlashda miqyosiy o'lchov – moduldan foydalanish va simmetriya qonuniga asoslanish, bino shakllari tomonlarini kvadrat va «oltin kesim» nisbatlarida chiqarish, ularda mutanosib uyg'unliklarni qo'llash, me'moriy bezaklarda girih va islimiy, murakkab naqshlardan foydalanish, ularni uzoq va yaqindan ko'rinadigan naqshlarga bo'lib ishlash qoidalariga amal qilish eng oddiy tartiblar qatoriga kirgan.





Bino tarhini ishlashda modul to'ridan foydalanish uslubi. Buxorolik me'mor chizmasi (xonaqoh). XVI asr.

Birgina bino tarhining miqyosiy o'lchov tizimi – modul to'ridan foydalanib me'moriy ishlanish tartibini olib ko'raylik. Bu uslubda bino tarhi qog'ozda chorsi (kvadrat) kataklar ustiga chizilib, turli o'lchamlar: devor qalinligi, eshik va deraza o'rni, ravoq yoki peshtoq kengligi kabilar shu katak tomonlariga teng va takrorlanuvchi (karrali) nisbatlarda olingan.

Kvadrat katakcha tomonlari o'sha davr uzunlik o'lchamiga (gaz, tirsak, qarich, qadam) kabilarga mos bo'lgan. Natijada ushbu katakchalar yoxlamida me'mor tarhda bino qismlarining mutanosibligiga yerishgan hamda qurilishga sarf bo'ladigan materiallar hajmini oldindan hisoblab bilgan. Xuddi shu yo'sinda binoning hajmiy tuzilishi ham nisbatlab topilgan. Lekin bunda me'mordan miqyosdan tashqari shakllar uyg'unligini aniqlash qonuniyatlarini ham bilish talab etilganki, bunda u qator handasaviy yasash usullaridan foydalangan. To'g'ri, bu qadimgi me'moriy qonuniyatlarni amalda qo'llash, zamon zayli bilan, bir rivojlanib, bir unutilib va yana qayta tiklanib turilgan. Masalan, somoniylar davrida (IX-X) Movarounnahr me'morchiligi nisbatan yaxshi rivojlanib, amaliy handasa va muhandislik san'ati keng qo'llanila boshlaydi. Bunga misol, Buxorodagi Somoniylar maqbarasidir. Maqbaraning tarhi, shakli-shamoyili va oddiy g'ishtdan ishlangan nafis bezaklarigacha muhandislik qoidalari asosida yaratilgan.

Temuriylar davrida bunyod etilgan madrasa va xonaqohlar va boshqa inshootlarda esa qadimdan meros bo'lib kelgan me'moriy va muhandislik tartibotlarini qo'llash yanada keng rivoj topadi. Chunki, aksariyat temuriylar yaratuvchanlik, me'morchilik, el-yurt ma'murchiligini dildan yoqtirar va sevar edi. O'zlarining ham me'morchilikdan bilimlari keng bo'lib, me'moriy loyihalar tuzdirar, zarur hollarda esa ularni tekshirib, tuzatishlar kiritar, qurilish ishlarining borishini kuzatib turar edilar.

Masalan, Amir Temur Turkistondagi Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbara-xonaqosini bino ettirganda dastlab uning me'moriy chizmasini tayyorlab,



Buxoro. Somoniylar maqbarasining me'moriy chizilish uslublari
(K.S. Kryukov bo'yicha). Tarhi va tarzi.

binoning asosiy rejaviy-hajmiy parametrlarini o'zi ko'rsatib beradiki, toki quruvchilar Temurning piri Ahmad Yassaviyga bo'lgan hurmat e'tiborini past qilib ko'rsatmasin.


Temurning Shahrisabzdagi Oqsaroyi yoki Samarqanddagi jome masjidida me'moriy majmualarini bunyod ettirish bobida ham xuddi shu fikrni bildirish mumkin. Umuman, Temur va temuriylar me'mor-muhandislar bilan ittifoq tarzda o'z inshootlarini bino ettirganlar.

Mirzo Ulug'bek boshliq akademiyaning yetuk ilmiy xodimi G'iyosiddin Koshiyning esa nafaqat munajjim va riyoziyotchi olim, balki o'rta asr me'morchiligining handasaviy qonuniyatlarini ham mukammal o'rgangan iqtidorli muhandis ekanligini tan olmoq zarur. Xuddi shu fikrni Ulug'bekning o'zi haqida ham ikkilanmay aytish mumkinki, o'sha davrda Samarqand rasadxonasidek yirik, tuzilishi mukammal va murakkab inshootlar qurishga jazm qilmoq uchun nafaqat ilmi hay'at va riyoziyot, balki muhandislik bilimlarini ham chuqur bilmoq kerak edi.

Aytish kerakki, Ulug'bek rasadxonasi o'zining mazmun-mohiyati, qurilishi va hajmi jihatidan o'sha davrda jahonda tengsiz edi.


Koshiyning «Hisob kaliti», «Doira haqida risola» asarlarining maxsus bobi me'morchilik handasasiga bag'ishlangan bo'lib, unda toq, ravoq va gumbazlar shaklini chiqarishga doir besh xil uslubning bayoni va chizmalari keltirilgan.

a)




Koshiy ravoqlar shakllarini turli radiuslarda tutashadigan ko'p markazli aylanalardan foydalanib chizishni taklif qiladi. Me'morchilik doktori Po'lat Zohidov O'rta Osiyo obidalariga xos o'nlab


b)




Xo'ja Ahmad Yassaviy xonaqohining me'moriy chizilish uslubi (K.S. Kryukov bo'yicha): a) tarhi; b) qirgimi. Bino miqyosiy to'r uslubidan foydalanib ishlangan.




a)



b)



Ravoq ko'rishning G'iyosiddin Koshiy ko'rsatgan uslubi: a) Koshiy chizmasi (uch markazdan chizilgan ravoq; b) Koshiy uslubida chizilgan ikki, uch va to'rt markazli ravoqlar.



gumbaz va ravoqlarning tuzilishini o'rganib chiqib, G'iyosiddin Koshiyning ravoq chizish usulining to'g'riligiga ishonch hosil qiladi. Qizig'i shundaki, Koshiy ko'rsatgan usullardan biri Bibixonim masjidi hamda

Ulug'bek madrasayi-oliyasining bosh peshtoqiga ishlangan ravoq shaklini chiqarishga ham mos tushar ekan. Uni ishlashda Koshiy usullaridan biri – uch markazli aylanalardan foydalanilgan.

Demak, ushbu uslub me'morlarga Koshiygacha ancha oldin ma'lum bo'lib, me'morchilikda keng qo'llanilib kelingan. Koshiy bayon etgan usullar bajarilishiga ko'ra judda sodda bo'lib, ulardan loyiha ishlarida foydalanishga qulay, qurilishda esa bu usullar pargor (sirkul) o'rniga oddiy gazcho'p va reja ipi yordamida bajarilgan.

7.2. Bino chizmalarini loyihalashda qo'llanilgan uyg'unlik qonuniyatlari

Xo'sh, me'morchilikda keng tarqalgan toq, ravoq va gumbazlarning tasvirlarini chizishda turli nuqtalarda tutashadigan ko'p markazli aylanalardan foydalanilgan ekan, unda bino va inshootlar tarhi (rejasi) ning shakli, tomonlar va qismlar o'lchovlarining o'zaro nisbatlari qay usulda topilgan? Axir, o'tmish obidalarini kuzatar ekanmiz, ularning tarhi va tarzi, bino qismlarining o'lchovlari, shakl-u shamoyili bir-biriga shunchalik hamohang, shunchalik uyg'unki, bu nafosat aslida me'morlar qo'llagan uslub, qonuniyatlarga asoslanmaganmikan, degan fikrga borasan kishi.





Yurtdosh olimlardan M.S. Bulatov, P.Sh. Zohidov va K.S. Kryukovlar o'tmish obidalaridagi me'moriy shakllarning handasaviy tuzilishi va uyg'unlik sabablarini o'rganib chiqib, yuqoridagi fikrlarning haqiqatligini to'liq isbotladilar. Mirzo Ulug'bekning Samarqand madrasayi-oliyasi ustida olib borilgan tadqiqotlarga biroz to'xtab o'taylik.

Taniqli olim M.S. Bulatov obidaning asosiy me'moriy shakllari «oltin kesim» nisbatlarida olingan, shu boisdan obida qismlarining shakllari, uyg'un va mahobatli chiqqan degan fikrni ilgari suradi. Afsuski, olim mavjud «oltin nisbat» larni obidaga tadbiq etish tartibotini tushuntirmagan. Bu ishni ustoz P. Sh. Zohidov bajaradi va u kishi me'morchilikda keng qo'llanib kelinayotgan va biz avlodlarga yashirin bo'lgan me'moriy go'zallik qonuniyatlaridan biri – o'suvchi dinamik kvadratlar uslubini ro'yobga chiqaradi.

Ustoz bu o'rinda juda sodda, lekin o'ta to'g'ri yo'lni tutadi: «obidalar uyg'unligi tartibini oddiy pargor va chizg'ich (reja ipi) imkoniyatlaridan» izlamoq zarurligini bildiradi. Shu muhim jihatdan kelib chiqib, ustoz bino shakllarining hamohangligi va muntazamligini aniq belgilashda qadimgi me'morlar dinamik kvadratlaridan, ya'ni «o'zaro bog'liq bo'lgan kvadratlar asosida tortiladigan chiziqlar to'ridan foydalangan» degan fikrga keladi. Bunda ikkinchi kvadrat dastlabki pargor va diagonallar yordamida keltirib chiqariladi, uchinchi ikkinchisidan, to'rtinchisi esa uchinchisidan va hokazo. Dastlabki kvadrat esa, odatda, bino tarhining eni yoki bo'yiga teng, agar bino tarhining kvadrat shaklida bo'lishi ko'zda tutilgan bo'lsa, u dastlabki kvadrat tarhi shakliga teng qilib olinadi. So'ngra shu kvadratlar to'ri ustiga bo'lg'usi binoning mukammal tarhi chiziladi. Shu tarh o'lchamlariga bog'liq holda yana to'r ustiga endi bino tarzining chizmalari chiziladi. Shunday qilib, bino qismlarining o'zaro mutanosib va uyg'un nisbatlarda bo'lishligi ta'minlanadi. Bu esa binoning handasaviy jihatdan muntazam, me'moriy mukammal va go'zal chiqishini ta'minlaydi.

Ulug'bek madrasasining nafaqat tarhi, balki asosiy eshiklari o'rni ham dinamik kvadratlar chiziqlariga to'g'ri keladi.

Eshiklardan ikkisi bosh peshtoq yonlarida, qolganlari esa yon tarzlarda joylashgan. Hovli ichidagi eshik va ayvonlar ham dinamik kvadratlar chiziqlariga batamom to'g'ri keladi. Mana endi Ulug'bekning Samarqanddagi madrasayi-oliyasi nima uchun asrlar osha boshqa madrasa binolarini qurishda me'moriy namuna bo'lib kelganligini tushuntirsa bo'ladi. Chunki uning me'moriy-rejaviy yechimlari modul to'ri va dinamik kvadratlar tartibi asosida ishlangan ekan.




Dinamik kvadratlar qonunining me'moriy amaliyotda qo'llanishi:

- a) Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasi (1416–1420 yy.). Tarhi va tarzi;
- b) Samarqanddagi Tillaqori madrasasi va masjidining (1646–1660-yy.) tarhi.
- d) P. Zohidov kashf etgan «Me'moriy al-Qonun»
(dinamik kvadratlar qonunining) chizmasi.

Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asariga Kamoliddin Behzod ishlagan miniatyuralarning birida qurilish jarayoni ifodalangan bo'lib, unda bosh me'mor qurilayotgan binoning modelini ushlab turgani tasvirlangan.

Surat binoning o'sha model bo'yicha qurilayotganligini va, ayni paytda, me'morning quruvchilar ishini nazorat qilayotganligini ko'rsatadi. Bu esa temuriylar davrida qurilish jarayonining nafaqat amaliy handasa asoslari, balki zarur hollarda bo'lajak bino modelini yasash orqali ham amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Demak, ikkilanmay aytish mumkinki, temuriylar davrida me'morlar o'tmishdagi quruvchilarning ilg'or tajriba va an'alarini davom ettiribgina qolmay, balki o'zlari ham kelajak avlodlar uchun boy madaniy meros va me'moriy san'at dasturini yaratib qoldiradi va rivoj toptiradi. Bunda ayniqsa, me'morlarning nazariy



Turkistondagi Xo'ja Ahmad Yassaviy yodgorligi tarzining miqyos (modul) to'rida loyihilash tartibi.

uning yordamida bino va inshootlar tarhi va tarziga tegishli barcha qism (shakl)lar handasaviy uyg'unligi yoxud go'zalligini ta'minlash mumkin. Me'moriy «Al-qonun» o'z tarkibiga P. Zohidov ro'yobga chiqargan dinamik kvadratlar qonunini, shuningdek, tomonlari 3:4:5 nisbatdagi «misr uchburchagi» dan hamda me'morchilikdagi mashhur «oltin kesim» nisbatlaridan foydalanish kabi qator qoidalarni ham qamrab oladi.

Shunisi xarakterliki, ushbu qonun bo'yicha barcha mutanosib nisbatlar kattaligi irrasional sonlarda emas, balki oddiy yaxlit sonlarda ifodalanadi. Bu esa me'mor-muhandisga loyihani qurilishga oson tadbiiq qilishga qulay imkoniyat tug'diradi.

Xulosa qilib aytganda, temuriylar homiyligidagi me'mor-muhandislar va binokor ustalar me'morchilikdagi ushbu go'zallik qonuniyatlaridan ustalik bilan foydalanib kelganlar va o'zlari ham G'iyosiddin Koshiy kabi mashhur muhandislar misolida me'morchilik nazariyasi va amaliyotining yangi pog'onalar sari ko'tarilishiga o'z hissalarini qo'shganlar.

Endigi navbat ana shu noyob madaniy merosni mukammal o'rganib, amaliyotga joriy qilish, shaharsozlik va me'morchilik amaliyotiga qo'llash choralarini axtarmoqdir.

MAVZULARNI MUSTAQIL O'ZLASHTIRISH VA MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQ VA SAVOLLAR

1. Otashkada va otashgohlarning kelib chiqish va shakllanish tarixini tushuntirib bering.
2. Otashkada va otashgohlarning funksional tarkibi va me'moriy tuzilishi qanday bo'lgan? Aniq misollarda tushuntiring.
3. Otashkada va otashgohlarning xalq hayotidagi roli va o'rnini? Ular qanday vazifalarni bajargan?
4. Budda ibodatxonalarini – budkadalarning kelib chiqish va shakllanish tarixiga izoh bering.
5. Budda ibodatxonalarining tarkibiy va me'moriy tuzilishini aniq tarixiy misollar asosida tavsiflang.
6. Budda monastirlari – vixaralarning vazifalari nimalardan iborat?
7. Stupalar nima, ularga misol keltiring, ular qanday vazifalarni bajargan?
8. Xristian dini ibodatxonalarini – cherkovlarga O'rta Osiyo tarixidan misollar keltiring va ularni izohlang.
9. Cherkovlarning tarkibi va me'moriy tuzilishini aniq misollarda tavsiflang.
10. Eski Termiz xristian ibodatxonasiga ta'rif bering.
11. Masjidlarning shakllanish tarixiga, O'rta Osiyoning ilk masjidlariga ta'rif bering.
12. Masjidlarning tipologiyasi va ularga xos xususiyatlarni yoritib.
13. Jome' masjidlarining me'moriy qismlariga izoh bering.
14. Masjidlarning me'moriy-rejaviy yechimlarini aniq misollarda tushuntiring.
15. Xonaqohlarning tarixiy shakllanish va rivojlanish bosqichlarini aniq misollarda yoritib bering.
16. Qorixonalarining jamiyatdagi roli va o'rnini ko'rsating.
17. Gundishapur tibbiy akademiyasi haqida tushuncha bering.
18. Yaqin va O'rta sharq islom mamlakatlarida shakllangan tarixiy jamoat shifoxonalarini ta'riflang.
19. O'rta Osiyo tarixiy shifoxonalarining tipologiyasini yoritib bering.
20. XI asr Samarqand shifoxonasining faoliyati va me'moriy yechimlariga izoh bering.
21. Temuriylar davri jamoat shifoxonalarini ta'riflang.
22. Dorixonalarining tarixiy shakllanishini tushuntirib bering.

23. Tarixiy dorixonalarning turlari va tasnifini yoritib.
24. Qadimgi Poykent dorixonasining tuzilishini ta'riflang.
25. Tarixiy hammomlarning xalq ijtimoiy hayotidagi roli va o'rnini tushuntirib bering.
26. Qanday milliy xammomlarni bilasiz? Ularga ta'rif bering.
27. «Charga» nomli hammomlar qanday vazifalarni bajargan?
28. O'rta Osiyo hammomlarining xonalar tarkibi va ularning vazifalarini tushuntirib bering.
29. Samarqand va Buxoro tarixiy hammomlariga ta'rif bering.
30. O'rta Osiyoda obzalarning shakllanish tarixini yoritib bering.
31. Abu Mansur al-Qumri ta'riflagan «obzan»ni tushuntiring.
32. Tarixiy obzalarning vazifalarini izohlang.
33. Garmobalarning shakllanish tarixini yoritib bering.
34. Husayin Boyqaro va Abu Sayd garmobalarining me'moriy tuzilishi va yechimlariga ta'rif bering.
35. O'rta Osiyo xalq garmobalari haqida tushuncha bering.
36. O'rta Osiyoda savdo binolarining shakllanish tarixini yoritib bering.
37. Qadimgi Panjkent savdo imoratlarining ta'rifini keltiring.
38. «Rabod» va «rabot» atamalarini ta'riflang.
39. «Chorsu»ning shakllanish tarixini tushuntiring.
40. Rasta, rastagoh va ularning hillariga ta'rif bering.
41. «Toq», «tim» va «kappon» imoratlari orasidagi umumiylik va farqlar nimalardan iborat?
42. Karvon-saroylarning tarixiy shakllanishini tushuntiring.
43. Karvon-saroylar arxitekturasiga ta'rif bering.
44. Raboti Malik karvon-saroyini ta'riflang.
45. O'rta Osiyo tabiiy-iqlim sharoitlarining savdo binolari va bozorlarning me'moriy shakllanishiga ta'sirini tushuntiring.
46. Maqbaralarning me'moriy-rejaviy xususiyatlarini aniq misollarda tushuntiring.
47. Maqbaralarning tipologiyasi va ularga xos xususiyatlarni yoritib.
48. Saroylarning shakllanish tarixi va ularning tarkibini aniq misollarda ta'riflang.
49. Ko'shklar, ularning uslubi va tarkibini tushuntiring.
50. Minora turlari va ularning kompozitsion yechimini aniq misollarda yoritib.
51. Minoralarning shaharsozlikdagi o'rnini izohlang.
52. Qanday qadimiy gidrotexnik inshootlarni bilasiz? Ularga ta'rif bering.

FAN BO'YISHA TEST SAVOLLARI

- 1. Arxitektura yodgorliklarining o'ziga xos jihatlarini ko'rsating:**
 - A) Moddiy va madaniy qimmatga ega
 - B) Moddiy, badiiy, ma'naviy qimmatga ega
 - C) Badiiy, moddiy, tarixiy qimmatga ega
 - D) Tarixiy hujjat (manba tarzida va moddiy, badiiy, tarixiy qimmatlarini ega)

- 2. Ushbu fan magistraturaning qaysi mutaxassisligiga mo'ljallangan?**
 - A) Bino va inshootlar arxitekturasi
 - B) Arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini tiklash
 - C) Landshaft arxitekturasi
 - D) Shaharsozlik

- 3. Arxitektura yodgorliklarini fazoviy muhitda egallagan mavqei qanday guruhlarga bo'lish mumkin?**
 - A) Shaharsozlik obyektlariga, me'moriy obyektlarga, muhandislik inshootlariga
 - B) Shaharsozlik, me'moriy, muhandislik va bog'-istirohatchilik obyektlariga
 - C) Shaharsozlik, me'moriy va bog'-istirohatchilik obyektlariga
 - D) Shaharsozlik, me'moriy, muhandislik va bog'-istirohatchilik obyektlariga

- 4. Shaharsozlik obyektlari yodgorliklariga nimalar kiradi?**
 - A) Shaharlar, shaharlarning qismlari, mudofaa devorlari va darvozalar
 - B) Shaharlar, shaharlarning qismlari, qishloq aholi joylari
 - C) Shaharlar, shaharlarning qismlari, qishloq aholi joylari, qo'rg'on devorlari
 - D) Shaharlar va shaharlarning qismlari

- 5. Me'moriy yodgorliklarga nimalar kiradi?**
 - A) Turar joy binolari, jamoat binolari
 - B) Turar joy binolari, jamoat binolari, ishlab chiqarish inshootlari
